

U.N.XODJAMQULOV

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

DARSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

U.N.XODJAMQULOV

**ILMIY TADQIQOT
METODOLOGIYASI**

Darslik

«Osiyo tur»
Toshkent – 2024

UO'K 001.89

KBK 72

X 22

Mazkur darslikda ilmiy tadqiqot mavzusini asoslash, mavzuga oid bosma va elektron ma'lumotlar tizimidan foydalanish, tadqiqotning vazifalarini shakllantirish, tadqiqot materiallari bilan ishlash, tadqiqotni zarur ko'rgazmali ilovalar bilan ta'minlash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tadqiqot natijalarini aprobatсиya qilish hamda taqdim etish usullari yoritilgan. Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari 70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistrlariga mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmadan ta'limning barcha sohasidagi talabalar, magistrlar, doktarantlar, shuningdek oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'z malakasini oshirishda foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:
pedagogika fanlari doktori,
professor **D.O.Ximmataliyev**

Taqrizchilar:
pedagogika fanlari doktori,
professor **J.E.Usarov**
pedagogika fanlari doktori,
dotsent **F.R.No'raqulov**

UO'K 001.89

KBK 72

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7-maydagi 149-soni buyrug'i bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-782-19-3

KIRISH

Pedagogika - bu fundamental va amaliy fan. Fundamental va amaliy tadqiqotlar, avvalo ustuvor maqsadlarni o'zida ifoda etishi bilan farqlanadi. Fundamental tadqiqotlarning strategik maqsadi - nazariya va konsepsiyalarni yaratish, qonun va qonuniyatlarini aniqlash, real obyektlarning ahamiyati va xususiyatlarini tizimlashtirishdan iborat. Fundamental tadqiqotlar jarayonida obyektlarning nazariy modellari yaratiladi. Fundamental tadqiqotlar nafaqat ontologik, prognostik, balki metodologik va evristik funksiyalarni ham bajaradi, ya'ni muammoning tadqiq etish lozim bo'lgan yangi qirralarini ochib beradi hamda amaliy tadqiqotlarning evristik strategiyalari va texnologiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fan ilmiy bilimlar va ilmiy faoliyat tizimi sifatida natijasi esa, nazariy va amaliy turdag'i yangi ilmiy bilimlarda o'z ifodasini topadi. Umuman olganda, ilmiy bilim uchun haqiqat va yangining mavjudligi eng asosiy qadriyatdir. Ilm madaniyatning komponenti sifatida ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan asoslangan, muayyan tarixiy va madaniy kontekst, aksiologik doirada rivojlanadi; ikkinchi tomonidan esa - ilm madaniyatni rivojlantirish uchun asos vazifasini bajaradi.

Axborotlar globallashuvi sharoitida fanning turli m a'lumotlar bilan boyib borishi, axborotlarni tahlil va talqin qilishga erkinlikning yuqori darajada berilishi boshqa fanlar singari pedagogika faniga turli nuqtai nazardan, rakursdan qarash tuyg'usini qaror toptirmoqda. Hatto so'nggi yillarda mazkur fanga uning tabiatiga mos kelmaydigan tushuncha, yondashuvlarni zo'rma-zo'raki singdirishga urinishlar ham ko'zga tashlanadi. Pedagogika fanining fundamental xususiyatini saqlab qolishning asosiy yo'li - uning metodologiyasini aniqlashtirish va to'g'ri tushuntirib berishdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasiga doir xorijiy tillarda bir qancha darslik va o'quv qo'llanmalar, monografiyalar mavjud. Biroq respublikamiz oliy ta'lim muassasaigarining magistratura bosqichida mazkur fan bir necha yillardan buyon o'qitilishiga qaramasdan, ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini yaxlit o'zida aks ettiruvchi darslik mavjud emas. Ana shunday zaruriyatdan kelib chiqib, ijodiy guruh tomonidan mazkur darslik yaratildi. O'quv

qo'llanma matnini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishingiz, tabiiy. Buning uchun falsafiy va mantiqiy tafakkurga tayanishingiz lozimligini eslatib o'tmoqchimiz. Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasini yaxshi bilish nafaqat ilmiy izlanishlar olib borish, balki pedagogika fani mohiyatini ham to'g'ri tushunishga Sizga yaqindan yordam berishi, shubhasiz!

I-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTNING MAZMUN VA MOHIYATI

1.1. Pedagogik tadqiqot kategoriya sifatida. Pedagogik tadqiqot metodologiyasining mohiyati. Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiy xususiyatlari bilan, boshqa tomondan, pedagogik ilmlar rivojining o'ziga xosligi bilan, uchunchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o'zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, ob'ektiv voqelik hodisasi sifatid tarbiyaning muhim qonuniyatlari va tamoyillarini ochib beradi. Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtida istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda, bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagi yiriq tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish

2. Murakkab pedagogik jarayonlarni ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detallli o'rganish.

Birinchi yo'nalish tarafdirlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganish zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob'ekti hisoblanadi. Ikkinci yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (metod, shakl va b.) o'rganshga urungan holda bir narsani unutishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi. Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi – bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir. Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiy kamchiliklar:

- Mavzularning dolzarb pedagogik muammolar echimiga qaratilmaganligi, ular yangi, kontseptual g'oyalarning yo'qligi

- Farazlaming isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi

- Jiddiy xulosalarning y o 'qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi
- Shablonlik (bir qolipdalilik)
- Tavsiyalami amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yo'qlig va b cheklaydigan asosiy omillar;
- Malakaning yetarli emasligi;
- Umrini yashab bo'lgan sobiq sovet pedagogikasi g'ochlaridan xalos bo'la olmaslik
- Tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalan bilmaslik va b.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar tarkib topgan tushunchalarining an'anaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining o'z predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni yangicha talqinda qo'yemoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ular qatorida:

- Pedagogikada ilmiy fakt muammosi;
- Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi;
- O'qitish tarkibi, tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy asoslash;
- Nazariya va amaliyot kabi fundamental tadqiqotlar ham o'z yechimini kutyapti.

Tadqiqot taqdiri metodlariga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogik hodisalarning ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proportionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi. Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko'ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan

hamkorlik o'rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy m'anfaatdorlik va h.k.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda – metodologiyani chuqr o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan Shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyatini va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analistik – sintetik jamlanmasi va b.

Tadqiqotchi tafakkurining xarakteri haqidagi savol birmuncha mulohazalidir. Bu murakkab jarayonni to'liq tasvirlashga da'vogarlik qilmagan holda jihatlariga e'tiborni qaratamiz: Ob'ektivlik qaralayotgan hodisa va jarayonlarning qandaydir begona, yot tadqiqot uchun muhim bo'limgan tassurot va ta'sirlardan holi bo'lishni, narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini, undagi o'zgarishlarni xolisona ifodalashni ta'minlaydi. Aniqlik tadqiqotning barcha mualajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahilisi va umumlashmasi; turli manbalaridan otingan ilmiy axborotlardan foydalanish va b. Tanqidiylik boshlang'ich ma'lumotlarni sog'lom baholashni tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni qurishdagi shubhasiz uzlusiz va qonuniy darajasi bilan, agar ular yangi faktlarga zid ketib, dalilarni to'g'ri va chuqr tushuntira oladigan konsepsiya topilsa, ulardan voz kechish qobiliyatini qobiliyat bilan tavsiflanadi. Muayyanlik va izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligida, tadqiqot mantiqiga amal qilishda, shart-sharoitlarni hisobga olishda, ilmiy apparat tushunchalarining bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Tizimlilik o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflashga intilishda, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish, kontseptsiyalami, nazariyalarni shakllantirishda yuzaga chiqadi. Xullas, ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi belgilashda ob'ektivlikni, muayyanlikni, aniqlikni nozik, ehtirotkorona chog'ishtirishni, haqiqatni bilish yo'lining to'g'riliгини, tajriba natijalarini, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlikni taqozo etadi.

Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rinni tutar ekan. Yuqorida ta'kidlanganlar turli soha vakillarining ilmiy tafakkuriga tegishlidir. Shu bilan birga pedagog – tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlarni farqlanib turadi. Birinchidan, u yetarlicha pedagogik tajribaga ega bo'lishi, kamida besh-o'n yillik pedagogik jarayonning "ichida qaynashi" kerak. Shundagina, bu jarayonning siru-sinoatlaridan voqif bo'ladi, uning nozik, ko'z ilg'amas joylarini topadi, muammoni anglay oladi, mavjud ziddiyatlarni shakllantiradi va yangi yechimini qidira oladi. Ikkinchidan, roganic m uam m oning dolzarbli respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi. Ma'lumki shogirdni tayyorlashda kuchli shaxslar ko'magiga tayanish bizda qadimdan sinalgan usul. Ustoz o'zining zaif tomonlarini shogirdiga oshkor qilmagan holda o'zidan-da kuchliroq ustoz huzuriga yuborishni lozim topgan.

Misol uchun Mashrab hurfikrlilikda tashna edi. Birinchi ustozni Mulla Bozor Oxund (XVII asr) Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloq Ofoq Hojaga jo'natadi. Sababi Bozor Oxund shogirdining fikrlashini bo'lib qo'yishi, o'zi bilmagan holda unga yetkazishi mumkin edi. Natijada Mashrab Ofoq Hoja huzurida valiy bo'lib yetishadi. Pedagogik tadqiqotchi ob'ektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va roganic tajriba-sinov o'tkazishda undan ehtiyyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbida, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur etmasligi lozim.

Xullas, roganic voqelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'iom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart ekan. Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar roganic tadqiqotlarning asoslarini belgilashda pedagogikaning metodologik muammolarini umumannazariy muammolar bilan almashtirib, "roganic metodologiya", "pedagogik metodologiya" kabi ifodalarda noto'g'ri talqin qilayotgan hollarga duch kelinmoqda. Sababi falsafa fanigina metodologik baza hisoblanabi, uning barcha bo'limlari, tushunchalar, qonuniyatları, toifalari metodologik ahamiyat kasb etishi e'tirof qilingan. Shu bilan birlgilikda filosofiyani metodologiya bilan to'liq almashtirish ham yaramaydi: metodologiya – bu boshdan – oxir

filosofiya emas, balki uning asosiy funksiyalarini, ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Shunday qilib, hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi filosofiyadir. Filosofyaning bosh masalasi esa ob'ektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mayjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning yetakchi mavqeini qadimdan faylasuflar tan olishgan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika fanning metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaqviy filosofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi.

1.2. Ilmiy tadqiqot subyektlari va obyektlari. Tadqiqot obektini aniqlash jarayonida, biz nima tadqiq qilinayotganligi haqidagi savolga javob beramiz, tadqiqotning yangi bilimlar qo'lga kiritiladigan mazkur jihatni tadqiqot predmetida aks etadi (V.V.Kraevkiy). Tadqiqot predmeti bu obektni o'rganishining aniq jihatini o'zida ifoda etadi. F.A.Kuzinning fikricha, tadqiqot predmeti – bu muhokama qilinayotgan tadqiqot obekti doirasiga qamrab olingan barcha narsa- hodisalardir.

Tadqiqot obyekti va obyekt maydoni

Obekt maydoni va tadqiqot obektini aniqlashtirish	
Mavzu: Umumta'lim maktabi o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misoldasi)	
Tadqiqot obekt maydoni	Tadqiqot obekti
"Nima tadqiq qilinyapti? Tadqi- qotining "dilqat markazida" voqe- likning qaysi jihatni aks etgan?"	Obektiv nima mavjud va bevosita tadqiqotchining e'tibori nimaga qaratilgan?
O'quvchilarda mustaqil fikrlashni I shakllantirish yo'llari	O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning interfaol metodlari
Tarix darslarida o'quvchilarda mus- taqil fikrlashni shakllantirish yo'l-lari	Tarix darslarida o'quvchilarda mus- taqil fikrlashni shakllantirishning interfaol metodlari
5-7 sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish yo'llari	5-7 sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning interfaol metodlari

Masalan, ta'limning o'zi turli jihatlar bilan bog'liqlikda tadqiq etilishi mumkin:

- ... qadriyat sifatida;
- ... madaniyat komponenti sifatida;
- ... maqsadli yo'naltirilgan ijtimoiy lashuv mexanizmi sifatida;
- ... kirok etish bilan uyg'unlik mexanizmi sifat,
- ... dina'lik va statistik tizim;
- ... o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro hamkorligi;
- ... jarayon;
- ... natija;
- ... mustaqil ta'lim;
- ... boshqaruv va loyihalashdirish obekti;
- ... ta'lim xizmatlari sohasi va b.

Tadqiqot obekti va predmetining muhim belgilari. Tadqiqot predmetini nima uchun aniq belgilab olish lozim? Predmening aniq belgilanishi tadqiqotchini nom'a'lum jihatla'li aniqlashtirish jarayonida behuda urinishlardan xalos etadi, chek-chegarasiz elementlar, hossalar va munosabatlarga ega empirik obektlar haqida yangi fikilaim bayon edshga imkon beradi. Tadqiqot predmetining aniqlashtirilishi ilmiy izlanishning chegarasi va vektorlarini o'matishni nazarda tutadi. Tadqiqot predmeti tadqiqotchidan yangi bilimlarni qo'lga kiritish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimHgini belgilab beradi.

Tadqiqot obekti va predmetini aniqlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatoliklar. Pedagogik tadqiqotlar obekti va predmetini aniqlashda yo'i qo'yiladigan maxsus va tipik kamchiliklari:

pedagogik tadqiqotda obekt yaxlitlik, lekin ma'lum qa'lrovni ko'zda tutilgan holda belgilanadi. Tadqiqot predmeti - bu obvektini ocziga xos iihat. ma'lum bir qa'lrov diorasasi. "loyihasi" izlanishning ania diorasasi va vo'nalishini taqozo etadi:

tadqiqot predmetining metodologik jihatdan to'g'ri belgilanganligi faqat muammoning nazariy tahlili va mos kelishi, tadqiqotning konseptual asoslарini ishlаб chiqilganligi bilan bevosita bog'liqdir;

bitta obekt turli jihatlar bilan bog'liqlikda o'rganilishi mumkin;

"Tadqiqot obekti" va "tadqiqotning obekt sohasi" tushunchalarini farqlash lozim. Bir muammo maydoni doirasida tadqiqotning ko'plab obektlarini shakllantirish mumkin;

D

tadqiqot predmeti va obekti o'rtasidagi vakuumning mayjudligi. Ko'pincha obekt yoki predmet psixologiya, pedagogik psixologiya sohasi bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi ("... ko'nikmlarini rivojlantirish" yoki "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining intellektual qobiliyatini rivojlantirish"). Rivojlanish individ pisxikasi bilan bog'liq bo'lib, uni tashxis etish — psixologiya va pedagogik psixologiyaning tadqiqot predmetini tashkil etadi. Pedagogika shaxsni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalarini tadqiq etadi. Masalan, falsafal doktori dissertasiya mavzusi "O'quvchilarida mustaqil fikrashni shakllantirishning didaktik asoslarni takomillashtirish" tarzida tanlansa, pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy daijaga talabgor albatta, masalaning didaktik shart-sharoitlari — omillari, mazmuni, shakl, metod va vositalari, amaliy-texnologik tizimini tadqiq etishi talab etiladi;

tadqiqot predmetini "jarayon" sifatida belgilanishi (masalan, tadqiqot predmeti - o'quvchilarining mustaqil fikrashni shakllantirish jara-yoni). Mazkur holatda jarayon obektiv tavsifga ega. Muallif tadqiqot obektni emas, balki predmetini aniqlashtirgan. Qachonki tadqiqot predmeti tadqiqotchining subektiv nuqtai nazari obektga nisbatan aniq belgilab olingan bo'lsa, "jarayon" sifatida a'lqlashtinhshi mumkin. E.V.Berejnovaning tadqiqot ishi obekti "pedagogika olyi ta'lim muassasasi talabajarini kasbiy tayyorlash jarayoni", tadqiqot predmeti esa "kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirish tarzida belgilangan. Ana shu tarzda tadqiqot obekti ham, predmeti ham jarayon sifatida aniqlashtirilgan. Shuning bilan birga, tadqiqot predmetida muallifning tadqiqotga doir subektiv yondashuvini aks ettiruvchi aniq jihat o'z ifodasini topgan;

-tadqiqot obekti yoki predmetini ning nazariy asoslari" tarada bdgitash.

Muallif nazariy asosla'li mustaqil ravishda tadqiqot jarayonida aniqlashtiradi.

Mazkur holat pedagogik ta'limotlar tarixida tadqiqot naijiasi bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- Predmetning (obektning) tarkibiy qismi sifatida" belgilanishi. V.V.Krayevskiyning fikricha, tadqiqot obekti va predmetini aniqlashdirishda eng keng tarqalgan kamchilik bu predmetni obektning bir qismi sifatida qabul qilinishidir (masalan, tadqiqot obekti - "maktab

tarbiya tizimi”; predmet - “maktab tarbiya tizimining didaktik yo‘nalish”.

Tadqiqot obekti va predmetini aniqlashtirishga doir misollar.

Didaktik tavsifdagi mavzuga doir.

Tadqiqot mavzusi: Umumta’lim maktabi o‘quvchiarida tarixiy tafakkumi modernizasiyalashgan ta’minot vositasida rivojlantifish.

Tadqiqotning obekti umumta’lim maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkumi rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti umumta’lim maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkumi rivojlantirishning modernizasion omillari, didaktik para’letrlari va amaliy-texnologik tizimi.

Tarbiya nazariyasiga doir.

Tadqiqot mavzusi: Pedagogika oiiy ta’lim muassasasi tajabbarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obekti pedagogika olyi ta’lim muassasalarini talabalarida ma’naviy madaniyatni rivojiantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti pedagogika olyi ta’lim muassasalarini talabaiarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, amaliy-texnologik va neyrolingvisistik dasturlashtirish tizimi.

1.3. Ilmiy tadqiqot mazmun va mohiyati. Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob’yektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, babs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog’langan ikki kiyim — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o’tkazish, olingan natijalarni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo’llaniladi.

Ilmiy tadqiqot - bu ob’ektiv borliqni, qonuniylikni va dunyo barqarorligi hodisalari aloqadorligini o‘rganadigan jarayondir. Bilish inson ongingin va fikrining ilmiy tadqiqot yordamida boshqaritadigan noaniqlikdan aniqlikka yoki oddiydan murakkabga yoki to‘liqmaslikdan to‘liqlikka yo‘naltirilgan murakkab jarayon. Demak, bu jarayonni murakkab ya’ni ko‘p qirrali va ko‘p variantli dinamik tizim sifatida qarash mumkin bo‘ladi. Shu sababli uni boshqarish ham o‘ziga xos innovatsion yondashuvni talab etadi va ular mazkur jarayonni boshqarishning optimal variantlarini yaratish imkonini beradi.

Harbir fan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida rivojlanadi. O‘ziga xos tadqiqot obyekti, predmetidan kelib chiqadigan ilmiy tadqiqot usuliga ega. Tabiiy fanlarda tajriba ustivorligi, gumanitar fanlarda tafakkur eksperimenti ustivorligi amal qiladi. Chunki gumanitar insonshunos fanlarda qirq o‘lchab bir xulosa chiqarish talab etiladi. Inson obyektida, ayniqsa yoshlarda bo‘lar bo‘lmas tajriba o’tkazish maqsadga muvofiq emas. Tabiiy fanlarda tajriba yaxshi natija bermasa tadqiqot predmetini qayta qayta bir necha bosqichda ilmiy tajriba o’tkazish mumkin, insonshunoslik fanlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar inson, buyuk mavjudodni har shaklga solib eksperiment o’tkazish murakkab jarayon.

Ma’lumki, tadqiqot yangi fundamental va amaliy bilimlar yaratish, asoslash, obyekтив ilmiy faoliyat jarayoni tadqiqot predmeti voqeа hodisalarni qonuniyatlarini aniqlashdir. Har qanday tadqiqotda, avvalo dalillar aniqlanadi va u asosda nazariy qoidalar shakllanadi. Tadqiqotchining metodologik yondoshuvi, uning dunyoqarashi, maqsad vazifalarni qo‘yishi, hayotiy misollar, dalillarni tahlil qilishi va xulosa chiqarishga bog’liq.

Shuning uchun tadqiqotni tashkil etish, dalillarni aniqlash, baholash, taxminiy xulosa chiqarish, nazariy umumlashtirish metodikasi pedagogik tadqiqotda o‘ziga xos xususiyatga ega. Ya’ni, har bir fandagi singari pedagogik tadqiqotning boshlanishi umummetodologik va fanning nazariyasidan kelib chiqadi. Har qanday yangi nazariya oldin yaratilgan fanning fundamental ta’limoti asosida rivojlanadi

Globallashuv jarayonida tadqiqotchi jahon fani yutuqlari xabardor bo‘lishi, insonshunoslik borasida tadqiqotlarni tahliliy va tanqidiy o‘rganishi shart. Bizning asrimiz fanlarning tutash bandida yangi

fanlar, tadqiqotlar yaratilishi bilan harakterli. Pedagogik tadqiqot samarasi, mukammalligi insonni o'rganadigan fanlar yutug'idan foydalanilganiga bog'liq. Demak, tadqiqotni boshlanishida, pedagogik dalillarni ilmiy obyektiv baholash, ilmiy tahlil etish, maqsad va vazifasini belgilash, fanning nazariy asosini bilish, falsafiy qonun va kategoriylar asosida ta'lum -tarbiya vogeligini baholash, jahon ilmi fan yutuqlaridan maqadli foydalanish, fanlarning tutash qonuniyatları, imkoniyatini bilish ilmiy faoliyatga yo'llanmadir.

Pedagogik tadqiqotni emperik amaliy darajasi muayyan dalillar, tajribalar umumiyligi, ommaviyligi bilan o'lchanadi. Har qanday yakka, muayyan dalildan umumiylar xulosa chiqarish, tipiklik va har qanday kategoriylar talabidan kelib chiqadi. Shuningdek fanning qonuniyatları tamoyillari, nazariyasi metodologiyasi hal qiluvchi mezondir. Tadqiqotning nazariy darajasi quyidagicha ifodalanadi.

- Vogelik har tomonlama, yaxlit o'rganilganligi;
- Har qanday nazariy bilim o'z mohiyatiga ko'ra izchil ifodalanadi;
- Oddiydan murakkabga;
- Dastlabki umumlashtirishdan mukammal, yuqori abstraksiyalash;

Amaliy tushunchalarni nazariy darajasida asoslash, ifodalash uchun tadqiqotchidan yetarli dalillar, uni baholash, tahlil qilish va mantiqiy tafakkur kerak. Ilmiy mantiq mantiqiy tafakkur o'ziga xos qoniniyatlarga ega. Pedagogik tadqiqotda formal tafakkur har bir tadqiqotdagagi kabi ilmiy mantiqqa asoslanadi. Shuning uchung ilmiy tadqiqotchi quyidagi ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak:

- muhim ilmiy tushunchalarni bilish, tasavvur qilish;
- qabul qilingan ilmiy tushunchalarni dalillarni aniq tavsiflash;
- o'xshash dalillarni tanlab olish;
- umumiylar qoidalari asosida, o'xshash mohiyatiga asosan daliliy misollarni guruhlashtirish;
- dalillar vogelikdagagi umumiylilik, xususiylikni tasodifiy qonuniyatlarini tahlil qilish;
- dalillar va vogelikda o'xshashlik va farqini tasodifiyligini qonuniyatli tomonlarini qiyoslash;
- fanning har xil tadqiqotlaridagi qarashlarini inkor qilish, asoslash, ilmiy munozara;

- Ta'lum-tarbiya borasidagi dalillar, boshqa fanlar ma'lumotlar, tarixiy va hozirgi davr potensiyalari asosida rivojlanish imkoniyatlarini bilish;

- Nazariy xulosalash kabi qobiliyatlar.

Ilmiy tadqiqotda qonun, qonuniyat, tamoyil qoida, sharoit, omil kabi tushunchalarni aniq bilish. Bu tushunchalar falsafa, pedagogik, ensiklopedik lug'atlarda batafsil yoritilgan. Ijtimoiy fanlarda qonuniyat, tabiiy fanlarda formula asosida isbotlanadi. Demak, har qanday tadqiqot tajribada sinalgan tizim asosida tashkil etiladi.

Olimlik fazilatlari va ma'suliyati haqida o'tmish allomalarining dil ifodalarini misol keltirsa bo'ladi:

Garchi fanlar — inson ongingin eng nafis sifatlarini uyg'otuvchi va shaklantiruvchi omil bo'lsa ham fanni kimki faqat bilish uchungina o'rgansa va tadqiq etea, o'zi shu kurrai zaminda nima sababdan yashayotganining asl ma'nosini tushunib yetilmaydi. Faqat faol ishgina odamni odam qiladi.

1.4. Ilmiy tadqiqot jarayonlarni o'rganishning tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: insonning maqsadli faoliyati, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir. Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo'yicha) yangi bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo'yicha) mavjud bilimlarni to'ldirishga erishishda anglab yetishni bilishning aniq usullaridan va ilmiy uskunalardan (o'Ichov, hisoblash texnikalari) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi. Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo'naltirilgan tadqiqot obyekti va u haqidagi (oldingi) bugungacha bo'lgan bilimlar. Tadqiqot obyekti moddiy dunyoning har qanday materiali (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilmalar, mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexnik, elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi. Ilmiy tadqiqotlar, ko'zlangan maqsadi, tabiat yoki ishlab chiqarish bilan bog'liqlik darajasi, ilmiy ishning xarakteri va chuqurligiga (qamroviga) qarab fundamental, amaliy va ishlanmalarga bo'linadi. Fundamental tadqiqotlar prinsipial yangi bilimlarni (yaratish) barpo etish va oldindan mavjud bilimlar sistemasini rivojlanishiga qaratiladi va undan maqsad tabiatning yangi qonunlarini yaratish (kashf etish) vogeliklar orasidagi bog'liqliklarni oshib berish va

yangi nazoratlar yaratishdir. (Masalan, elektromagnit maydon nazariyasi agroinjeneriyada resurslar tejamkorligi ilmiy – metodologiyasini yaratish, energiyani muhitda harakatlanishi qonunini va h.k.lar). Ishlanmalar yoki loyiha-konstrukturlik ishlari (LKI) amaliy tadqiqotlar natijalarini (masalan texnika sohasida) texnik yechimlarni (mashina, qurilma, material, mahsulot) ishlab chiqarish texnologiyalarini tajriba nuxsalarini yaratish va sinab ko‘rish, yangiliklarni takomillashtirishda foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning yakuniy qismidir. (Masalan, elektr maydoni yordamida urug‘lik donlarni saralash texnologiyasini amalgalashiruvchi texnik qurilmani yaratish).

Keltirilgan sxemada loyihalash va o‘zlashtirish bosqichlari bir vaqtning o‘zida fan va texnika sohalariga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, fundamental tadqiqotlar va ishlab chiqarish oralig‘ida o‘zaro bog‘langan bosqichlar: amaliy tadqiqotlar – ishlanma – loyiha joylashgan. Ilmiy tadqiqotlar strukturası. Ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) – obyektiv borliqni, qonuniyatlar va real dunyo voqeletiklari orasida bog‘liqlikni anglab yetish – bilish jarayonidir. Bilish – ilmiy izlanishlar (tadqiqotlar) yordamida amalgalashiriladigan bilmaslikdan bilimga, chala yoki noaniq bilimlardan to‘laroq va aniq bilimlarga inson onggi va tafakkuri yo‘naltirilgan murakkab jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar bosqichma-bosqich amalgalashiriladi va texnika yo‘nalishida ko‘pgina holatlarda keltirilgan strukturaga monand ketma-ketlikda tashkil etiladi. Ilmiy tadqiqotlar olib borishni har bir bosqichida ilmiy muammoni (masalani) umumiyligi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichida nafaqat tadqiqot olib boriladigan muammo yoki masala shakllantiriladi, balki ishning muvaffaqiyatli yakuni ko‘p tomonlama bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqot vazifalari ham aniq shakllantiriladi. Ilmiy muammoni (masalani) shakllantirishga tadqiqot olib borilayotgan muammo yoki masalaga o‘xshash masalalarning yechimlarini texnik va nazariy usullari va vositalari, hamda turdosh sohalardagi tadqiqot natijalari haqida ma’lumotlar yig‘ish va tahlil etish kabi muhim ilmlar kiradi. Ilmiy muammoni (masalani) yechishning birlamchi gipotezasini ilgari surish va asoslash aksariyat hollarda ilmiy tadqiqotning birinchi bosqichida belgilangan ilmiy masalalar va tadqiqot mavzusiga oid to‘plangan

axborotlarning tahtili asosida shakllantiriladi.

Muammoni yoki ilmiy masalani yechishga erishish bo‘yicha shakllantirilgan bir necha birlamchi gipotezalar orasida eng maqbuli tanlab olinadi. Birlamchi ilmiy gipotezani ishonchligini aniqlash maqsadida ayrim hollarda birlamchi ekspertiza, ya’ni tajribalar o‘tkazish zaruriyati ham tug‘iladi. Ilmiy tadqiqotlarning qonuniyatlarning tadqiqot obyektiiga bog‘lab analiz va sintez qilish va shuningdek, matematik apparatlardan, nazariy elektrotexnika va boshqa nazariy bilimlardan foydalanib hozirgacha ma’lum bo‘limgan yangi qonuniyatlarni ochishga erishish ko‘zda tutiladi. Nazariy tadqiqot qabul qilingan ilmiy gipotezani analistik rivojlantiradi va tadqiqot olib borilayotgan ilmiy muammoning nazariyasini yaratilishiga olib kelishi kerak. Boshqacha aytganda bilimlar tizimini tadqiqot olib borilayotgan muammo doirasida ilmiy umumlashtirishdir. Yaratilgan ushbu nazariya izlanishlar olib borilayotgan muammoga oid voqelik va faktlarni oldindan belgilab va tushintirib bera olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Eksperimental tadqiqotlar – ilmiy asosida qo‘yilgan tajribadir. Eksperimental tadqiqotlardan ko‘zlangan maqsad ilmiy muammo (masala) yechimining to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish bo‘lib, uning natijasini tasdiqlashi yoki inkor etishi mumkin. Tadqiqot olib borilayotgan obyekt (muammo yoki masala) bo‘yicha fundamental izlanishlar olib borilmagan yoki nazariy asoslari yetarli bo‘limgan hollarda eksperimental tadqiqotlar natijalarini muammoni nazariy yechimlarini shakllantirishga (topishga) asos yaratadi. Ilmiy tadqiqotning navbatdagi bosqichi eksperimental va nazariy tadqiqotlar natijalarini solishtirib (taqqoslab) ko‘rib ularni bir biriga mos kelishi (to‘g‘ri kelishi) haqida, hamda ilgari surilgan ilmiy gipotezani tasdiqlashi haqida uzul-kesil xulosa qilinadi. Ayrim hollarda natijalar bir biridan ancha farq qilsa yoki umuman to‘g‘ri kelmasa ilmiy gipotezaga o‘zgartirish kiritish yoki gipotezani inkor etishga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot natijalariga yakun yasash, olingan natijalar tadqiqot maqsadi va vazifalariga to‘la javob berishi hamda umumiyligi xulosa va tavsiyalarni shakllantirishi ilmiy izlanishning yakuniy bosqich vazifalariga kiradi. Texnika sohasida, jumladan, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish sohasida tadqiqotlar natijalarini o‘zlashtirish (amalda tadbiq etish) bosqichi

ham ko‘zda tutiladi. Bunda tadqiqot natijalarini yoki texnologik va konstruktorlik ishlanmalarini iste’molchiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot turlari muayyan bir ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Fundamental va amaliy tadqiqotlar quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1-bosqich. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash va ifoda etish: – bo‘lajak tadqiqotlarga taalluqli muammolar bilan mamlakat va xorijiy adabiy manbalar bo‘yicha tanishish, uning dolzarbligini asoslash; – muammolar bo‘yicha tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlarini belgilash va tasniflash; – mavzuni ifodalash va tadqiqot annotatsiyasini tuzish; – texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqot ishlari (ITI) umumiy kalendar rejasini tuzish; – kutilayotgan iqtisodiy yoki boshqa foydali samarani oldindan belgilash.

2-bosqich. Tadqiqotning maqsadi va vazifasini ifodalash: – mamlakat va xorijiy nashrlar bibliografik ro‘yxatini tanlash va tuzish (monografiya, darsliklar, maqolalar, patentlar, kashfiyotlar va b.), shuningdek, tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish; – mavzu bo‘yicha manbalar va referatlar annotatsiyasini tuzish; – mavzu bo‘yicha masalalarning ahvolini tahlil qilish; – tadqiqot maqsad va vazifalarining bayonini tuzish.

3-bosqich. Nazariy tadqiqotlar: – obyekt va tadqiqot predmetini tanlash, fizik mohiyatini o‘rganish va tadqiqot topshirig‘i asosida ishchi farazni shakllantirish; – ishchi farazga muvofiq modelni aniqlash va uni tadqiq etish; – tadqiq etilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish.

4-bosqich. Eksperimental tadqiqotlar (tasdiqlash, to‘g‘rilash yoki nazariy tadqiqotlarni inkor etish uchun): – eksperimental tadqiqotlar maqsad va vazifalarini aniqlash; – eksperimentni rejorashtirish va uni o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish; – eksperimental qurilmalarni va eksperimentning boshqa vositalarini yaratish; – o‘lchov usullarini asoslash va tanlash; – eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish va ularning natijalarini ishlab chiqish.

5-bosqich. Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va rasmiylashtirish: – nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqqoslash, ularning farqlarini tahlil qilish; – tadqiqot obyekti nazariy modelini

aniqlashtirish va xulosalar; – ishchi farazni nazariyaga yoki uning raddiga aylantirish; – ilmiy va ishlab chiqarish xulosalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini baholash; – ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish va uni retsenziya qildirish.

6-bosqich. Joriy etish va iqtisodiy samaradorlik: – tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish; – iqtisodiy samarani belgilash.

Ishlanmalarni, loyiha konstruktorlik ishlarini (LKI) bajarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1-bosqich. Dolzarblikni asoslash va mavzuni shakllantirish, LKIning maqsad va vazifalarini shakllantirish (ITI 1-, 2-bosqichlaridagi ishlar bajariladi).

2-bosqich. Texnikaviy topshiriq va taklif: – eksperimental namunani loyihalashda texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish; – texnikaviy-iqtisodiy asos; – patentga loyiqlikni tekshirish.

3-bosqich. Texnikaviy loyihalash: – texnikaviy loyihalar tafqindarini ishlab chiqish va samaralirog‘ini tanlash; – ayrim qism va bloklarni ishonchlilik ko‘rsatkichlarini tekshirish uchun yaratish; – texnikaviy daraja va sifatni belgilash, texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash; – texnikaviy loyihani kelishib olish.

4-bosqich. Ishchi loyihalash: – ishchi loyihani ishlab chiqish; – zarur konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash.

5-bosqich. Tajribaviy namuna tayyorlash: – ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash; texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, qurilmalarni, kesuvchi va qo‘srimcha asbob-uskunalarni loyihalash va tayyorlash; – tajribaviy namuna detallari, qismlari va bloklarini tayyorlash, ularni yig‘ish; – tajribaviy namunani aprobatsiya qilish, me’origa yetkazish va sozlash; – stendda va ishlab chiqarishda sinash.

6-bosqich. Tajribaviy namunani me’origa yetkazish: – tajribaviy namunaning qismlari, bloklari va uni to‘la ravishda sinovdan keyin ishflashini tahlil qilish; – ishonchlilik talablariga javob bermaydigan ayrim qismlar, bloklar va detallarni almashtirish.

7-bosqich. Davlat sinovi: – tajribaviy namunani davlat sinoviga topshirish; – davlat sinovini o‘tkazish va sertifikatsiyalash.

Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadga qaratilganligi va ilmiy chuqurligi bo‘yicha uch asosiy turga tasniflanadi:

fundamental (nazariy), amaliy va tajriba, konstrukturlik ishlasmalari. Fundamental va amaliy ITI larning bajarilish jarayoni olti asosiy bosqichni, tajriba konstrukturlik ishlasmalari esa yetti bosqichni o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotning barcha turlari joriy etish bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari:

1. Tadqiqot obekti va obekt maydoni tushunchlariga izoh bering.
2. Tadqiqot ob'ekt maydoni va ob'ektini aniqlashtirish metodikasini tushuntirib bering.
3. Tadqiqot obektining o‘ziga xos belgilarini aniqlashtiring.
4. Tadqiqot predmetining o‘ziga xos belgilariga izoh bering.
5. Tadqiqot ob'ekti va predmetini aniqlashtirishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yiladi?

2- MAVZU: PEDAGOGIK FANLAR VA PEDAGOGIK AMALIYOT O‘ZARO ALOQADORLIGINING FUNKSIONAL-TUZILMALI MODELI

2.1. Pedagogik fanlarning muhim tarkibiy qismi va uning asosi.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida to‘rt asosiy funksiyani bajaradi: analitik, prognostik, tashkiliy va metodologik. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jam iyat taraqqiyotini ta‘minlashga alohida hissa qo‘sadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakechi o‘rin tutuvchi g ‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jam iyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg‘ot xorijiy tajribalar asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalami bajarishga e ’tibor qaratiladi:

Pedagogika fanining asosiy vazifalari Pedagog-tadqiqotchi, ilmiy-nazariy funksiyani amalga oshirar ekan, pedagogik voqelikni borligicha aks ettiradi; u yoki bu pedagogik vositalar, ta’lim modeliarining samarador yoki samarasasi pastligini tushuntiradi (empirik daraja); ta’lim-tarbiya, boshqa pedagogik hodisalar mohiyatini aniqlash; pedagogik qonuniyatlarni o‘matadi; ijtimoiy-madaniy dinamikani hisobga oigan holda ta’lim-tarbiya mohiyatining komponentlari, tarkibi, darajalarini ilmiy asoslaydi; gibrid asosda yangi didaktik va tarbiya tizimlarining ilmiy asoslanishini tadqiq etadi (falsafa, yosh va pedagogik psixologiya, pedagogika va boshqa sohalardagi bilimlami integrallash asosida). Lekin pedagogika fan sifatida nafaqat pedagogik voqelikni aks ettirish, balki uning qayta isloh etish vositalarini aks ettirishga undaydi. Konstruktivtexnik funksiyani amalga oshirar ekan, pedagog-tadqiqotchi “borliq haqidagi bilimlar”ga ega bo‘ladi: bilimlar - me’yorlar, bilimlar - ko’rsatmalar (tamoyillar, usullar, shakllar, metodik qoidalar va tavsiyalar), ular pedagogik jarayon maksimal darajada natijador bo‘lishi uchun uni qanday amalga oshirilishini aks ettiradi. U yoki

bu darajada ko'plab pedagogik tadqiqotlar ilmiy-nazariy va me'yoriy funksiyani bajaradi. Didaktika, tarbiya nazariysi, pedagogikaning umumiylari va me'yoriy metodikalari sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlaming natijalarini turli ko'rishdadir (deskriptiv, preskriptiv), ierarxik tuzilgan ilmiy.. pedagogik bilimlar maxsus ilmiy hamda metodologik.

Ilmiy bilishda umumiylari metodologiya va xususiy metodologik asos mavjud. Umumiylari metodologiya falsafaning dialektik qonunlari, ilmiy bilish haqidagi ta'lomitlar, jamiyat taraqqiyotning hozirgi davridagi konsepsiylar, milly g'oya, mafkura. Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilmay metodiologik tamoyillariga quyidagilar kiradi: Muvofiqlik tamoyili - ilmiy bilishning mazkur sohasida bilimlarning yangi tamoyillar, g'oyalar konsepsiylar asosida tizimga solish. To'Mdiruvchanlik tamoyili - tadqiqotning ko'pgina obyektlari mikrodunyoning zarraga o'xshash eng oddiy obyektlardan tortib inson va jamiyat singari murakkab obyektlarigacha. Qarama-qarshi nazariyalarni birlashtirish asosida to'la tavsiflanishi. Verifikatsiya tamoyili - mohiyat e'tibori bilan formal mantiqni yetarli asoslash. Falsafikatsiya tamoyili - mazkur tamoyilga binoan faqat inkor etish orqali tekshirib ko'rish imkoniyati bo'lgan bilim ilmiy bilim bo'Mishi mumkin. Reduksiya tamoyili - ma'lum yaxlitlik tizim murakkabligini uning nisbatan sodda tarkibiy qismlari unsurlari orqali bilishdir. Yaxlitlik tamoyili - tadqiq qilinayotgan obyektlaming alohida yaxlit xossalarni boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqada bo'lish. Kontirreduksiya tamoyili - elementar zarralardan tortib to ijtimoiy tabiiy tizimlarga barcha tabiiy obyektlarga, shu jumladan tabiiy tilga amal qilish.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi - madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalar farqlanadi. Har bir paragma ma'lum bir gnoseologik, evristik potensial, metodologik "manba"ga ega. Vaqt o'tishi biian anomaliyalar yig'ilib boradi, ya'ni "ziddiyatlar", "qarama-qarshiliklar", "kelishmov-chiliklar", masalan, ma'lumotlar va nazariya, muammo darajasi va metodologik tashkil etuvchilar imkoniyatlari o'rtaSIDA. "Har qanday urinish paradigmadagi shubhalar hamda normal tadqiqot qoidalarirting

keyingi harakatlaridan boshlanadi". Paradigma almashinuvni ya'ni "ilmiy inqilob" ro'y beradi. T.Kunning ta'kidlashicha: "Inqiroz ro'y bergan davorda mavjud paradigmadan yangi paradigmaga o'tish shog'ida, undan fanning yangi an'anasi yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayon ko'proq qayta tashkillashni eslatadi, u esa sohadagi nazariy umumlashmani, shuningdek, ko'pgina usullar va paragma flovalarini o'zgartiradi".

Zamonaviy falsafa fanida, deydi E.V.Xomich, "paradigma" tushunchasi ilmiy izlanishning nazariy-metodologik namunaviy tasvirida keng qo'llaniladi. Falsafa fanida paragma - bu nazariy, metodologik, aksiologik ko'rsatmalar tizimi bo'lib, modeilar, namunalar, sxemalar, ilmiy masalalar sifatida qabul qilingan. Mantiqda paragma - nazariy va metodologik holatlar yig'indisi bo'lib, ular fan rivojlanishi mazkur bosqichida ilmiy jam iyat tomonidan qabul qilingan va namuna, model, ilmiy tadqiqotlar standarti, interpretatsiya, baholash va ilmiy ma'lumotlar tizimi sifatida foydalaniлади, ular taxminlar ko'rinishida masalani idrok qilish uchun ilmiy bilim jarayonida paydo bo'лади.

Pedagogik amaliyot tushunchasi. Pedagogik amaliyotning bosh maqsadlaridan biri talabalarni amaliyot o'tkazilayotgan o'quv muassasalaridagi o'quv jarayoni hamda tarbiyaviy ishlardan tizimini har tomonlama o'rganishga, o'quvchilar bilan sind rahbari, guruh murabbiysi sifatida dars va darsdan tashqari faoliyat davrida tarbiyaviy ishlardan olib borishga tayyorlashdan iboratdir.

Talabalarning pedagogik amaliyot jarayonida kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, maktabalarda o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy-pedagogik va psixologik tayyorgarlik, ijodiy fikrlash va mahorat, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishni shakllantirishga asoslangan. Pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiylari psixologik-pedagogik qonuniyatlarini qo'llash malakalari bilan ta'minlash;
- talabalarni maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv-

tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;

- o'qituvchining muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivoj-lantirish;

- talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otish;

- talabalarning pedagogik-psixologik faoliyatda bevosita qatna-shishlariga erishish;

- talabalarni maktab, litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilarini pedagoglik kasbiga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;

- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni joriy va istiqbolli rejalshtirishga o'rgatish.

Pedagogik amaliyot o'tkazish davri 3 bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich bajarishi lozim bo'lgan o'z vazifasiga ega. Pedagogik amaliyotning birinchi haftasida talabalar maktab ma'muriyati, pedagogik jamoasi bilan tanishadilar va maktab sharoitiga moslashadilar. Sinf (guruh) va sinf (guruh) rahbari, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, mahoratini kuzatadilar, o'rganadilar. Maktab, sinf hayoti bilan tanishib chiqadilar va hokazo. Shu bilan bir vaqtida talabalar o'zlarining pedagogik amaliyotga tayyorliklarini sarhisob qiladilar (bilim va ko'nikmalar, pedagogik anglash, pedagogik refleks, pedagogik – psixologik tayyorgarlik va boshqalar). Pedagogik amaliyot paytida asosiy kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni kechadi. Pedagogik amaliyot talabalarning pedagogik faoliyatga ko'nikishiga imkon tug'diradi. Shu bilan birga talabalarning nazariy tayyorgarligini boyitish va to'ldirish, olgan bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, amaliy topshiriqlarni bajarishda o'rganilayotgan fanning nazariy jihatlaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratadi. Pedagogik amaliyot paytida asosiy kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni kechadi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining o'z hayotini kela-jak avlod ta'lim va tarbiyasi kabi jiddiy, mas'uliyatli ishga bag'ishlashiga, talabalarning mehnatga shayligini amalga oshirishga tayyorligini tekshiruvni birinchi jiddiy sinovdir.

Pedagogik amaliyot talabalarning nazariy tayyorgarligini boyi-tadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga,

amaliy vazifalarni hal qilish uchun o'rganilayotgan fanning nazariy qoidalardan foydalanishga imkon beradi. Pedagogik amaliyotning ta'limiy xarakteri samarasи ko'pincha oliy o'quv yurti va mакtabning o'zaro aloqasi bilan, olimlar, metodistlar va o'quv yurti pedagoglari jamoasi hamkorligi hamda ular mehnatida fan va ilg'or pedagogik tajriba yutuqlarining qo'llanish darajasi bilan belgilanadi.

Pedagogik amaliyot o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo'lib hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishida amaliyot davridagi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida mustaqil ishlash ham faol ko'maklashadi. O'z-o'zini tarbiyalash milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va u, o'z navbatida, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogik amaliyot talabalarning ruhiy adolat va xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi; o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan diqqatini oshirishga, bu esa o'zida kasbiy munosabatni jakllantirishga, ta'limiy yoki tarbiyaviy tadbirlarni ma'lum mantiqqa, tizimga solishga intilishini kuchaytirish bilan bir qatorda atrofdagi kishilarga nisbatan ularda xotira, tafakkur, tasavvur, irodani rivojlanishiga, o'z fanida uchrab turadigan turli termintlarni, formulalarni, tenglamalarni, tushunchalarni chuqurroq tahsil qilishga, o'z faniga ijodiy yondashishga olib keladi.

Pedagogik amaliyot tadqiqot ishlarni, jumladan: darsni psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilish, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, sinf jamoasini va o'quvchi shaxsini jamul-jam tarzda o'rganish, o'quvchilar bilan tajriba ishlarni olib borish, o'zidan katta hamkasabalarining, mo'hir pedagoglarning ishlarni bevosita kuzatish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishni ham ko'zda tutadi.

Amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi mahoratlar mustahkamlanadi va rivojlanadi:

- O'quv mashg'ulotlarining dars ishlannmalari va mavzu rejalarini ishlab chiqish, sinfdan tashqari ishlarni rejalshtirish;

- darslarni mustaqil tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;

- bolalar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda turli xil sinfdan va mактабдан ташқари тарбиявий ишларни оlib borish;
- o'qituvchilar, bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda o'rgatish;
- mакtab hujjatlarini olib borish (sinf qaydnomasi), bolalar kundaliklari, daftarlarini tekshirish, ko'rgazmali quollar, didaktik materiallar tayyorlash;
- ota-onalar bilan yakkama-yakka ish olib borish, ota-onalar faollari bilan ishlash, ota-onalar yig'ilishlarida so'zga chiqish (oilaviy tarbiyaning dolzarb muammolari haqida);
- aholi bilan, turar joylardagi, mahallalardagi bolalar va o'smirlar bilan madaniy-ommaviy ishlar olib borish;
- kurs loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda foydalanish uchun materiallar yig'ish maqsadida pedagogik tajriba yoki ijodiy-tekshiruv ishlarini olib borish;
- amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahsil qilish va hokazo.

2.2. Pedagogik amaliyotning funksional tuzilmasi va modeli.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonunda butun dunyo ta'lim me'yori asosida tuzilgan davlat ta'lim talablari darajasida, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida chet el ta'limi bilan raqobat qila oladigan, raqobat jarayonida Vatan sha'ni, manfaati va obro'sini munosib himoya qila oladigan milliy kadrlarni yetishtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bu muhim vazifani amalga oshirish yalpi ta'lim va tarbiya tizimini, uning murakkab qismalaridan biri pedagogik amaliyotni tashkillashtirishni tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Chunki, yangi zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos Yangi pedagogik xodimlarni avvalgi pedagogik texnologiya asosida tayyorlash aslo mumkin emas. Shu bois, kadrlar tayyorlash milliy dasturida Yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va uni hayotga tadbiq etishga talaba-amaliyotchilarni o'rgatish alohida ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga muvofiq pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan qatnashishini shakllantirish, pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarash, hurmatini rivojlantirish va mustahkamlash ijtimoiy, maxsus,

pedagogik va psixologik fanlarni chuqr o'rganishga yordam berish. 2. Bo'lajak o'qituvchining Yangi jamiyat talablariga, shuningdek, mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga javob beradigan kasbyi mahoratlarini egallahiga yordam berish. 3. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ularni o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlar jarayonida mohirona foydalanishga o'rgatish. 4. Talabalarni o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini nazarat qilish va tanlash uquvi bilan qurollantirish. 5. Talabalarni o'quv-tarbiya korxonalaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining hozirgi davrdagi holatlari, yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va o'rgatish. 6. Talabalarni psixologiya, pedagogika, bolalar va yosh o'smirlar fiziologyysi fanlaridan egallagan bilimlari asosida, mustaqil o'zbekiston Respublikasi xalqlarining milliy-madaniy dasturlaridan foydalanib mashg'ulotlar tashkil qilishga o'rgatish. 7. Talabalarni o'quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul va metodlarni ko'rgazmali texnik vositalarni, an'anaviy va noan'anaviy dari va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish. 8. Bo'lajak o'qituvchilarni sinf rahbari faoliyatini bajarishga har tomonlama tayyorlash. 9. O'quvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, shakllanish va bilim darajasini o'rganish maqsadida talabalarning ular bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish. 10. Talabalarni ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganishga jalb qilish, ularda pedagogik izlanuvchanlikka bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, kurs va diplom ishlarini bajarishga yordam berish. 11. Talabalarni pedagogik faoliyatiga ijodiy va izlanuvchanlik bilan yondashishga, o's faoliyatini tanqidiy baholashga, mustaqil bilim olishga bo'lgan talabchilikni shakllantirish. 12. Talaba-amaliyotchilarni xalq pedagogikasining bebafo durdonalaridan mohirona foydalanishga o'rgatish. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida, milliy mактабда milliy tarbiyanı muvaffaqiyotli olib borishga o'rgatish. 13. Bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish ishlarini uyushtirishda o'quvchilarga dunyo va davlat ta'limi me'yorlari talablari darajasida bilim berishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash.

Pedagogik amaliyotning mazmuni quyidagilardan iborat: 1 Maktabning o'quv-tarbiya ishlari bilan tanishish, pedagogik

hodisalarini kuzatish. 2. O'quvchilar va sinf jamoasining psixologik xususiyatlarini o'rganish. 3. Bolalar va o'smirlar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiyaviy ishlarni bilan tanishish. 4. Maktabning ish tajribalarini, o'qituvchi va sinf rahbarining o'quv tarbiyaviy ishlarni o'rganish va tahlil qilish. 5. O'quvchi va o'qituvchilar tarkibini o'rganish. 6. O'qituvchining, sinf rahbarining yordamchisisifatida tarbiyaviy ishlarni olib borish. 7. Fanlar bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarga qatnashish va tashkil qilish. 8. Psixologik-pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini amalda foydalish. 9. Maktabdagi o'quv-tarbiya ishlarni o'rganish, taqqoslash, tanqidiy qarash va ularni amalda foydalana bilish. 10. O'quvchilarining kasbiy qiziqishlarini o'rganish, o'quvchiga psixologikpedagogik tavsifnomasi tuzish. 11. Sinf rahbarining yordamchisi sifatida tarbiyaviy ishlarni uyushtirish. 12. Fan o'qituvchilarining yordamchisi sifatida o'quv-tarbiya ishlarni bajarish. 13. Psixologik-pedagogik va uslubiy fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni yuritish. 14. Maktabning o'quv-tarbiya ishlari sistemasini, o'quvchini va o'quvchilar tarkibini har tomonlama o'rganish. 15. Fanlar b o'yicha sinf va sinfdan tashqari ishlarni olib borish, dars va tarbiyaviy ishlarni tahlil qilishda opponent vazifasini bajarish. 16. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish. 17. Sinf jamoasiga psixologik-pedagogik tavsifnomasi berish. 16. Uslubiy va ilmiy ishlarni bajarish.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida xohlagan masala bo'yicha pedagogika institutining pedagogik amaliyot va maktab rahbariyatiga, o'quv o'rni o'qituvchilariga murojaat qilishi, o'quv – tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, amaliyotning tashkiliy masalalari bo'yicha tavsiyalar berish, o'quv muassasalaridagi bolalar va o'smirlar, yoshlar va kasaba uyushmalarining konferentsiya va yig'ilishlariga qatnashish, kutubxona, fan kabinetlaridan va mavjud o'quv-uslubiy qurollardan foydalish huquqiga ega. Oliy pedagogika ta'limga muassasasining talaba amaliyotchilari pedagogik amaliyot jarayonida: -pedinstitutning (peduniversitetning), fakultetning pedagogik amaliyot bo'yicha rahbari, guruh rahbari, metodistlar, pedagogika va psixologiya o'qituvchilar, maktab rahbariyati va o'qituvchilarining topshiriqlarini ma'suliyat bilan bajarishga, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidasini qat'ian saqlashga, kamtarinlik, tashkilotchilik, tartib-intizom,

odobrlilik va mehnatsevarlilik namunasi bo'lishiga; - pedagogik amaliyot dasturlarida ko'rsatilgan barcha vazifalarni bajarishga, bolalar bilan o'tkaziladigan quv-tarbiyaviy ishlarning tashkil qilinishi va uyushtirilishiga puxta tayyorlanishga, ularning reja va dasturlarini, konseptlarini tuzishga, uni o'qituvchi, sinf rahbari va uslubiyotchiga tasdiqlatishga; - dars jadvaliga muvofiq barcha o'quv tarbiyaviy ishlariiga va ularning tahliliga faol qatnashishga, ma'lum sifatda amaliyot kundaligini yuritish va amaliyot yakunida guruh rahbariga hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shart. Yuqorida e'tirof etilgan talablarni bajarmagan amaliyotchi pedagogik amaliyotdan chetlashtiriladi. Pedagogik amaliyotdan chetlashtirilgan yoki pedagogik amaliyot davridagi faoliyati uchun noloyiq baho olgan talaba ushbu semestrdagi o'quv rejasini bajarmagan hisoblanadi. Fakultet (Institut) kengashi qarori bilan unga o'qishdan uzuksiz ravishda takror pedagogik amaliyot belgilanadi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasıdır", – degan fikri asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Pedagogik amaliyotni tashkil etish, unig asosiy maqsadi, pedagogik amaliyot modeli haqidagi ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish natijasida o'uyidagi xulosalarga keldik.

Oliy ta'limga muassasasida o'tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyotga oid Nizomda universitet faoliyatining asosiy tamoyili bo'lgan o'qishni amaliyot bilan qo'shib olib borilishiga urg'u berilgan. Bu esa ta'limga muassasalarida ta'limga tarbiyaviy ishlarga yangicha yondashish asosida pedagogik jarayonni tashkil etishni taqozo etadi.

Malakaviy amaliyot ta'limga muassasasida o'qituvchilarining tashkiliy, konstruktivlash, rejalahtirish, kommunikativ, tadqiq qilish kabi pedagogik mahoratini shakllashtirishgagina emas, balki o'qituvchining kasbiy xususiyati va o'qituvchi shaxsi qo'ygan talabidan kelib chiqqan holda individual va insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirishga qaratilgandir.

Pedagogik amaliyot- asosiy ijtimoiy vazifa, ya'ni bo'lg'usi

o'qituvchilarni ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirish asosida har tomonlama yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va faol mehnatga tayyorlash dolzarb ilmiy-metodik muammo ekanligi asoslandi.

Pedagogik amaliyot jarayonida amaliyotchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan malakalar, talabalar pedagogik faoliyatini nazorat qilish va baholash tizimi haqida ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlandi;

Pedagogik amaliyotning vazifalari, bo'lajak o'qituvchilarda amaliy ko'nikmalar, psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalarini va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish tamoyillari asoslandi;

Pedagogik amaliyot davrida o'quv jarayonini tashkil etish, Dars va unga qo'yiladigan talablar (didaktik talablar, psixologik talablar, axloqiy-etik talablar, gigiyenik talablar, texnik talablar) va darsga tayyorgarlik ko'rishining asosiy bosqichlari haqida ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlandi;

2.3. Pedagogik amaliyotni ta'minlash omillari. O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'lli asrlarga arzigelik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'yekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatga ega. Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariiga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsada, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi. Shuningdek pedagog nazariy bilimlar berish bilan birga amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham

yetakchi hisoblanada. Chunki pedagog nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashda o'z tajribalarini tadqiq etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi 2909 - sonli qarori talablarida Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning ustivor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash masalasini tubdan qayta ko'rish xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumoti mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash belgilandi.

Ma'lumki, ta'lifdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lif jarayonining faol ishtiroychisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda boshlang'ich ta'lifda o'qitish tizimini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Ta'lif berish usuli - belgilangan ta'lif berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'lli bo'lib uni quyidagicha tasniflash mumkin: ma'ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish, ko'rsatish, videoysul, mashq, laboratoriya usuli, amaliy ish usuli, kitob bilan ishlash, suhbat, bahs, aqliy xujum, pinbord, o'quv loyihibar usuli, keys-stadi va h.k. Ta'lif shakllari esa quyidagicha guruhlanadi: ommaviy ish, jamoaviy ish, guruhli, yakka tartibli. Ta'lif vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma'naviyat saviyasiga, shahsiy axloqqa, vatanparvarlik va burchiga asoslanadi.

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va xayriyohlik, kirishimlilik va hazil-mutoyiba hissi. Ta'lif oluvchilarning bilimlarini xolisona baholash va nazorat qilish mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta'lif berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'liq. Bizga ma'lumki hozirda jamiyatimizning barcha moddiy va ma'naviy sohalarida o'zgarishlar ro'y berib, insonlar aniq maqsadlar sari intilmoqda va o'zlarini uchun muhim iqtisodiy, ma'naviy shart-sharoitlarni yaratib, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun xizmat qilmoqdalar. Bunda esa axborot va axborot texnologiyalarining o'rni muhim bo'lib,

ijtimoiy-tarkibiy o'zgarishlar va jamiyatni texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini erkinlashtirish, xizmat ko'rsatish sohasi va transkommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik jihatdan muntazam modernizatsiyalashni talab etadi. Bugungi kunda esa ishlab chiqarish rivojini axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Zamonaviy axborot tizimi kompyuter va axborot tizimlari, mahalliy va global tarmoqlar, internet tarmog'i, multimediali texnologiyalar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ular jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq ta'limi tizimi deb atalib, uni amalgalashuvchi shaxs o'qituvchi yoki muallim deyiladi. Muallimlik kasbining sharafligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan kasb-xunar yunalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, shart. Chunki pedagog ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o'qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga javobgarlikni olib, oluvchi sharaflı kasb egasi hamdir. Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internet nafaqat mifik, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga, balki har bir oilaga kirib bormoqda. Shu bilan birga davr bugungi kunda eng zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, yoshlar ongiga mos, ularning qiziqish va intilishlarga hamohang, ularni o'ziga tortadigan jihatlarga alohida etibor qaratishni ham taqozo qilmoqda. Shu bois, respublikamizda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga, uning yangi turlarini joriy qilishga katta ahamiyat berilmoxda.

Pedagogika o'quv jarayonida yuqori natijaga erishish yo'llarini doimo izlab kelgan va o'z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo'ldi. Buning natijasida turli uslubiyotlar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" o'z oldiga yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishini takomillashtirish vazifasini qo'ydi. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun zamon talabi darajasida malakalalii mutaxassis tayyorlashda malakaviy amaliyot asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak mutaxassis o'z kasbiga mos nazariy bilimlarni mustaqil, ijodiy ravishda hayotga tadbiq etish yo'llarini o'rganadi, kasbga hos malakalarni egallaydi, bolalar rivojlanishini kuzatadi, tahlil qiladi, bilim darajasini baholash bilan birga bolalarga turli faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni o'rganadilar. Matakaviy amaliyot o'tish muddatlarini mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalarida ko'rsatilgan va u quyidagi turlarga bo'linadi: Maktabgacha ta'lim muassasalarda pedagogik-psixiologik kuzatuv amaliyoti. Sinov va tajriba mashg'ulotlarni o'tkazish amaliyoti. Tajriba mashg'ulot o'tkazish amaliyoti. Diplomoldi pedagogik amaliyoti. Pedagogik-psixiologik kuzatish ishlari yuzasidan amaliy ishlarning maqsad va vazifalari. Oliy ta'lim muassasalarda yetuk kadrlar tayyorlashning muhim bir omili – pedagogika, psixiologiya va mahsus metodikani o'qitish sifatini yaxshilash, nazariy bilimlarni maktabgacha ta'lim muassasasi hayotiga ilg'or tarbiyachilarining tarjribalariga bog'lash, bozirgi sharoitda ta'lim muammolarini hal etish uchun bog'cha jarayonini o'rganish va uni tahlil qila bilish, qisman izlanish orqali dastlabki tajribalar o'tkazish kabilalar. Ayniqsa, psixiologiya, pedagogika va hususiy metodika o'qituvchilari amaldagi o'quv rejalarini va mahsus fan dasturlarida ko'zda tutilgan laboratoriya va amaliy ishlarni amaliyotning bu turida o'tkazishlari pedagogika, psixiologiya va hususiy metodikadan nazorat bilimlarni ketma-ket amaliyotda kuzatish va tahlil qilish orqali konkretlashtirish, bilimlarni puxtalash, ishonch hosil qilish orqali ta'lim jarayonining o'ziga hos hususiyatlarni o'rganish imkoniyatini beradi.

Psixiologiya fanidan ajratilgan soatlar o'quvchilarni bilish faoliyatları, psixik hususiyatlar, qobiliyalar, mijoz fe'l-atvor hususiyatlari kabi mavzular beriladiki o'qituvchi bog'cha sharoitida bolalarni kuzatishda huddi shu masalalarga talabalar diqqat-e'tiborini qaratmog'i, bilimlarni konkretlashtirmog'i, ularning faoliytlarini oshirmog'i lozim. Pedagogika fanidan esa amaliy ishlar asosan pedagogikani umumiy asoslari va ta'lim nazariyasi hamda

metodikalariga oid mavzularga qaratilgan. Chunki O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi qonunida komil inson tarbiyasida keng va puxta bilim berish, o'qituvchining xilmalil usullari, shakllardan foydalangan holda o'rganish vazifasi qo'yilgan. Bunday vazifani bajarish uchun bo'lajak mutaxassis bog'chada tarbiyani ish tizimini va hususiyatlarini, ta'lif prinsiplari, metodlari, shakllari tizimi kabilarni bilishlari lozim. Sinov va tajriba mashg'ulotlarini o'tkazish. Mutaxassislik bo'yicha namuna mashg'ulotlar o'quv tarbiya ishlarini tashkil qilish va o'tkazish usullari, imkoniyatlari va vositalarini namoyish qilish uchun o'tkaziladi. Bu psixiologiya, pedagogika o'qituvchilar namuna mashg'ulotlarini o'z fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan o'quv soatlari hisobidan o'tkazadi. Namunali mashg'ulotlar mavzulari esa fan metodi dasturi asosida belgilanadi. Diplomoldi amaliyoti. Diplomoldi amaliyot mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashdagi amaliyot turlarining yakunlovchisi hisoblanadi. Oliy ta'lif talabalarini mutaxassislikka tayyorlash diplomoldi amaliyot bilan yakunlanadi. Diplomoldi amaliyotga o'zidan oldingi barcha turdag'i o'quv pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli yakunlagan, ijobjiy baholar oлган va sinovdan o'tgan talabalar qo'yiladi. Diplomoldi amaliyoti talabalarning mutaxassislik bo'yich bilimi, mustaqil ishlash imkoniyatlarini sinab ko'rish vazifalarini bajaradi. Diplomoldi amaliyoti belgilangan Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'tkaziladi. Ayrim hollarda talabalarning kelajakdag'i ish joyida o'tkazish uchun ruhsat berish mumkin. Tarbiyachining kasbiy shakllanish jarayonida maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbariyati va jamoatchjiligi katta rol o'ynaydi. Yosh tarbiyachilarga tajribali pedagoglarni biriktirib qo'yish, ularning mashg'ulotlarini kuzatish, metod birlashma ishlariga jalb etish tashkilot rahbariyatining vazifasidir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachining o'z ustida ishlashiga, ilmiy-nazariy va metodik bilimlarini tinmay oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi.

Tarbiyachi kasbiya kirish va tarbiyachlik mahoratini egallash jarayoni, uni bog'cha jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnnini topib keta olishiga bog'liq. Bo'lajak mutaxassis jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkinlikka

tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilishi, uni mohir tarbiyachi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Nazorat savollari:

1. Metodologik tadqiqot deganda nima tushuniladi?
2. Maxsus-ilmiy tadqiqot tushunchasiga izoh bering.
3. Metodologik va maxsus-ilmiy tadqiqotning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini Venn diagrammasi asosida tahlil eting.
4. Ongsizlik va intuitsiya tushunchalariga izoh bering.
5. Pedagogik tadqiqotlarda intuitsiyaning rolini qanday baholaysiz?
6. Pedagogik ijodkorlik qanday o'ziga xosliklarga ega?
7. Pedagogik tafakkurning o'ziga xos jihatlarini aniqlashtiring.

3-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI

3.1. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari. Metodologiya tushunchasi o'zida ikki jihatni aks ettiradi: birinchisi bilish faoliyati natijalarini bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi mazkur faoliyatning o'zi hisoblanadi. Har bir fanning o'ziga xos kategoriyalari, tushunchalari, tadqiqot predmeti, obyekti va fanshunoslikning umumiyligini qoidalari, ilmiylik mezoni ifodalanishidir. Globallashuv jarayonida fanning rivojlanishi, ilmiy tadqiqot tili, kategoriyalari uning umumiyligi jahonshumul va xususiy muayyanligi muxim o'rinni tutadi. So'nggi vaqtarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va yuksak ma'naviyatli shaxsnı shakllantirish bilan bog'liqlikda metodologiyani tavsiflash bilan bog'liq qator savollar tug'ilmoqda: metodologik har bir kishining shaxsiy yutug'i bo'lishi kerak emasmi? Maxsus bilish sohasini metodologiya deb atash o'rinni boladimi? Ko'plab olimlarning sa'y harakatlari bilan fan sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni korreksiyalash va takomillashtirishdan foyda bormi?

Shuningdek, ayrim adabiyotlarda bayon etilishicha, "obyektiv" metodologiya bo'lishi kerak emas, aksincha, har bir kishi uchun ilmiy ijod individual xarakter kasb etishi, ya'ni "subyektiv" metodologiya bo'lishi lozim. Biroq mazkur fikrlarni to'liq tasdiqlab bo'lmaydi. Avvalgi paragrafda ta'kidlab o'tilganidek, pedagogika fani metodologiyasi pedagogik fanlar va pedagogik tadqiqotlar haqida bilirollar tizimini ifoda etsa, ikkinchidan, mazkur bilimlarni qo'liga kiritish, shuningdek, tadqiqot dasturi (metodologik ta'minoti) ni asoslashga doir faoliyat sifatida metodologiya sohasi bilan bog'liq qator tushunchalarga aniqlik kiritish imkonini beradi.

Shuningdek, metodologiyani tushunish nuqtai nazaridan quyidagi savollargi aniq javob topishga erishish mumkin: pedagogika metodologiyasi nima bilan shug'ullanadi va kim shug'ullanishi kerak? Pedagogika sohasida metodologik bilimlarni egallashning qanday usullari mayjud va qanday bilimlar qo'liga kiritiladi? Tadqiqotlarning metodologik ta'minotining manbalari, obyektlari va tartib-qoidalari qanday bo'lishi lozim? Dastlab metodologik tahlil obyektlarining maxsus ilmiy tahlil obyektlaridan farqiga aniqlik kiritish lozim. Qachonki, biz tahlil bilan shug'ullansak, eng avvalo,

bizning e'tiborimiz nimaga, ya'ni qanday obyektga qaratilganligini aniqlab olishimiz zarur. Pedagogikada maxsus-ilmiy ish deganda nima tushuniadi? Maxsus ilmiy ish aniq metodologik tadqiqotni anglatmaydi, u pedagogik faoliyatni tadqiq etishga yo'naltirilgan bilish faoliyatidir. Metodlar tasnifi, ta'lim mazmunini masalalari yoki zamonaviy darsni tashkil etish muammolarini o'rganish - maxsus-ilmiy tahlil sohasidir. Biroq metodologik tahlil ham bor. Mazkur holatda biz bu masalalarni qanday tadqiq etamiz: masalan, ushu masalalarni o'rganishda fan metodlari to'g'ri qo'llaniladimi, bilish maqsadi bilan biz foydalanayotgan tushunchalar tizimi bir-biriga muvofiqmi?

Ikkinchidan, metodologik masalalar maxsus-ilmiy masalalardan farq qiladi. Metodologik masalalar: maktab amaliyotida didaktik bilimlardan foydalanish masalalari, pedagogik bilimlarning turlari, xususiy metodika bilan didaktikaning aloqadorligi, pedagogik datiflar, pedagogik tadqiqotlar mantig'i, pedagogik tadqiqotlarda formallashtirishni qo'llash doirasasi va shart-sharoitlari, pedagogik tadqiqotlar bosqichi sifatida maktab tajribasini o'rganish va h.k. Mazkur holatda e'tibor amaliy yo'naltirilgan ilmiy faoliyatga qaratilgan.

Metodologik ta'minot manbalari. Pedagogika fani bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqoi ishlarning metodologik ta'minoti qator o'ziga xosliklariga ega. Metodologik ta'minoti manbasi tushunchasi tadqiqotchi uchun mo'ljal olishga imkon beruvchi va ierarsik mansublikka ega alohida turdagilari bilimlar yig'indisini anglatadi. Tadqiqotchi uchun mo'ljal olishga yordam beruvchi birinchi metodologik manba falsafiy qoidalari va undagi metodologik funksiyalardir. Masalan, nazariya va amaliyot birligi haqidagi nazariya, Anashu tarzda falsafa metodologik ta'minot manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Metodologiyaning bir nechta darajalarining mavjudligi umuminsoniy qoidalari, shuningdek, umumilmiy metodologiya darajasida ishlab chiqilgan bilimlar va yondashuvlarni metodologik ta'minot tarkibiga kiritishga teng huquq beradi.

Metodologiyaning yana bir manbasi pedagogika sohasida tadqiq qilingan ilmiy ishdir. Pedagogik faktlar, pedagogik nazariyalami shakllantirish shart-sharoitlari, pedagogikaning obyekti va predmeti

va mustaqil amaliyot oshirilgan pedagogik tadqiqotlar haqidagi bilimlami o'zida aks ettiradi. Ushbu tadqiqotlarda ta'lif sohasida qo'llaniladigan fan metodlari haqidagi bilimlar konkretlashtiriladi.

Mazkur tadqiqotlarning vazifasi - pedagogik fanlarni amaliyot bilan aloqadorlikda rivojlanish qonuniyatları va tendensiyalari, pedagogik tadqiqotlar samaradorligi va sifatini oshirish tamoyillari, pedagogika qo'llaniladigan tushunchalar va metodlarni tahlil etishni aniqlashtirishdan iborat. Metodologik bilimlar amaliy pedagogik faoliyat qonuniyatları va tashkiliy tizimlarini aniqlashda o'ziga xos vazifalariga ega bolgan maxsus-ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Yuqorida bayon etilgan pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning ikki turi bir tomonidan metodologik, ikkinchi tomonidan maxsus-ilmiy tahlilga tegishli ekanligi haqida gapirish imkonini beradi. Ular turi obyekt va yo'nalishlarga ega va muammo doirasi bilan bir-biridan farq qiladi.

Maxsus-ilmiy tadqiqotlar (masalan, ta'lif va tarbiya qonuniyatları) bevosita pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan, o'z navbatida mazkur voqeikni ilmiy aks ettiruvchi - metodologik tadqiqot sifatida ham qaraladi (ta'lif amaliyotini ilmiy asoslash usullari). Mazkur farq metodologik tadqiqot jarayonida uni nazariyada aks ettirishning samarali usullari va niyoyasida mazkur nazariyani amaliyotga ta'sirini kuchaytirish maqsadida pedagogik faoliyatga murojaat qilish zarurati yuzaga chiqadi. Masalan, o'qtishni iimiy asoslash usullarini tadqiq etishda ta'lif metodlari haqidagi tasavvurlar turli metodlarni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq masalalar yuzaga keladi. Aynan arnaliyotdagi kamchiliklar olimlarni fanga, ilmiy bilishdagi bo'shilqlarga murojaat qilishni, keyin ushbu kamchilik va bo'shilqlaming yuzaga kelish sababiarini metodologik tahlil qilishga murojaat qilishga majbur qiladi. Amaliyot uchun pedagogikada qo'llaniladigan tushunchalarni tartibga solish, kompleks tadqiqotlarni samarali tashkil etish uchun pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi mexanizmini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Metodologik tadqiqot aynan tadqiqiy tavsiyiga ega bo'lishi lozim, ya'ni istalgan ilmiy tadqiqotga qo'yiladigan talablar to'iiq bajarilishi lozim, umumiyl mulohaza va konspektiv xarakterga ega bo'lib qolmasligi zarur. Pedagogika sohasida konkret metodologik tadqiqot xususiy maxsus predmetiga ega va u yoki bu fan bo'limlari

holati, amaliyot uchun yo'naltirilgan normativ materialiami asoslash xarakteri va sifati, pedagogik konsepsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga ioriy etish dalillarida aks etuvchi empirik materiallarga tayanadi. Empirik taysisidagi (metodologik empiriya) metodologik bilimlar ilmiy bilish usullarini qo'llash haqidagi tadqiqotchining fikr-mulohazaları, ya'ni metodologik refleksiya natijasi sifatida aniq maxsus-ilmiy tadqiqotlar jarayonida ham shakllanadi. Qachonki, u shu tarzda tanlangan obyekt bo'yicha o'z harakatini kuzatib borsa, mazkur turdag'i bilimlar metodologik ta'minot tarkibiga qo'shib boradi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, maxsus rejalashtirilgan metodologik ishlar hosilasi emas, boshqa (maxsus-ilmiy) obyektga maqsadli tadqiqot mahsuli garovi sifatida namoyon bo'ladi. Empirik bilimlar obyektga bog'langan bo'lib, shuning uchun umumiy tavsiyiga ega bo'lmaydi. Ularni qo'llash mazkur tadqiqot vazifalari bilan cheklanadi. Masalan, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish yo'llarini ishlab chiqish jarayonida asoslovchi tajribabasnov ishlarini o'tkazish natijasida olingan tadqiqotchining shaxsiy tajribasi boshqa, masalan o'quv materiallarini strukturalashtirish muammosi bilan shug'ullanayotgan kishi uchun qo'l kelishi shrimoddan yiroq. Hech iloji bo'imaganda, tizimli yondashuvda qo'llaniladigan modellashtirish, ideal obyektlami kosntruksiyalash kabi ilmiy metodlarga taalluqli metodologik orientirlarga tayaniladi. Metodologiya sohasi va maxsus-ilmiy sohani bir-biridan farqlash zarur metodologik tahlil obyekti va maxsus-ilmiy obyekt tahlil, metodologik muammolar va maxsus-ilmiy muammolar, metodologik va maxsus-ilmiy tadqiqotlar. Metodologik faoliyat sohasida maxsus-ilmiy tadqiqotlar ta'minotini metodologik tadqiqotnikidan farqlash zarur. Pedagogik ijodkorlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Ijod deganda keng m'a'noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariiga muvofiq ravishda o'zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi. Uzoq vaqtlar davomida ijod - bu insonga tabiat ehson etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb hisoblanib kelingan. Aslida ijod - bu insonning moddiy va m'a'naviy boyliklami yaratish faoliyat bo'lib, unda inson tafakkuri, xotirası, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda butun bilimi, tairibasi va iste'dodi namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijod - yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma'nolarini anglatib, badiiy, iimiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarası ekanligi qayd etib o'tilgan. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'atida esa mazkur tushunchaga quyidagi tarzda ta'rif berilgan: "Ijod (arab. yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) - badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo'lib, inson ma'naviyatining amaldagi ko'rinishini ifoda etadi". Sh.Sharipov o'quvchilarning kasbiy ijodkorligi uzviyligini tadqiq etish asosida ijod - insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayondir, degan xulosaga kelgan. S.Golovin tomonidan ishlib chiqilgan amaliyotchi psixolog lug'atida ijod - yangi qimmatli g'oyalarni ishlab chiqishning psixik jarayoni, yangi moddiy va m'a'naviy ahamiyatga ega ne'matlami yaratish tarzida talqin etilgan. Ijodkorlik - individning ijodkorlik qobiliyati - noodatiy fikrlami o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalami tezda xal etish qobiliyatidir. U yangi g'oyalami yaratishga doimo tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijodkorlik tushunchasiga ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat; yaratuvchilik tarzida qisqa ta'rif berilgan.

Pedagogik ensiklopedik lug'atda "Ijodiy faoliyat sifat jihatdan yangini yaratishga doir inson yoki jamoaviy faoliyat shakli. Ijodiy faoliyatning zaruriy sharti fikrning egiluvchanligi, tanqidiylik, idrok etishning yaxlitligida aks etadi", deb izoh berilgan. Mazkur lug'atda "ijod" va "ijodkorlik" tushunchalariga alohida ta'rif berümag'an. Falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarda "ijodkorlik" original, takrorlanmaydigan, ijtimoiy-tarixiy noyoblik bilan ajralib turuvchi faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. So'nggi vaqtarda "ijodkorlik" tushunchasi bilan birgalikda "kreativlik" atamasi ham keng qo'llanilmoqda. Kreativlik - individning qayta ishlov berish va yaratish bilan aloqador xilma-xil faoliyat turlari, tashabbuskorligi, faolligi, boshqa kishilar bilan muloqot jarayonida, mental xatti-harakatlarigda namoyon bo'ladigan ijodiy salohiyati va qibiliyatları

majmuidir. N.M.Onatko "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchaları o'rnasidagi farqni quyidagi tarzda izohlagan: mazkur tushunchalar bir doiraga mansub hodisamning ikki jihatini, ya'ni ijodkorlik jarayonlinatijavli jihatni, kreativlik subyektivlik bilan bog'liqliknı o'zida aks etiradi. Garchi olim mazkur tushunchalar o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa ham, biroq ta'rif anche noaniqlik kasb etган.

Adabiyotlar tahili hozirgi vaqtida "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchaları o'rtasida qator qarma-qarshilildar mavjudligini ko'rsatadi: 1) "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchaları sinonim so'zlar sıfatida talqin qilinadi. Ya'ni kreativlik ijod psixologiyasi doirasida qo'mlanilib, mazkur tushuncha alohida ajratib ko'rsatilmaydi; 2) ijodkorlik yaxlitlikda madaniy faoliyat bilan bog'liq, kreativlik esa subyekt uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish tarzida tavsiflanadi; 3) kreativlik ijodkorlik masalasini o'rganishning alohida jihatni sıfatida inson salohiyati, ichki resurs bilan bog'liqlik kasb etadi. Aynan uchinchi yondashuv obyektiv jihatdan o'rnali bo'lib, kerativlikni ijodkorlikning o'ziga xos jihatlaridan biri sıfatida qabul qilish va uning doirasida mazkur masalani talqin etish maqsadga muvofiq. Respublikamizda o'quvchiarning kasbiy ijodkorligi sohasida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirgan sh. Sharipovning fikricha, ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sıfatları namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanib, uni quyidagi belgilarga ko'ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, teknologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, m'a'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash); ijod darajasi (ma'no ijod, multi ijod, mega ijod); ijod qamrovı (ixtisoslik, muu:- xassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning shakli (innovation, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'iimi, investitsion, aralash); umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; principial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash); yaratilgan ijod mahsulining ma'nosı va murakkabligiga ko'ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyat). Ijodkorlikni tasniflashga doir yuqoridagi yondashuvdan ma'lum bo'tadiki, ijodkorlik hamma vaqt subyektning ijodiy faoliyatini iaiab etadi. Shu bilan birga mazkur tushunchaga berilgan

ta’riflardan ijodkorlik hodisasini izohlash murakkab ekanligi anglanadi. Ijodkorlikni rivojlantirish ijodiy jarayonni tashkil etish, shaxsning ijodiy salohiyati, ijodiy fikrlash, ijodiy faollik, ijodiy qobiliyat va ijodiy faoliyatni tarkib toptirish bilan o ‘zaro aloqador ekanligini ko’rsatdi

Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning tarkibiy qismlari (D.Yakubjanova tasnifi bo‘yicha) Ijodiy jarayon o‘zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri — intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi - intuitiv fikrlash jarayonida qo‘lga kiritilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan va intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida manticiy fikrlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorliginitig barcha ko‘rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq shakllarida mutlaq o ‘z aksini topadi. Ijodiy salohiyal - bu murakkab integral tushuncha bo‘lib , o‘zida ijtimoiy axloq me’yoriari va axloqiylik doirasida turli sohalarda faoliyatni amalga oshirishga doir shaxsning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy intiiishlari yig‘indisini aks ettiruvchi tabiiy-genetik. Ijtimoiy, shaxsiy va mantiqiy komponentlami aks ettiradi. Bo‘lajak defektologlarda ijodiy salohiyat shaxsiy qobiliyat, bilim, ko‘nikmalar tizimi sifatida shaxsiy o ‘zlikning ahamiyatini anglash, o‘quv faoliyatiga ijodiy yondashuv, o‘z-o‘zini namoyon etishga intilish, hayotiy maqsadlaming anglanganligi, ijodiy faoliyatga yo‘nalganlikda namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlash insonning muammoli vaziyat sharoitida obyektiar o‘rtasidagi yangi aloqalarni izlab topish, mavjud tajribalarga asosianib, yangi harakat usullaridan foydalanish, muvaffaqiyatli yechim topishi uchun zarur jarayon bo‘lib, verbal-mantiqiy, ong osti va intuitiv-amaliy komponentlar birligini aks ettiradi. Ijodiy jarayon tuzumasida ijodiy fikrlash inotivatsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi. U bilish va subyektiv ahamiyatga ega motivlarda o‘z ifodasini topadi. Ijodiy fikrlashning asosiy mexanizmi intellektual faollikdir. Intellektual faollik shaxs ijodiy salohiyatining muhim tayanch komponenti sifatida aqliy faoliyatning intellektual va motivatsion omillarini aks ettiradi. Ana shu jihat bilan bog‘liqlikda intellektual faollik uch darajada namoyon bo‘ladi; reproduktiv, evristik va kreativ.

Ijodiy qobiliyat - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkmligini

tushunish, muammoni ifodalay olish, g ‘oya farazini ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda yechimini topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyat, intiro, san’at asari, tavsifnomha va boshqalar) sifatlari maʼmudiylidir. P.Ergashev, G.Gozibekova, G.Baykunusovalar ta’kidlab o‘sibganidek, shubxzasiq yuksak ijodiy qobiliyatlar kandaydir yagona va satto bir necha omilning emas balki pedagogik-psixologik sharoitlarining katagini kompleksi maxsulidir. Biroq ushbu inkor etish kiyin bo‘lgan mulohazani e’tirof kilish, birinchidan, kreativlikni rivojlantiruvchi bir qator omillarni sun’iy xosil kilishning iloji yo‘q, dozani emas, ikkinchidan, psixik taraqqiyotning kompensatsiya qonuniga ko‘ra, muayyan omilning etishmayotgan ta’siri boshka omillar bilan muayyan darajada qoplanishi mumkinligi ehtimoldan so‘z emas.

Kosusan, bir qator tadqiqotlarda maxsus uyushtirilgan mashg‘utlar yordamida shaxs ijodiy qobiliyatni taraqqiyotida ijobiy dinamikaga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Jumladan, o‘quvchilar bilan art-terapiya va improvizatsiya usullari vositasida amaliy mashg‘utlar o‘tkazilganda kreativlikning qator ko‘rsatkichlari ko‘yicha sozlarli o‘sishga erishish mumkinligini ko’rsatdi.

Ijodiy faoliyat - bu subyekt faoliyatining o‘z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammoni yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va maslahoti ijodiy hal etish (avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko‘chirish, muammoli, ma’lum obyektni yangi funksiyasini ko‘ra etish) jarayonidir. Ijodiy faoliyat o ‘zida quydagi muhim jihatlarni aks ettiradi: tizim ichida va tizim o‘rtasidagi bilim va ko‘nikmalamâ yengi tizimga qisqa va uzoq muddat ichida o‘tkazishni mustaqil amalga oshirish; kutilmagan vaziyatda (holatda) yangi muammoni ko‘ra bilish; obyekt tuzilishini ko‘ra bilish; muammoni hal etishda mogabillikni hisobga olish; yangi muammolaming yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma’lum bo‘lgan usullari bilan uyg‘unlashtirish; muammolami hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchi bilimlarining chuqur va keng

bo'lishini, ushbu bilimlaming tanqidiy o'zlashtirilishi va yangicha qo'llanishini, bilim va intuitsiyaga asoslangan yangiliklar yaratishga qodirlikni, bir paytning o'zida ko'plab variantlarni ko'ra bilish va maqbollarini tanlab olish malakasini taqozo etadi. Tahlil natijalari pedagogik ijodkorlikning quyidagi muhim jihatlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi: pedagog ijodkorligining harakatlantiruvchi va yo'naltiruvchi kuchi bo'lgan pedagogik ijod vaqt va fazoda bir oz cheklangan bo'ladi. Ijodiy jarayon bosqichlari (pedagogik g'oyaning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi va h.k.) bir-biri bilan ma'lum vaqt oralig'ida qat'yan bog'liq bo'lib, o'zaro tutashib ketadi. Bu o'rinda bir bosqichdan ikkinchisiga tezkor o'tish talab qilinadi. Pedagog faoliyatini muayyan mavzu, bo'limni o'tishga dastur bo'yicha ajratilgan soatlar chegarasida ham vaqt jihatdan cheklangan; pedagog ijodiy izlanishlarining natijalari ancha uzoq vaqtini talab etadi. Moddiy va m'a'naviy faoliyat sohasida uning natijalari tez yuzaga chiqadi va qo'yilgan maqsad bilan tezda qiyoslash imkoniyati yuzaga keladi. O'qituvchi faoliyatining natijalari esa o'quvchi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarda, ularning faoliyat turlari va xulq-atvorida o'z ifodasini topadi hamda ko'pincha nihoyatda nisbiy va qisman baholanadi; o'qituvchining ijodi o'z o'quvchilarini va hamkasblari bilan bir maqsadga asoslangan birlgiligidagi hamkorlikdagi faoliyat muhitida kechadi. O'qituvchilar va o'quvchiliar jamoalaridagi ijodiy izlanish muhiti ijod va ijodkorlikning qudratli rag'batlantiruvchi omilidir. Pedagog o'z sohasining mutaxassis sifatida ta'lim jarayonida o'z o'quvchilariga o'quv-bilish faoliyatga ijodiy yondashuvini amalga oshiradi; o'qituvchining ijodiy pedagogik imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ta'lim jarayonining metodik va texnik jihatdan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq; o'qituvchi o'z hissiy-ruhiy hoiatini boshqara olishi va o'quvchilarida ham shu holatni yarata olish malakasiga ega bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi o'quvchiliarini bilan muloqotni ijodiy jarayon va o'zaro muloqot sifatida, o'quvchilarining tashabbusi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlagan holda, ularning o'z-o'zini to'liq namoyon etishiga yordam bergan holda tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Intuitsiya va pedagogik tafakkur. Intuitsiya (lot. intuitio - sinchiklab qarayman) - haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish

qobiliyat; fikran ilg'ab olish yo'li bilan tajriba doirasidan chiqish, shaxsiy qobiliyat yoki bilib olinmagan aloqalar, qonuniyatlarni joni shakida umumlashtirish.

Turqiqotchilarning fikricha, intuitsianing hissiy, aqliy va mistik turbari bor. Hissliy intuitsiya deb, aqliy mushohada va boshqa sezgi obrazlariga bog'liq bo'lmagan holda tushunchadan oldin keladigan intuyv sezishiga aytildi. Hodisalarning mohiyatini bordaniga aql bilan ilg'ab olish aqliy (intellektual) intuitsiya deyiladi (E. Gusseri). Ilohiy qudrat bilan muleqet jarayonida vujudga keladigan mutlaqo ongsiz ilohiy ihmom mistik intuitsiya hisoblanadi (J. Mariten). Intuitsiya obyekting obyekt bilan bevosita qo'shilishib ketishi okibatidir (A. Durgun). Psixanalizda intuitsiya ijodning ongsizlikdag'i iik immiyiti deb talqin etiladi (Z. Preyd). SHarq falsafasida intuitsiyani "ilmoh ihmom" yoki "ilohiy zeh" deb atashgan (Ibn Sino). Intuitsiyani o'rganib, boshqarib ham bo'lmaydi. U to'satdan miyaga kelib beruvchi fikrdir. Inson miyasida ro'y beruvchi refleksiv jarayonlar shu qadar murakkab zanjirli bog'lanishlar hosil qiladiki, ba'zan uchib sabab-og'ibatli zanjirlar tizimidagi halqalar birbiriga tutashib ketadi. Shunday tutashuv jarayonida inson miyasiga yارq etib yangi fikr kelib qeladi. Ana shu holat intuitsianing nerv-fiziologik asosi hisoblanadi. Bu kutimlaganda, behosdan ro'y bergenligi uchun kishilar intuitsiyani ilohiy va g'ayritabiyy mohiyatga bog'!ab tushuntirishga urinishadi, lekin uning zamirida o'ziga xos psixik jarayonlar yotadi. Intuitsiya inson miyasida ro'y beruvchä o'z-o'zini urash, o'z-o'zini muvofiqlash mexanizmi bilan bog'langan. Hiyada muayyan payda o'z-o'zidan ishslash jarayoni sodir bo'ladi va u o'z-o'zicha yangi bilimni ishlab chiqadi. Bu jarayonni ongii surʼat qilmasgantigimiz tufayli miyamizga yangi fikr quyilib kelgandek bo'lib tuyoladi.

Ashda bu fikmi miyamiz o'zo'zidan hisoblab chiqqan bo'ladi. Mushohada, issayt, intuitsiya mashaqqatli ilmiy izlanish, yangi faktlarni topish va ulami ilmiy farazlar, tizimlar, nazariyalar va qonundarda rational, mantiqiy-diskursiv anglab etish bilan bir qatorda, ilmiy ijodning zarur jihatlari, olimning izlanuvchan, jonli, firishqoq aqilining dolimiy hamrohlardir.

Nazorat savollari:

1. Metodologik tadqiqot deganda nima tushuniladi?
2. Maxsus-ilmiy tadqiqot tushunchasiga izoh bering?
3. Metodologik va maxsus-ilmiy tadqiqotning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini Venn diagrammasi asosida tahlil eting?
4. Ongsizlik va intuitsiya tushunchalariga izoh bering?
5. Pedagogik tadqiqotlarda intuitsiyaning rolini qanday baholaysiz?
6. Pedagogik ijodkorlik qanday o'ziga xosliklarga ega?
7. Pedagogik tafakkuming o'ziga xos jihatlarini aniqlashtiring?

EMAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA ILMYI DALILLAR VA ULARNING ROLI

4.1. Ilmiy dalillarning mantiqiy gnesologik mohiyati. Dalil deb haqiqatni tasdiqlovchi, inkor etib bo'lmaydigan narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasiga aytildi. Dalilning asosan ikkita xususiyati bor: hayotiy bo'lgan real voqealar, xususiyatlar, munosabatlar, bog'lanishlar, o'zgarishlar, jarayonlarni o'zida ifoda etish; haqiqatni isbotlovchi fikrlami to'laqonligini, inkor etib bo'lmastigini, reallikka mosligini qaror toptiradi. Tevarak atrofdagi barcha narsa va hodisalarning mavjudligi, barqrarligi, hodisalarga munosabat-kabi jarayonlar dalillarga suyangan holda tahlil va murojat qilinadi. Astida esa dalil bo'lishi yoki bo'lmasligi munkin. Sababi, shunday narsa va hodisalar borki, ular dalil va sharti uchun qilmaydi, utarni tasvirlash uchun dalilga murojat qilish shart emas. Ammo, ilmiy ijodda dalil zaruriy talab hisoblanadi, u fanning ajralmas qismidir, zero fan yangi, haqiqiy bilimlarni turish uchun dalillarga suyanadi. Har bir ijod namunasi falsafaning kategoriyalari bo'lmish - sabab va oqibat, imkoniyat va voqeilik, maxmin va shakl, zaruriyat va tasodif, mohiyat va hodisa bir butun sozda hamda qismilar orqali ulaming metodologik xususiyatlaridan foydalaniib, o'z xulosalarini chiqaradi. Bu xulosalar dalil tushunchasi orqali amalga osdirilganda ijedda mustahkam o'rinni egallaydi, ijod natiusi haqiqatga aylanadi. Dalil falsafiy kategoriyadir. Demak, u universat saraktinga ega bo'lib, barcha narsa va hodisalarga taʼsishqidir. U haqiqatni to'ldiruvchidir. Ba'zi olimlar dalilni haqiqat sinomini deb tushuntiradilar. Bu kategoriylar o'zaro yaqin bo'shatarda, ular turlicha vazifalarni bajaradilar. Avvalo, haqiqat tushunchasi dalil tushunchasiga nisbatan keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, uning nisbiyligini qo'shimcha dalillar bilan to'ldirish mumkin va hokazo. Haqiqatlar dalillarning yig'indisidir.

Dalilning quyidagi turlari mavjud:

1. Haqiqiy dalil;
2. Volg'on dalil;
3. To'liq dalil;
4. T o'liq bo'lmagan dalil;
5. Taxminiy dalil;

6. Isbotlanmaydigan dalil;
7. Isbotlangan dalil;
8. Ilmiy dalil va boshqalar.

Dalil turlari voqeilkidagi narsa va xodisalarining xarakteridan kelib chiqadi. Dalil alohida-alohida olingan narsa va hodisalami o'zida aks etadir. Umumiylar dalilning bo'lishi mumkin emas, dalil - konkret va aniqlimdir. Masalan, haqiqiy dalilda obyekt to'g'risida to'la tavsif mujassamlangandir va tavsif haqiqatga zid kelmaydi, balki qonun va qonuniyatlar asosida vujudga kelgan bo'ladi. Yolg'on dalil esa buning aksi bo'lib, qonunlar va qonuniyatga mos emasdir. U faqat insonning tafakkurida aks etadi, xolos. Yolg'on dalillar shubhali bo'lib, ulami bir necha bor tekshirish, aniqlash talab etiladi. Yolg'on dalillar inson tomonidan nojo'ya ish va fao'iyatlar jarayonida qo'llaniladi. Ammo, yolg'on dalillardan voz kechib bo'lmaydi, ulam ing foydali tomonlarini olib, hayotga tatbiq etish lozim.

Masalan, shunday voqe va narsalar bo'ladiki, ular to'g'risida (vaziyatga qarab) yolg'on dalil aytishga to'g'ri keladi, va'ni ikkala qarama-qarshi tomonlami moslashtirish, uyg'unlashtirish uchun vaqtincha yolg'on dalildan foydalanish mumkin. Bu bilan, albatta, yolg'on dalillar ilmiy ijodning asosi ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. To'liq bo'Imagan dalillartug'risida so'z yuritganda, izlanuvchi o'z fikrining ilmiyligini isbotlash uchun qo'shimcha dalillar topishga xarakat qiladi. Qo'shimcha dalillar esa to'liq bo'Imagan dalilni to'liq dalilga aylanguncha unga ko'maklashadi. Qo'shimcha dalillar ilmiy ijodda katta ahamiyatga egadir. Ilmiy ijodda shunday dalillar ham borki, ulami qayta isbotlashga to'g'ri keladi. Chunki davr o'tishi bilan har qanday dalil qayta isbotlanishni talab etadi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy kashfiyotlami ochishda ko'proq ko'zda tashlanadi. Isbotlangan dalillardan amaliyotda to'g'ridan to'g'ri foydalaniлади.

Ilmiy ijod ilmiy dalillar negizida ish yuritadi, faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy ijodda dalillarga erishish og'ir va mashaqqatli mehnaini talab etadi, vaqt va sabrlilikni istaydi. Dalillarni qo'lga kiritish bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Ikkala jarayon ham zaruriy holatdir. Bevosita dallilami qo'lga kiritishda narsa va hodisalamining o'z holati, taraqqiyoti, rivojlanishi kifoya qiladi. Bilvosita dallilarni qo'lga kiritishda ma'lum shart-sharoitlar, qo'shimcha ashyolar,

tesnik vositalar, ko'rgazmali qurollar talab etiladi. Demak, dallilarni qo'lga kiritish subyektiv va obyektiv shart-sharoitlarga bog'liqidir. Dalil insonning bilim doirasini kengaytiradi, bilim esa insonning sirabmas qismidir. Moddiy olam oddiy bilim asosi bo'lgan cheksiz, rang-barang narsa va hodisalarining yig'indisidan iboratdek bo'lib bo'rindi. Ammo oddiy kuzatish asosida hodisalamining mohiyatini bilish mumkin emas. Agar bilish oddiy kuzatishdangina iborat bo'tsa, u vaqtida biz hodisalarining qonun va qonuniyatlarini aslo bila olmas edik. Shu sababli ham, dalilning asosiy vazifasi moddiy olamni bilishda ishtiroy etib, u to'g'risida inkor etib bo'lmay digan fikrini tasdig'ini berishdir. Olam va uning qonuniyatlarini bilish qonlikcha kechmaydi. Olamni bilish g'oyat murakkab jaravondir. U haqiqiy ilmiy dalilni, ijodni talab etadi. Dalillar farazlarni tahlil qilish uchun ham asosdir. Chunki farazlar hali haqiqiy ilm emas. Farazlar ham bilishning ma'lum ehegarasi bo'lsada, inson farazlarga amaliga osishiga ko'rsatmaydi. Farazlarning haqiqiyligini tekshirish, aniqlash dalillar yordamida amalga oshadi. Farazlarni hayotiyligini aniqlash yoki inkor qilish voqeilkining xarakteriga qarab tajriba yoki kuzatish, moddellashtrish, mantiqiy yondoshishlar orqali amalga osishadi. Har bir tadqiqot, ma'lumki, farazlarni o'rtaga tashish bilan boshlanadi. Bu farazlar tadqiqot negizini tashki! etsada, daliga muhit. Ana shu dalil orqali tadqiqot natijasi ko'rindi. Fa'kidash lozimki, nazariyalar ham dalillar yordamida o'rtaga tashlanadi va o'z navbatida isbotlanadi. Nazariyalar dalilsiz, dalillar nazariyasiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda nazariyalar inson inyasiytagi mulohazatardan iborat bo'lib qolaveradi.

4.3. Pedagogik tadqiqot obyekti va predmeti. Zamonaviy ilmiy tadqiqot amalga osishishidan avval metodologik jihatdan asoslangan bo'lishi kerak (E.G.Yudin). Aslida tadqiqotni loyihalashtirish bosqichidayoq izlanuvchi mavzu va muammoning dolzarbliji, obyekt, predmet, maqsad, vazifalar, tadqiqot usullari, tadqiqot mantiq'i, ilmiy yangilik, amaliy natijalari, tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati kabi metodologik me'yorlar bilan ish ko'radi, metodologik vositalar jamlanmasini tuzadi va aynan ushbu vositalar (yondashuvlar, usular, mezonlar) ilmiy natija olish uchun qulay va samarali hisoblanadi. Umumiylar me'yoriy metodologiyada, aniq-ilmiy fan metodologiyasida turli darajali metodologik vositalar -

me'yor, aniq o'lcham, standart, mezonlari ishlab chiqilgan. Bu esa paradigma deb ataladi. Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi. Pedagogikada paradigma atamasining ikki xil ma'nosini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, bu faylasuf T.Kunning klassik ta'limotiga yaqin bo'lib, umummilliyl tushuncha hisoblangan paradigmalar ilmiy faoliyat modeli, tadqiqot me'yordi, mezonlari, standartlari yig'in-di, paradigma - ilmiy jamiyatdagi aniq fanlar yoki qator fanlarda umumiyl tarzda qabul qilingan dunyoni tushuntirishga etakchi yondashuv, bir butun g'oyalar, qadriyatlar yig'indisi. E.V.Berejkova, V.V.Krayevskiy, N.A.Korshunova kabi olimlar ham xuddi shunday nuqtai nazarga asoslanadilar. Xususan, E.V.Berejkova va V.V.Krayevskiylar tomonidan paradigma tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Paradigma - fanning obyekti emas, uning o'zi nazariy standartlar, metodoiogik me'yordi, qadriyatli mezonlar sifatidagi ilmiy faoliyat. Paradigma - aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo'yish va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni qo'yish modeli). Paradigmani ikkinchi tarzda tushunish uni ta'lim tizimini loyihalashning asosi, g'oya, yondashuv, tayanch modeli yoki ta'lim strategiyasi sifatida izohlanadi. Bunday talqin etishda qoidaga muvofiq ta'limiy paradigmalar tushunchasidan foydalaniadi va u ta'limning asosiy yo'nalgaligini aks ettiruvchi atamalar, qo'yilgan pedagogik g'oyalarning manbai va usulini o'ziga qo'shib oladi.

Demak, shakllantiruvchi, insonparvar va ezoterik (I.A.Kolesnikov) avtoritar, manipulyativ va qo'llab-quvvatlovchi (G.B.Kometov), an'anaviy shakllantiruvchi, an'anaviy rivojlaniruvchi, shaxsga yo'naltirilgan (S.V.Kulnevich) an'anaviy, ratsional va insonparvar (V.Ya.Pilipovskiy) m'a'naviy va dunyoviy (I.A.Solovsova), pedagogik, androgogik, akmeologik, kognitiv va kommunikativ (Yu.G.Fokin) va boshqa paradigmalar ajratib ko'rsatiladi.

A.Kostinning tasnifiga muvofiq fundamental zamонавиј paradigmalarga quyidagilar kiradi.

- asosida faoliyatli yondashuv turadigan, markazida bilim

turadigan, obyektiv-axboriy yondashuvli ta'lim mazmunini tashkil etishning fanga doir modeli;

- asosida faoliyatli yondashuv turadigan texnologik o'qitish yoki o'quvchilarning faoliyatiga bog'liq holdagi tuzilishga muvofiq ta'lim mazmunini tashkil etishning texnologik yo'naltirilgan modeli;

- asosida o'z mavqeini belgilab olish usullari, ta'limning individual yo'nalgaligi turadigan, asosiysi Semantik individual rivojlanish bilan ta'lim mazmunining qo'shilish usullari bo'lgan ta'lim mazmunini tashkil etishning shaxsga yo'naltirilgan, ya'ni intropomimik (P.G.Izedrovich bo'yicha) modeli;

- asosida so'nggi ijtimoiy madaniy mexanizmlami translyasiya qilish va ta'limiy qadriyatlamni qaytadan tiklash turadigan uyushma, xalq, etnik guruhlarning turli-tuman ijтирои-маданий o'ziga xosliklari asosida tashkil etiladigan ta'lim mazmunini tanlab olishning ijtimoiy modeli;

- ta'limning maqsadli yo'nalgaligi yaxlit tarzda shaxsning rivojlanishini va o'z-o'zini rivojlanishiga yordam berish hamda zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan axborotlashirishga almashtiriladi. Shu nuqtai nazardan dunyoning ehtimoliy modeli, uni o'zlashtirish darajasini nafaqat uning bilishi, qanchalik darajada tushunishini, ya'ni mazmunini egallaganligini aniqlab beradi;

- ta'lim jarayonining ta iim oluvchilarning ehtiyoj, qiziqish va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda tashkil etilishi, shaxsiy fikriy faoliyatni ta'minlash, mazkur ehtiyoj, qiziqish, imkoniyatlarni namoyon etish uchun zarur sharoitni yaratish asosida ta'lim oluvchiga nisbatan nuqtai nazar o'zgaradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etadigan yangi paradigmalaming paydo bo'lishi amaliyotchi pedagoglarda ular asosida o'z faoliyatini qayta qurish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Biroq "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim", "shaxsga yo'naltirilgan o'qitish" tushunchalari mazmuni kundalik, shuningdek ilmiy darajada ham bir xil m'a'noni ifoda etmaydi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning mavjud konsepsiysi uning an'anaviy, fanga yo'naltirilgan o'qitishdan o'ziga xosligi va farqi, eng avvalo shundaki, o'zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faqat biringa maqsadni aks ettirmay, balki insonning "shaxs bo'lish" ehtiyojini amalga oshirish (A.V.Petrovskiy), "uning subyek-

tivligini shakllantirish”, shaxsning subyektiv tajribasini boyitishi (I.S.Yakimanskaya), “shaxsiy vazifalar”ni amalga oshirish (V.V.Serikov), madaniyat kishisi sifatidagi indiv’idning shakllanishi (E.V.Bondarevskaya) sharti, vositasidir. Shaxsga yo’naltiri]gan ta’lim va o’qitish jarayonlarini aynanlashtirishga intilish shaxsga o ‘qitishning madaniy uyg’unligi, insoniy inuvofiqligi va hayotiy moslashuvchanlik tavsifi, eng avvaio, didaktik emas, tarbiyaviy maqsadlami amalga oshirishga yo‘na)ganligi bilan bog‘liqidir. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining asosiy boshqacha yondashuvni ifoda etishidadir: talabalarni o‘z hayotiy faoliyat usullari, o‘z individualligini talabga javob beradigan tarzda amalga oshiruvchi o‘quv jarayonining haqiqiy subyektiga, o‘qituvchini esa, talaba faoliyati tashkilotchisi, boshqaruvchisi, talabalar va madaniyat orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in, talabani madaniyatga olib kirish va undagi o‘z o‘rnini belgilab olishni ta’minlovchisiga aylantirishdir.

Ta’limning yangi paradigmasingining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bolm asdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi (E.Fromm, J.P.Sartr, V.Frankl, N.Berdyyayev, A.Maslou, K.Rodjers va boshqalar) asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur kontsepsiyaning asosiy nuqtai nazari - har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsivalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amaiga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoraliq, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlami o‘matish jarayonida sodir bo‘ladi. Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘sishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot

(U.B.Vigotskiy), shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatları haqidagi indiqotlar (A.N.Leontyev, L.I.Ansiferova, A.V.Petrovskiy, P.Ya. Gisperin, V.V.Davidov va boshqalar). O‘z-o‘zini tashkillash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z o‘rnini belgilab olish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini aktuallashtirish g‘oyalarni sinergetika, insonparvar falsafa va psixologiya tomonidan tantanali suratda o‘lon qilinishi mohiyatida quyidagilar aks etadigan ta’limga shaxsga yo‘naltinigan paradigmasingining namoyon bo‘lishini belgiab berish zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda ayniqa talab etilishini ko‘rsatdi: inson murakkab, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaratadi, har bir shaxsning noyobligi va takrorlanmasugi hamda uning rivojlanish traektoriyasi, o‘z qadr-qimmati e’tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta’limiy, tarbiyaviy), ta’limning buh maqsadi - madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o‘aro ta’sir etish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi. Har bir paradigma ma’lum bir gnoseologik, evristik potensial, metodologik “manba”ga ega. Vaqt o’tishi bilan anomaliyalar yig‘ilib boradi, ya’ni “ziddiyatlar”, “qarama-qarshiliklar”, “kelishmovchiliklar”, masalan, ma’lumotlar va nazariya, muammo darajasi va metodologik ushlilik etuvchilar imkoniyatlari o‘rtasida. “Har qanday urinish paradigmadagi shubhalar hamda normal tadqiqot qoidalarning keyingi harakatlaridan boshlanadi”. Paradigma almashinuvni ya’ni “ilmiy inqilob” ro‘y beradi. T.Kunning ta’kidlashicha: “Inqiroz ro‘y bergan davrda mavjud paradigmadan yangi paradigmaga o‘tish chog‘ida, undan fanning yangi an’anasi yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayon ko‘proq qayta tashkillashni eslatadi, u esa sohadagi nazariy umumlashmani, shuningdek, ko‘pgina usullar va paradigma ilovalarini o‘zgartiradi”. Zamonaviy falsafa fanida, deydi E.V.Xomich, “paradigma” tushunchasi ilmiy izlanishning nazariy-metodologik namunaviy tasvirida keng qo’llaniladi. Falsafa fanida paradigma - bu nazariy, metodologik, aksiologik ko‘rsatmalar tizimi bo‘lib, modellar, namunalar, sxemalar, ilmiy masalalar sifatida qabul qilingan. Mantiqda paradigma - nazariy va metodologik holatlar yig‘indisi bo‘lib, ular fan rivojlanishi mazkur

bosqichida ilmiy jam iyat tomonidan qabul qilingan va namuna, model, ilmiy tadqiqotlar standarti, interpretatsiya, baholash va ilmiy ma'lumotlar tizimi sifatida foydalaniladi, ular taxminlar ko'rinishida masalani idrok qilish uchun ilmiy bilim jarayonida paydo bo' ladi. V.V.Krayevskiining fikricha, fan umumiyl metodologiyada paradigma tushunchasining barcha tavsiflari fan obyektiga emas, balki ilmiy faoliyatning o'ziga taaliqli jihatlami birlashtiradi: paradigma - nazariy standartlar, metodologik me'yorlar, mezonlar qiymati birligi sifatidagi ilmiy faoliyaí modeli. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modellariga doir ilmiy loyihamar (insonning ta'lim qadriyati sifatida rivojlanishi; qadriyat sifatida tarbiyalanuvchi, tafakkur, ijod, hayotiy va kasbiy o'z-o'zini anglash, refleksiya, rivojlanish subyekti sifatida; intellektual, kreativ va boshqa maxsus qobitiiyatlarga yo'naltirilgan ta'limiy muhitni modellashtirish) pedagogikaning mavjud paradigmasi kontekstida - pedagogik tadqiqot mantig'i va tuzilishida samarali amalga oshirilyapti. Fan metodologiyasi va falsafa bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shunday xulosani beradi, "paradigma" - bu metodologik model, standart, namuna, loyihalash etaloni, amalga oshirish, ekspertiza, jarayon va ilmiy tadqiqot natijalari refleksiysi va bahosi. Paradigma ilmiy ratsionallik o'xshashligi emas, paradigma uning modellarining biri, paradigma - ilmiy reallikning metodologik modeli bo'lib, tizimli-integrativ va me'yoriy vazifani bajaradi: aynan paradigmada turli darajali metodologik me'yorlar va deskriptiv nazariy loyihamar mujassamlashgan, shakllangan, ular me'yoriy-metodologik vazifalar, ya'ni "metodologik etalon" vazifasini bajaradi, bu esa ilmiy faoliyatga "chegarasi"ni belgilab beradi.

Dalillashtirish nazariyasi pozitsiyasidan (A.A.Ivin) me'yorlar, standartlar, namunalar, ideallar, etalonlar, mezonlar, qoidalar, tavsiyalar bilimning baholovchi-normativ turiga kiradi va mavjudlikka nisbatan qadriyatga yo'naltirilgan munosabatni ifodalaydi. "Bahoviy xarakter ifodalariga har qanday turdag standartlar, namunalar, ideallar kiradi. Metodologik tavsiflarda bahoviy element ko'rimb turibdi. Bahoviy tarzidagi tasdiqlashlar maqsadga muvofiqlik, asoslanganlik kabilar bilan tavsiflanadi; ular "haqiqiy" yoki "yolg'on" tarzida tavsiflanmaydi. Insonning har qanday faoliyati uchun belgilangan me'yorlar, shu jum ladan ilmiy-tadqiqotga tegishli me'yorlar ham

hishbiriga o'xshashdir. Me'yorlar natijalarga sifatli va samarali oshirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan normalami qayd etadi. Xususan, metodologik me'yorlar (prinsiplar, metodlar, qoidalar, algoritmlar, mezonlar va boshqalar) ilmiy tadqiqotni qanday qilib loyihalashtirish va amalga oshirishni belgilaydi. Agar ilmiy ratsionallikni me'yorlar, mezonlar, ilmiy tadqiqot qoidalari tizimi sifatida ko'rib chiqsak, (V.N.Porus) paradigma ilmiy ratsionallikning me'yoriy-metodologik "yadrovi" sanaladi: paradigma ma'lum bir ijtimoiy-madaniy va ilmiy kontekslarda ilmiy tadqiqot o'lehami, metodologik standartidir. Dalil-isbotlar nazariyasi pozitsiyasi jihatidan "paradigma" tabiatiga ko'ra yaqqol "normativ"dir. Paradigma preskriptiv komponentning yaqqol ustunligi bilan ilmiy tadqiqotning metodologik modeli. Lekin paradigma tuzilishiga deskriptiv komponentiar ham birlashtirilgan, ular esa metodologik vazifasini bajaradi. Bizning nuqtai nazarmizcha, pedagogik tadqiqot paradigmasing "yadrovi"ni metodologik (ilmiylik prinsiplari, metodologik ta'minot darajasi, mantiqiy-gnoseologik algoritmlar, tadqiqotning metodologik xarakteristikasi, tadqiqot metodlari va b.), mantiqiy-mazmunli (me'yor mantig'i qoidalari, baho mantig'i, empirik, kvaziempirik va argumentatsiyaning nazariy usullari va hisobqalar) va gumanitar mezoniar tashkil qiladi, statistik va formal mantiqli mezonlarni esa quyidagi mazmuni hosil qiladi. Paradigma ilmiy faoliyatning metodologik modeli sifatida doimo "ijtimoiy madaniy o'lehamga" ega (V.S. Stepin). Tadqiqotchi uchun paradigma loyihalash, amalga oshirish va ilmiy tadqiqot natijalari va jarayon sifatidagi bahosi bosqichlarida metodologik refleksiya uchun asos sanaladi. Aslida paradigma ushbu ma'noda tadqiqotchining "ichki" metodologik refleksiysi uchun vosita hisoblanadi. Tadqiqotchi refleksiysi faqat metodologik refleksiya bo'lib taqalmaydi: ijtimoiy refleksiysi obyekti sifatida ijtimoiy-madaniy mazmun (ijtimoiy-madaniy sharoitlar va omillar) yuzaga chiqishi kerak, ana shundagina tadqiqotning borishida tub burilish yasaladi. Ilmiy tadqiqotning ideali va me'ori, metodologik chizmalar va mezoniar paradigmada bir butun qilib birlashtirilgan bo'lib, davr madaniyati, yetakechi dunyoqarash ko'rinishlari va qadriyatlariga bog'liq. Ijtimoiy-madaniy mazmun falsafiy-antropologik, madaniy, ijtimoiy va boshqa yondashuvlar hamda konsepsiyalarda o'z aksini topadi,

qayta anglanadi, tushuntiriladi, “moddiylashadi”, ular tabiatan metodologik hisoblanmay, metodologik vazifani bajaradi va ilmiy tadqiqot metodologiyasining falsafiy darajasini tashkil etadi.

Paradigma bir nechta asosiy vazifalami bajaradi:

- gnoseologik: paradigma tarkibiga umumiy va aniq-ilmiy nazariyalar birlashtirilgan, ular konseptual fanlar orasidagi borliqni hosil qiladi, borliq ichida esa aniq ilmiy tadqiqot “ochiladi”; konseptual borliq mavjudlikning “ko’ra olish usuli”ni yaratadi (L.A.Mikeshina), konseptual apparatni tashkillashtirish usullari sifatida aniq “izohlash chizmalar”ni o’z ichiga oladi, bu esa tadqiqot strategiyasini ta’minlaydi (E.G.Yudin);

- evristik: har bir paradigma ma’lum bir gnoseologik, evristik potensial, metodologik “resurs”ga ega; ijtimoiy-madaniy va ilmiy mazmun o’zgaradi; vaqt o’tishi bilan “ziddiyatlar”, “qaramaqarshiliklar”, “kelishmovchiliklar” kabi anomaliyalar yig‘ilib qoladi, masalan, dalil va nazariya, muammo darajasi va metodologik tashkil etuvchilar o’rtasida va h.k.; fan bilan uning metodologiyasi doimo rivojlanib boradi va aniq ilmiy paradigmalar oshkoraliq kuchiga, deydi V.S.Stepin, tanqidiy ekstrapolyatsiya va ideallar, yondashuvlar, prinsiplar, tadqiqot, metodlari “moslashuvi” bir ilmiy tartibdan boshqasiga o’tadi, bu esa yangi vektorni hosil qilib, tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar, yangi sifat yaratadi (masalan, ijtimoiy-gumanitar fanlarda tizimli yondashuvning foydalanimishi); paradigma asosida “qayta dasturlashtirish” sodir bo’ladi, uning “yadro”si qayta shakllantiriladi, ya’ni, paradigma yoki “ilmiy inqilob” rivojlanishi, “ilgarilashi” ro’y beradi;

- tizimli-integrativ-normativ. Fan metodologiyasida shakllantirish va metodologik vositalarni tizimlashtirish muammosi mayjud. Aynan paradigmada metodologik me’yorlar va deskriptiv qurilmalar integrashgan, tuzilgan, yo’naltirilgan, ular esa normativ-metodologik vazifaga ega. Xususan, ilmiy nazariya - bu deskriptiv ilmiy bilim yoki “borliq haqidagi bilim”. Lekin nazariya izohlash va tahmin qilish tabiatiga ega jihatlar bilan metodologik vazifani ham bajaradi (tabiatan metodologik bo’imasada): maxsus-ilmiy nazariya - maxsus-ilmiy tadqiqotning alohida xususiyatga ega metodologik ta’minoti manbasidan biridir. Ko’proq yuqori darajadagi nazariya konseptual asosga ega bo’lib, vektor, izlanishning metodologik standarti va

alohida ilmiy muammo yechimini taqdim etadi. E.G.Yudinning ta’kidlashicha: “Ilmiy bilimning iyerarxik tashkillashtirishida ish quyidagicha amalga oshiriladi, ya’ni abstraktlikning yuqori darajadagi bilimi ancha konkret bilimga nisbatan metodologik vazifani bajaradi. Aslida har qanday ilmiy nazariya metodologik vazifalami bajaradi”;

- amq-normativ (“Tadqiqot jarayonida qanday aniq metodologik me’yorlar (prinsiplar, uslublar, metodologik algoritmlar, mezonlar) ustunlik qiiadi?”, “Qanday qilib sifat va samarani loyihalash, amalga oshirish, baholash, jarayon refleksiyasi hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amalga oshirish mumkin?”). Bizning nuqtai nazarimizcha, paradigmanning me’oriy vazifasi yetakchilik qiiadi. Ana shu tariqa “paradigma” fanning preskriptiv (me’oriy) metodologiyasi kategoriyasi; “pedagogik tadqiqot paradigmasi”, “pedagogikaning me’oriy metodologiyasi” kategoriyasi; paradigma ilmiy ratsionallikning metodologik modeli, ijtimoiy-madaniy va ilmiy qadriyat (baho, ideallar)larni integrallashtiruvchi ochiq, dinamik normativ tizim, metodologik me’yorlar (prinsiplar, uslublar, mezonlar), m a’lum ijtimoiy-madaniy va ilmiy kontekstlarda ilmiy-pedagogik masalalarni echish uchun metodologik etalon, shuningdek, ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning sifatini boshqarish bo’yicha metodologik asos sifatida preskriptiv vazifani bajaruvchi nazariy tuzilmalar bo’lib hizmat qiluvchi.

Pedagogik amaliy tadqiqotlar paradigmasing shakllanish manbalari quyidagilar kiradi: fanning psixologik kontsepsiysi, ilmiy faoliyatning subyektini uning “subyektlik va subyektivlik”ni aniq ifoda etuvchi ilmiy tadqiqotda subyektiv-irrational nati-jaga e’tiborni qaratish (A.V.Yurevich, V.I.Slobodchikov, M.G.Yaroshevskiy); metodologik ta’minot darajasi konsepsiysi va ilmiy tadqiqot refleksiysi (V.S.Shvirev, V.A.Lektorskiy, E.G.Yudin); dalillashtirish nazariysi (I.I.Ivin); “ijtimoiy-madaniy”, insonparvarlashtirish konsepsiysi va fanning aksiologizatsiyasi (L.A.Mikeshina, V.S.Stepin, L.A.Mikeshina, V.S.Shvirev va b.); ilmiy reallik turlari konsepsiysi (V.S. Stepin); “ochiq” ratsionallik konsepsiysi (V.S.Shvirev); “umumiy” va “o’ziga xos”likni texnik, tahlili va ijtimoiy-gumanitar paradigmalarda ochuvchi falsafa va fan metodologiyasi konsepsiysi (V.M.Rozin, V.S.Shvirev, E.G.Yudin,

L.A.Mikeshina, V.S.Stepin); ilmiy ratsionallik modellarini loyihalashtirishga normativ-mezonli, tanqidiy-refleksiv, tizimli-modelli yondashuv (V.N.Porus, V.S. Shvirev). Tadqiqot paradigmasi va uni tuzish mohivatini anglash uchun eng asosiy yondashuv tizimli-modelli yondashuvdir. V.N.Porusning ta 'kidla shicha: "Uning mohiyati shundaki, ilmiy ratsionallikni m a'lum mezonlarning jamlanmasi yoki "to'plami" sifatida emas, balki tizimosti manbalar va elementlardan tarkib topgan, ilmiy ratsionallik modellari sifatida nisbatli alohidalikka ega dinamik tizim kabi ko'rib chiqish lozim. Ushbu tizimning asosiy tavsifi - uning ochiqligi, qayta tashkillashtirishga yo'naltirilganligidadir. Mazkur ilmiy ratsionallik modeli fanning tarixiy tavsifi va uning metodologik jihatini aniqlash imkoniga egadir". Bir tomonidan paradigma qat'iy metodologik mezonlar, me'yorlar, etalonlar bo'lib, u tafakkuming me'yoriy-mezonli "cheгарасини" ("paradigmada birlashtirish"), loyihalash, refleksiya, ilmiy tadqiqot natijalarini va jarayon ekspertizasini berib, "yopiq ratsionallik" sanaladi. Paradigma bir vaqtning o'zida ham "ochiq", ham "yopiq" ratsionallik hisoblanadi. V.N.Porus shunday yozadi: "Agar ratsionallik - bu "butun obyekt" bo'lsa, ratsionallik nazariyasi esa quyidagi tavsiflarning qo'- shimcha prinsipidan kelib chiqishi lozim, ular tomonidan ratsionallik model lashtirishning ikki usuli aniqlangan: me'yoriy-mantiqli ("yopiq ratsionallik") va tanqidiy-refleksiv ("ochiq ratsionallik"). Alovida olib qaralganda, ular ratsionallikning qarama-qarshilikni aniqlashni beradi; shunda ularning uyg'unligi "ratsionallik paradoksini" beradi. Ular birgalikda olinganda, yordamchi tavsifga ega bo'ladi. Lekin "yopiq" va "ochiq" ratsionalliklar ratsionallikning qandaydir "holati" yoki "fazasi" - statistik va dinamik va hakozo sifatida ifodalanmasligi kerak. Bu "faza"larni ajratmaslik emas, balki ularning mohiyatan birligi - qanday yordamchi prinsip qo'llanilishi asosida yotibdi". Ilmiy ratsionallik nazariyasida (shakllanish va harakat qilish jarayonlarini anglatuvchi nazariyalar, mezonli tizimlaming o 'zgarishi va raqobatlashuvi) yordamchi prinsip, V.N.Porusning fikricha, asosiy hisoblanadi. Shu tariqa, paradigma bir vaqtning o'zida "yopiq" va "ochiq" me'yoriy tizim bolib, ijtimoiy-madaniy kontekst, olamning ilmiy manzarasi va uning metodologiyasi tendensiyalarini o'zgarishi munosabati bilan rivojlanishga qodirdir. Pedagogik tadqiqotlarning

mantiqiy-gnoseologik modeli. Tadqiqotning mantiqiy-gnoseologik modeli - bu me'yor, tadqiqot uchun mo'ljal. Aslida ilmiy tadqiqot turli vektorli bosqichli harakat emas. Ilmiy tadqiqot dinamikasida turli vektorli (mantiqiy, metodologik, empirik, nazariy va h.k) muntazam harakat bo'iib, u davriy "refleksiv tasvirlar" bilan ham "gorizontal", ham "vertikal" ko'rnishga egadir: an'anaga ko'ra, tadqiqotning boshlang'ich bosqichi empirik modellarini tuzish sanaladi; tadqiqotchi empirik ma'lumotlarni aniqlashtiradi, umumlashtiradi, tizimlashtiradi; lekin ma'lumotlarda nazariya ustunlik qiladi (A.A.Ivin); ma'lumotlarni qayta ishlash aniq nazariya yoki konsepsiya binoan amalga oshiriladi (m'lumotlarda "nazariya ustun"); shunga ko'ra, tadqiqotchi hech bo'limganda, tanqidiy fikrlab, mavjud nazariyalarni refleksiya qilishi, nazariya maydonini hosil qilishi, gipotezaning mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqishi kerak; mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqish tadqiqotning kategorial shakllanishini inobatga oladi; parallel ravishda izlanuvchi tadqiqotning metodologik apparatini ham loyihalashtiradi, xususan, tadqiqot mavzusi va muammoning dolzarbligini asoslab beradi; ma'lumotlarni nazariy bayon etmasdan va umumlashtirmsandan muammoning amaliy dolzarbligi va zaruratini isbotlab bo'lmaydi, mavjud konsepsiylar va nazariyalar tahlilisiz "ilmiy bilish va hukmashlik chegaralarini" aniqlab bo'lmaydi, tadqiqotning ilmiy dolzarb muammosini isbotlash qiyin; parallel ravishda tadqiqotchi muammo, mavzu, obyekt, predmet va tadqiqot maqsadi (metodologik vektor) orasida korrelyasiya darajasini o'rnata olmaydi, tajribani loyihalashtiradi va amalga oshiradi, mualliflik konseptiya, faraz va tadqiqiy ma'lumotlar, boshqa tadqiqotchilaming tajribaviy ma'lumotlari korrelyasiyasini o'rnatadi, goh konsepsiya, goh metodik tizimga tuzatish kiritadi, ba'zida tadqiqot predmeti (rakurs), maqsadiga asosli ravishda o'zgartirish kiritadi; bir vaqtning o'zida tadqiqotchining "ong tarzida" deskriptiv empirik (ma'lumotlar) va nazariy (umumiyl va maxsus ilmiy kontsepsiylar, nazariyalar) hamda toyihatar va metodologik me'yoriy mezonli modellar (paradigma, tadqiqot mantig'i, sifat hossalari, mantiqiy mezonlari) joylashadi; tadqiqotchining anglash obyektlari quyidagi turli jihatlar va vektorlar sanaladi: "metodologik apparat", "empirik model", "ma'lumotlar - nazariya", "mualliflik kontsepsiysi - metodik tizim

- ta'lim metodika (texnologiya)si" aloqalari, nazariy va me'yoriy model, tajriba va boshqa isbotlash usullari. Tadqiqotning mantiqiyy-gnoseologik modeli - bu aniq ilmiy tadqiqot paradigmasisiga kiritilgan me'yoriy modeldir. O'zining tadqiqotining mantiqiyy tuzilmasini hosil qilishda tadqiqotchi oraliq natijalarni hisobga olishni ko'zda tutuvchi xususiy tadqiqot masalalari qatorini ham shakllantiradi. Tadqiqot masalasi tizimida maqsadga erishish mantig'ini aks ettiradi.

E.V.Berejnova nuqtai nazaridan, pedagogik tadqiqot mantig'i qo'yilgan muammoni yechish maqsadida uning komponentlari qurilishi ketma-ketligidir. Umumiy holatda amaliy pedagogik tadqiqot mantig'ini quyidagi algoritm asosida ko'rsatib berish mumkin: "Empirik model (nazariya va amaliyotda tadqiq qilinayotgan muammo holatini aks ettiruvchi pedagogik ma'lumotlar) - nazariy model (tadqiqot obyekti hisoblanadigan "borliq" modeli - falsafiy va psixologik-pedagogik bilimlar integratsiyasiga asoslangan tadqiqot obyekti haqida nazariy (ideal) tasavvur) - aksiologik model (insonparvar qadriyatlar nuqtai nazaridan amaliyotga murojaat yordamida o'rganilayotgan obyekt haqida nazariy tasavvur bahosi) - me'yoriy model (qanday qilib tadqiqot obyektni o'zgartirish haqidagi umumiy tasavvur, u maksimal darajada uning ideal nazariy modeli bilan mos kelishi kerak; me'yoriy bilim yoki "mos jihat haqidagi bilim"ni aks ettiruvchi prinsiplar, shart-sharoitlar, uslublar, shakllar) - pedagogik faoliyati loyihasi (faoliyatning ma'lum me'yorlari - metodikalar, texnologiyalar)".

Pedagogik tadqiqotning mantiqiyy-gnoseologik modeli komponentlarini isbotlash metodlarining o'ziga xosliklarini ko'rib chiqamiz. Deskriptiv empirik model. Ushbu modelda ta'lim amaliyoti va pedagogik nazariya ifodalanadi. Ushbu modelni loyihalashda monitoring, tadqiqotning empirik ma'lumotlari, illyustratsiyalardan foydalilanildi. A.A.Ivinnning ta'kidlashicha: "Tajriba - eng sodda kuzatuvdan murakkab ilmiy tajribagacha - doimo nazariy tavsifga ega va bu holda u sof tajriba bo'la olmaydi". Shu tariqa, tajriba, dalillar doimo nazariy jihat bilan uyg'un tarzda boiadi. Tadqiqotchi-pedagog har doim aniq nazariya nuqtai nazaridan empirik ma'lumotlami tavsiflaydi. Tadqiqot jarayonida tadqiqotchi tomonidan olingen empirik ma'lumotlar, hali dalillar degani emas! Psixoglarning ta'kidlashicha, dalillar kuzatuv natijalari bilan

bir xil emas, balki ularni ma'lum bir talqinda kiritadi. Ilmiy dalil aniq ma'lumotlar sifatida mavjud bo'lmaydi, u doimo ma'lum bir interpretativ tuzilmaga kiritilgan bo'ladi. Har bir olim o'zining interpretativ tuzilmasi, o 'zining "shaxsiy fikri"ga ega; u u yoki bu ilmiy paradigma, ideal, an'anuning tarafdori, u yoki bu ilmiy tadqiqot faoliyati metodiga ega hisoblanadi. Bir xil dalillar tadqiqotchining konseptual platformasiga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin. A.A.Ivin ta'kidlaydi: "Ayniqsa, ilmdagi inson va jamiyat haqidagi dalillar murakkabdir. Birinchidan, muammo shundaki, ba'zi dalillar shubhali va hatto juda ishonarsiz ham bo'lib chiqishi mumkin; ikkinchidan, dalilning to'liq ma'nosi va uning aniq mazmuni faqat ma'lum nazariy kontekstda tushunilishi mumkin. Tajriba mutlaq, inkor qilib bo'lmaydigan maqomga ega emas, u turlicha talqin qilinishi va hatto qayta ko'rib chiqilishi mumkin". Shu tariqa dalillar doimo aniq nazariy konstruksiya dorasida mayjud bo'ladi, "nazariy ma'lumotlar bilan to'ldirilgan" hisoblanadi. Empirik model loyihalashtirilgunga qadar tadqiqotchida nazariy asoslar shakllangan bo'lim og'ir lozim, ular orqali empirik ma'lumotlar, dalillar o'zgaradi va tayanadi, bu esa ilmiy tadqiqot jarayonining qat'iy sxemasi (bosqichlari) shartliligini isbotlaydi: empirik ma'lumotlar - empirik model (dalillar) - nazariy model va boshqalar. Odatda empirik tasdiqlash induktiv tassdiq sanaladi, empirik argumentlash esa induktiv shaklga ega. Lekin A.A.Ivinnning fikricha: "Induktiv umumlashtirish ma'lum ehtiyojkorlik va bushyortikni talab qiladi. Ularning ishonchli kuchi katta emas, ayniqsa, induksiya bazasi ahamiyatsiz bo'lsa". Ba'zida pedagogik tadqiqotlarda, tadqiqot muammosining amaliy ahamiyatini asoslab turib, talabgorlar to'liq siz induksiya asosida xulosa chiqaradilar: "A" metodikasi "A" pedagogik masala uchun natijasiz". Uning boshqa pedagogik masalalarni hal etishdagi samaradorligi qanday? Ma'lumki, induksiya bazasi bunday qat'iy ravishdagи "tashxis" uchun ahamiyatsiz. Empirik ma'lumotlar isbotlash jarayonida namuna yoki tasvir sifatida ishlatalishi mumkin. A.A.Ivinnning fikricha: "Namunalar va tasvirlar ancha asosiy, yoki boshqa dalillarga qaranganda ancha salmoqlidir. Na'muna sifatida tanlanadigan dalil yoki shaxsiy hodisa, umumlashmagan tendensiyasini aniq va yetarli darajada ifoda etishi kerak. Dalil-na'munaning mavjudligi jiddiy

ravishda uni boshqa dalillardan farqlaydi. Qat'iy aytganda, dalil namuna hech qachon ishning qandaydir real holatining toza tavsif bo'la olmaydi. U nafaqat bor narsa, balki qisman va bilvosita bo'lishi mumkin bo'lgan narsa haqida gapiradi. U tavsif funksiyasi bilan baho (buyruq) funksiyasini birlashtiradi, lekin unda ularning birinchisi yetakchilik qiladi. Misol - bu keyingi umumlashma va tayyor umumlashmani mustahkamlash uchun yo'naltiriluvchi qism sifatida foydalilaniladigan dalil yoki shaxsiy nuqtai nazardir. Misol doimo turlarga bo'linadi. Dalil-misol faqat tavsifli tasdiqlash va tavsifli umumlashmalar uchun ishlatiladi. Misollar namunadan farqli ravishda baho va me'yorni qo'llashga qodir emas, sababi namuna bahoviy tasdiq bo'lib, shaxsiy standart, idealni o'rnatadi. Pedagogik tadqiqotning mantiqiy xatolaridan biri, bu tadqiqotchilar dalil namunalardan "zaruriyat" yuzaga chiqishiga, namuna, buyruqlarga o'tishadi. "Na'muna misoldan prinsipal ravishda farq qiladi. Misol borliqda o'z o'rniga ega ekanligini so'zlasa, namuna esa kelgusida bo'lishi kerak bo'lgan jihat haqida gapiradi. Misol tasviriy tasdiqlarini qo'llash uchun ishlatilsa, namunaga yo'llanma bahoni qo'llashga chaqirilgan. Na'muna yoki ideal - bu shaxs yoki shaxslar guruhining fe'l-atvori bo'lib, unga ergashish talab etiladi...". Na'munalarning turfa xilligi standartlar sanalib, ular ko'rsatilgan obyektlar qanday bo'lishi kerakligini aks ettiruvchi jarayonlar, vaziyatlar, hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Lekin me'yorlar, namunalar, ideallar, standartlardan mantiqiy ravishda dalillar ajratib olinmaydi ("Yuma prinsipi") Misol dalillar ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. "Illyustratsiya - bu dalil yoki shaxsiy voqelik bo'lib, tinglovchining ma'lum bo'lgan va qabul qilingan umumiyligi vaziyatga ishonganlik darajasini mustahkamlashga qaratilgandir. Misol fikrni umumlashtirishga yordam beradi va ushbu umumlashmani mustahkamlaydi. Illyustratsiya mazkur umumiyligi holatni aniqlashtiradi, bir qator qo'llanmalar yordamida uning ma'nosini namoyish etadi, tinglovchi ongida uning ishtiroti samarasini kuchaytiradi". Agar misol-dalil umumlashtirsa, turlarga ajratsa, u holda tasvir diqqatni aniq detallarga jamlaydi. Pedagogika fan (pedagogik tadqiqot) sifatida ikki asosiy vazifani bajaradi: ilmiy-nazariy va normativ. Deyarli barcha pedagogik tadqiqotlar deskriptiv tartiblararo nazariy modellar ishlansigiga yo'naltirilgan.

Bu munosabat bilan akademik V.V.Krayevskiy shunday derdi:
Fizikalik tadqiqotlar sifatini ularning ilmiy-nazariy vazifasini
tushaytirmay turib oshirish mumkin emas. Demak, tan olish kerakki,
funksiyallli munosabatlarni inobatga oluvchi nazariy modellar
namoyishlar ishlab chiqilishi zarurdir. U obyekt va konseptual sxema
mumosabatlari massus munosabat, ya'ni, ba'zi ilmiy namoyishlar tizimi
yuraga yuraga chiqadi. Mavjudlik modeli - nazariy modelning asosiy
tengizi - bu elementlarning aniq mustahkam aloqasini taqdim etadi,
tadqiqing iekki, muhim munosabatini aks ettiruvchi aniq strukturani
nazarda tutadi. Pedagogik tadqiqot mantig'i deskriptiv empirik va
tadqiqot obyekti mavzulararo nazariy modellarini konstruksiyalash,
nazariy model bahosi, umumlashgan me'yoriy model, aniq pedagogik
me'yor quidalar, buyruqlami konstruksiyalashni nazarda tutadi.

Fazilqo'ning deskriptiv, aksiologik va me'yoriy (preskriptiv) muntazamini asoslashda quyidagi'lar zarur hisoblanadi:

Taysiflardan bahoni mantiqan ajratib bo'lmaydi, baholardan taysiftarni. Taysifi tasdiqlash odatda "mavjud" so'zi bilan bu haqda ifodalananadi, baholi tasdiqlashlarda ko'p holatlarda "talab etiladi" so'zi qo'llanadi. "Mavjud"dan mantiq yordamida "talab etilgan"ga o'tib bo'lmaydi, xuddi shunday "talab etiladi"dan mavjud ga". Aynan D.Yum birinchi bo'lib "mavjud"dan "talab etilgan" mantiqiga o'tish mumkin emasligini ta'kidlab o'tgan.

Vom prinsipi"ga ko'ra, baholar va me'yorlar mantiqan tasdiqlashda kelib chiqmaydi. Baholarni tajriba, empirik tasvirlash yordamida tasdiqlash va inkor etish mumkin emas. Baholar kuznetçilik asoslanadi. A.A.Ivinnning aytishicha: "Baholashni amallashuning kaviyempirik usullariga turli induktiv mulohazalar tushdi. Baholar va xulosalari mavjud bo'lganlari orasida, ular ham yolda sanaladi. Ie'tiq bo'lmanan induktsiya, analogiya va h.k.". Ijtimoiy-gumanitar fanlarning xususiyati shundaki, deyarli barcha sanaladigan tasdiqlar ikkilamchi, tasviriy-baholi tasdiqlar sanaladi. Ijtimoiy va gumanitar nazariyalarda ikkilamchi so'zlar - bu ham shakhsiyitgan va mavjud nazariyalar sifatida muhim tarkibiy elementardir¹. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda haqiqat - bu nafaqat mavjud aura, balki bo'lishi kerak bo'lgan hodisadir. Tadqiqotchi-egung pedagogik vogelikni nafaqat empirik va nazariy tasvirlaydi, balki mumkin bo'lgan transformatsiyalar taktikasi va strategiyasini

inobatga olib, uni voqelikni baholash vositasida qayta tuzadi.

Pedagogik tadqiqotlarda nazariy modellami konstruksiya qilish bosqichida tadqiqotchi ta'lim tizimlari holatini determinatsiya qiluvchi daiillar doirasini aniqlaydi, shuningdek, ularning rivojlanishi qonuniyat va tendensiyalarini yuzaga chiqaradi, bashorat modellarini konstruksiya qiladi, turli darajali ta'lim tizimlari (ta'limning texnologiyalashtirish va gumanitarizatsiyalash; ta'limning internatsionalizatsiya va globallashuvi va h.k.) rivojlanishining mavjud “ssenariysi”ni aniqlashtiradi. Shu ma’noda A.A.Ivin shunday ta’kidlaydi: “Yana bir tasviriy-bahoviy tasdiqlar turlari, ilmiy qonunlardan ko‘ra, toza tafsiflar polyusidan uzoq turuvchi, ijtimoiy va gumanitar fanlarda ijtimoiy tuzilma, institatlarning rivojlanish tendensiyalari haqidagi tasdiqlar odatiy hisoblanadi. Tafsifli mazmun qatorida tendensiyalar haqidagi fikr doimo yetarli yaqqol ifodalangan bahoviy mazmunga ham ega. Ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari haqidagi tasdiqlar har doim aniq ahamiyat kasb etadi va hamma vaqt nafaqat tafsifiy, balki bahoviy mazmunga ham ega”. A.A.Ivinniing ta’kidlashicha, ijtimoiy-gumanitar fanlarning aksariyat tushunchaiari yaqqol tafsiflariga ega: “fan” (xayolotga qaramaqarshi sifatida), “bilim”, “haqiqat” va h.k. “Fanda ishlatalidigan deyarli barcha aniqliklar deskriptiv-preskriptiv sanaladi. Aynan shuning uchun ba’zi obyektlarni tafsiflovchi real aniqliklar bilan obyektdan qandaydir xususiyatlarga egalikni talab qiluvchi nominal aniqliklar o’rtasida chegara o’tkazish qiyin”.

Pedagogik jarayon — pedagoglar va talabalarning ta’lim va tarbiya vositalaridan (pedagogik vositalar - metodlar, shaki, texnologiyalar) foydalangan holda ta’lim mundarijasi bo‘yicha maxsus tashkillashtirilgan o‘zaro ta’siri (pedagogik o‘zaro ta’sir) bo‘lib, ta’lim masalalari yechimi, jam iyat va shaxslarning, ularning rivojlanish, o‘z ustidan ishlash bosqichlarida extiyojlarini qondirishdir (V.A.Slastyonin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov). Ushbu aniqlikda deskriptiv va preskriptiv komponentlarning ikkisi ham yaqqol ifodalangan: deskriptiv komponent (muhim xususiyat): «pedagog va tarbiyalanuvchilarning pedagogik vositalardan foydalangan holda mazmunli asosida maqsadli o‘zaro hamkorligi»; muhim, obyektiv, invariant ya’ni, qonuniy aloqalar: «pedagogik jarayonning ijtimoiymadaniy asoslanganligi», «maqsad - ta’lim mundarijasi- pedagogik

model» tizimida qonuniy aloqalar”; preskriptiv komponent: ushu aniqlikda pedagogik o‘zaro ta’sir me’yorlari - subyektivlik principlari, rivojlanish boschiligi (o‘z ustida ishlash va b.) aks etadi. Yuxorida aytigan “pedagogik tadqiqotning deskriptiv-nazariy model” konekstiда (E.V.Berejnova, V.V.Krayevskiy) “noaniq qonuniy me’yorli komponentli deskriptiv-nazariy model” sifatida ta’minat bo‘lganligi bo‘libadi. Bunday nazariy modellar, empirik modelni kabi “toza” tafsif hisoblanmaydi, vaholanki, shubhasiz bunday modellarida deskriptiv komponent bosh o‘rinda turadi. E.V. Berejnova nazariy modelni baholashning to‘rt usulini ko‘rsatdi: maxsus empirik tadqiqotda nazariy modelning bahosi; voqelik fanlari assosiy nazariy modelni uning elementlari va korreksiyasi korinishi maqsadida baholash; nazariy modelni an’analari (o‘tmish tajribasiga murejaat)dan foydalangan holda baholash; surʼiy ta’minning yaqinlashishda uning tajribasidan foydalanish usullari. Nazariy model bahosi me’yoriy quritishida umumiyl mo’ljal beradi. Amaliy pedagogik tadqiqotning mantiqiy tuzilishida me’yorli modellar argumentatsiyasi usullari (E.V. Berejnova ishlarida o‘z ifodasini topgan). Aksiologik komponenti tadqiqotning mantiqiy tuzilishiga kiritish, V.V. Krayevskiyning okricha, gumanitar tadqiqotning ratsional mantiqiy elementi (paradigma) rivojlanishini ta’mindadi, u esa subyektivshusiy jarayga esa bo‘ldi. “Paradigma ilgarilashi” ro‘y berdi, ya’ni, empirik tadqiqot modeli rivojlanishi amalga oshadi.

Nazorat savollari:

- 1. Paradigma nima? Pedagogik tadqiqot paradigmasi yadrosini nima tashkil etadi?
- 2. Pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli qanday tuzilishida ega?
- 3. Deskriptiv empirik model komponentlariga nimalar kiradi?
- 4. Empirik in’ulmonalar deganda nima tushuniladi?
- 5. Illustratsiya va misollar va dalillar o’rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

5-MAVZU: PEDAGOGIK MUAMMONI TANLASH VA PEDAGOGIK TADQIQOT MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING DOLZARBLIGINI ANIQLASH

1.1. Ilmiy ish bo'yicha ilmiy muammoni aniqlash. Ilmiy mavzuni tanlash. Ilmiy tadqiqot muammoni qo'yishdan boshlanadi. Falsafada muammo anglanish paytida obyektiv paydo bo'luchchi savol yoki savollar jamlanmasi majmui sifatida aniqlanadi, ularning yechimi muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatni o'zida aks ettiradi. Muammoning tuzilishida quyidagi savol ko'ndalang turadi: "Avval fanda ma'lum bo'Imagan qaysi jihatni o'rganmoq kerak?" (V.V.Krayevskiy). Tadqiqot muammosi fan va amaliyot uchun birdek dolzarb bo'lishi kerak. Muammo - bu "bilmaslik haqidagi bilim"dir. Muammo tuzilishi ta'lim amaliyoti (ta'lim va tarbiya) pedagogika fani (didaktika, tarbiya nazariyasi, metodika) holatining obyektiv ilmiy tahlili natijasi hisoblanadi, uning maqsadi ilmiy "bilim" va "bilmaslik" chegaralarini aniqlashdir. Masalan, tadqiqotchi muammoni quyidagicha ifodalab beradi: "Didaktik tadqiqotlarning qanday sifat mezonlari mavjud?". Aslida pedagogik tadqiqotlaming sifat mezonlari metodolog olimlar E.V.Berejnova, V.M.Polonskiy, V.V.Krayevskiy, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Slastyonin kabilar tomonidan tizimlashtirilgan, asoslangan, ishlab chiqilgan. Yuqorida ifodalangan muammo aslida "tadqiqotchining o'zining muammosi", ya'ni u mazkur masala haqida yetarlicha bilimga ega emas. Ilmiy muammo ta'lim yoki tarbiya amaliyoti, pedagogik nazariyada topilgan ziddiyatlar asosida ifoda etiladi. Ziddiyat - bu "qarama-qarshilik", "mos emaslik", masalan, pedagogik jarayon komponentlari orasida - maqsadi va mazmuni, mazmuni va metodik vositalari bilan. Qarama-qarshilik va «ziddiyatlar» amaliyotda - ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun hali sabab emas! Amaliyotdagi har qaysi ziddiyat ham fan vositasitalari yordamida hal bo'lavermaydi. Qolaversa, fan ziddiyatlarni yechmaydi, balki asboblarni ularning yechimi uchun sharoit sifatida ishlab chiqadi. A.M.Novikovning ta'kidlashicha, pedagogik tadqiqot muammosi mantiqan o'rnatilgan qarama-qarshilikdan sizib chiqadi: faqat fanga oid, ilmiy bilimning yassiligiga olib o'tilgan, fan tilida ifodalangan jihatlardangina ajratib

olnadi. Qarama-qarshilik yechimining dastlabki sharti-vositasi ishlab chiqilganda, variant mavjud bo'ladi. Ilmiy ish bilan amaliy masalani ajratib olish muhim. Amaliy masaladan ilmiy muammoga o'tish uchun, ikki tartibni amalga oshirish kerak: berilgan amaliy masalani echish uchun qaysi ilmiy bilimlar kerakligini aniqlash; ushbu bilimlar fanda borligini aniqlash; agar bilimlar bor bo'lib, ularni tanlab olish, tizimlashtirish, foydalanish zarur bo'lsa, u holda ilmiy muammoning o'zi mavjud emas; agar kerakli bilimlar yo'q bo'lsa yoki to'liq bo'Imasa, muammo yoki muammolar majmui yuzaga keladi. Tadqiqot muammosi dolzarblik, yangilik, nazariy ahamiyat (o'sishga ko'maklashish, nazariy bilimlarni takrorlash emas) va amaliy ahamiyat (ta'limiy amaliyotning real masalalari yechimini topishga yordam berish) talablariga javob berishi lozim.

Ilmiy muammoni tuzish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish kerak:

- ta'lim amaliyotining tanqidiy tahlilini amalga oshirish (anketalashtirish, testdan o'tkazish, ekspertli baholash uslubi va b.), bilimning sifati va effektivligini aniqlash, amaliyot holatini determinatsiyalovchi faktorlar, "qarama-qarshiliklar", «ziddiyatlar», kelishmovchiliklarni shakllantirish;
- fanda amaliyot qarama-qarshiliklarni echish vositalari ishlab chiqilganini, shuni aniqlash (ilmiy tadqiqotlar natijalari tanqidiy tahlili asosida: yondoshuvlar, konsepsiylar, ta'lim jarayont modellari, ta'lim metodikasi), ilmiy "bilim" va "bilimsizlik" chegaralarini o'matish (nima ishlab chiqilganu, nima ishlab chiqilmagan va "fan karitasida oq dog" sifatida nima namoyot bo'lgan);
- tadqiqot obyektiga nisbatan, ma'noviy-kategorial apparatni (qo'shgan holda shaxsiy konseptual) pozitsiyani asoslash (tadqiqotchi mavjud konsepsiya yoki nazariyaning adepti bo'lishi mumkin);
- tadqiqotning muammoli maydonini aniqlash, konkretlashtirish va bиринчи navbatda shaxsiy tadqiqotning muammosini shakllantirish;
- shaxsiy ilmiy muammoni dolzarblik mezonlari pozitsiyasi, potensial nazariy va amaliy mazmuni jihatidan tanqidiy refleksiyasini amalga oshirish (Muammo bormi? U dolzarbmi? Yechimga egami? Uning yechim iga nazariy va amaliy extiyoj bormi? Pedagogik fan zamонавиy rivojlanish bosqichida uning yechimi mavjudmi?).

Muammo ko'pincha so'roq gap shakiida shakllanadi. Muammo tuzilishi mono va polikomponentli bo'lishi mumkin. Muammoning monokomponentli tuzilishida muammo bitta masaladan iborat bo'ladi («Magistrantlarda pedagogik-metodologik refleksiyani qanday shakllantirish mumkin?»), polikomponent shaklida - bir necha masala («Bo'lajak o'qituvchilarda metodologik madaniyatni shakllantirish mazmuni va metodlari») muhokama uchun qamrab olinishi mumkin.

Tadqiqot muammosining dolzarbliji. Tadqiqot muammosi dolzarbliji asoslanadi. Tadqiqotchi quyidagi savolga javob berishi talab etiladi: «Nima uchun berilgan muammoni aynan hozirgi vaqtida o'rganish zarur?» (V.V.Krayevskiy), ya'ni, hali loyihalash bosqichida potensial tadqiqot natijalarini zamonaviy kontekstda (kontekst dinamikasini hisobga oigan holda) ahamiyatlari ekanligini, pedagogik nazariyani rivojlantirish va ta'lim amaliyoti samaradorligi va sifatni ta'minlashdagi o'rnni asoslab berish. Tadqiqotning konkret muammosi dolzarbligini asoslash fonda muammoning ishlab chiqish darajasini baholashni nazarda tutadi. Masalan, asl manba (monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar) tahlili shuni ko'rsatdiki, fanda ta'lim sohasidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar sifatini boshqarish modellari, shuningdek, invariant terminologik ma'noli maydonni ishlab chiqarishga yondoshuvlar ishlab chiqilgan (ishlab chiqilyapti va ma'qullanayapti). Lekin fanda ta'lim sohasida xalqaro ilmiy tadqiqotlami baholashning invariant mezonlar tizimi ishlab chiqilmagan. Shu munosabat bilan potensial tadqiqot muammosi quyidagi tarzda shakllanishi mumkin: ta'lim va fanning internatsionallashish kontekstida ilmiy-pedagogik tadqiqotlari sifatining invariant bahosi qanday?

Pedagogika bo'yicha dissertatsiyalar tahlili tadqiqot mavzusi va muammosi dolzarbligida bir qator yaqqol kamchiliklami yuzaga chiqarishga imkoniyat beradi:

- faqat yo'nalishning dolzarbliji asoslanadi, lekin tadqiqot mavzusi dolzarbliji asoslanmagan;
- yo'nalish dolzarbliji va tadqiqot mavzusi ham rasmiy bayon qilinadi, shuning bilan birga yana bir holat borki, unda yo'nalish dolzarbliji bahs-munozarali, lekin tadqiqot mavzusi fanda allaqachon ishlab chiqilgan;

* tadqiqot mavzusining faqat ilmiy dolzarbliji asoslanadi: dalil isbotlar fonda ulaming yetarli darajada ishlab chiqilmaganligiga borib tisqaladi («aniqlanmagan», «yuzaga chiqmagan», «ochilmagan...»), amaliy dolzarblik esa ochilmay qolyapti («Qay tarzda tadqiqot natijalari ta'lim amaliyotidagi kamchiliklami bartaraf uchun yordam beradi?»);

* misollar-tasvirlar asosida faqat tadqiqot mavzusi dolzarbliji asoslanadi (masalan, pedagogik jarayon natijadorligi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar).

5.2. Tadqiqot mavzusi. Tadqiqot mavzusini shakllantirish uchun quyidagi savolga javob topish kerak: «Ilmiy ishni qanday nomlash kerak?». V.V.Krayevskiyning ta'kidlashicha, mavzuni ifoda qilishda muammo aks ettiriladi, bunda mavzu fonda maTimlikdan yangi bilimga harakatni aks ettirishi lozim. Mavzuni aniqlash uchun ilmiy muammoni yuzaga chiqarish va shakllantirish kerak, uning dolzarbligini isbotlash lozim. Tadqiqot mavzusi - bu qisqa ifodalangan muammodir. Mantiqiy-metodologik aspektida “mavzu” (“saravha”) ilmiy ishning asosiy savolidir (Yu.A.Petrov). Misol: «Ta'lim sohasida xalqaro ilmiy tadqiqotlar sifatining qanday invariant mezonlari mavjud?». Pedagogik tadqiqotning mavzusini aniqlash metodologik me'yorlari (metodologik kamchiliklar): «Amorflik, «protsessuallik», «butun olamga xos» tadqiqot mavzusi masshtabi». Da'zida mavzular “protsessuallik” tarzida shakllanadi: «jarayonni o'rganish», «takomillashishirish», «tadqiqot», «tayyorlash», «muammolari», «butun olamga xos» tadqiqot mavzusi masshtabi: mavzuning tadqiqot obyekt maydoni (obyekt bilan emas!) bilan o'xshashligi: « O'quvchilarni chet tiliga o'rgatishning samarali metodlari»; tadqiqot mavzusini to'g'ri ifodalash.

* Tadqiqot usullarining tadqiqot mavzulari bilan o'xshashligi: «tahlil», «jarayonni modelashtirish».

* Ilmiy tadqiqot mavzusi jiddiy ravishda uning asosiy natijasi bilan aniqlanadi! «Tafakkur madaniyati: ilmiy-pedagogik tadqiqotning metodologik muammosi» nomli fundamental monografiyasida professor Yu.A.Petrov ta'kidlaydi: «Savol tug'iladi: ilmiy ishning mundarijasiga mos sarlavhasini, yakuniy holatda esa - uning asosiy natijasini qanday tanlash mumkin? Buning uchun ish nimadan tashkil foyganini aniq tasavvur qilib, uning asosiy natijasi nima ekanligini

anglash kerak». Misol uchun tadqiqotning mavzusi «Ta’lim va fan internatsionallashuvi sharoitida amaliy-pedagogik tadqiqotlar sifatining invariant mezonlari» tarzida bo’lsa, asosiy natija - «Ta’lim sohasidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar sifatining invariant mezonlari» ko’rinishida aks etadi. Tadqiqot mavzusi tasdiqlanguncha tadqiqotning muammoli maydonini aniqlashtirib olish, muammoni identifikatsiyalash va aniqiashtirish, uning fan va amaliyot uchun dolzarbligini asoslash - tadqiqot mavzusini shakllantirish kerak. Ushbu barcha pedagogik jarayonlami tadqiqotchi mustaqil amalgalashishi lozim! Balki olimlar, ilmiy maslahatchilar “mavzuni” emas, dissertatsiyalarning “ishchi nomini” tasdiqlashar, sababi ushbu nomlar “ilmiy tadqiqot mavzusiga” aylangunga qadar ko’p bora aniqlashtiriladi? (Hech kimga sir emas: bugun hatto himoyaga tavsiya etilgan dissertatsiyalarning mavzulari ham himoyadan bir necha kun oldin keskin o’zgarishga uchraydi - ta’kid B.X.ga tegishli). Bu jihatni R.Dey obrazli tasvirlab bergen: «Ish yozilgunga qadar sarlavhani o’ylab topish, hali bola tug’ilmasidan avval unga ism berish bilan barobar: sababi siz o’g’il bolaga adashib qizning ismini berib qo’yishingiz mumkin». Tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zaruratini asoslashga doir misol. Tadqiqot mavzusi: Umumta’lim maktabi o’quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan ta’minot vositasida rivojlantirish.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng miqyosda qo’llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Ayni paytda interfaol ta’lim muhitini yaratish, o’quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi demokratik ta’lim konsepsiyasini yaratish vazifasiga alohida e’tibor qaratildi. “Ta’lim O’zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O’sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari, unda namoyon bo’ladi, kasb-kori mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o’tadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi” degan qat’iy xulosaga kelindi. Mana shu g’oyalari

tadrijiy ravishda rivojlantirilib mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajagini ta’minlaydigan muhim omil sifatida ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sohasini mutlaqo yangi asosda tashkil etishga kirishildi. Mazkur masalalarni hal etish uchun umumiy o’rtta ta’lim tizimi va mazmuni yangilandi, ya’ni I-XI sinflarda o’qitiladigan fanlar bo‘yicha uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti (DTS), o’quv dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy o’quv-uslubiy majmualar yaratildi. Umumta’lim maktabi o’quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik hamda fanlararo aloqadorlikni ta’mirlash, mazkur jarayonga kompetent yondashuvni tatbiq etish, globallashuv sharoitida o’quvchilarning tarixiy ongi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi axborot xurujlaridan muhofaza qilishning muhim omili sifatida ularda axborot iste’moli madaniyatini tarkib toptirish, samarali ta’lim texnologiyalari hamda o’quvchilarni miliyy tarixiy merosimizni chuqur va to’liq o’zlashtirishga doir elektron dasturiy vositalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslashda nimalarga alohida e’tibor qaratish zarur?
2. Tadqiqotchining o’zining kognitiv sohasidagi muammo tadqiqot muammosi bo’lib xizmat qilishi mumkinmi?
3. Tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslashda hozirgi vaqtida qaysi jihatlarga e’tibor qaratish talab etilmoqda? Mazkur holatga Siz qanday baho berasiz?
4. Tadqiqot mavzusining dolzarbliji o’zida uning zaruriyat ekanligini aks ettiradimi?
5. Tadqiqot mavzularining qayta-qayta e’lon qilinishining sababi nimada deb hisoblaysiz?

6-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOT OBYEKTI VA PREDMETI

Tadqiqot obyektini aniqlash jarayonida, biz nima tadqiq qilinayotganligi haqidagi savolga javob beramiz; tadqiqotning yangi bilimlar qo'liga kiritiladigan mazkur jihatni tadqiqot predmetida aks etadi (V.V.Kraevskiy). Tadqiqot predmeti bu obyektni o'r ganishining aniq jihatini o'zida ifoda etadi. F.A.Kuzinning fikricha, tadqiqot predmeti - bu muhoakama qilinayotgan tadqiqot obyekti doirasiga qamrab olingan barcha narsa hodisalardir.

Masalan, ta'larning o'zi turli jihatlar bilan bog'iqlikda tadqiq etilishi mumkin:

- ... qadriyat sifatida;
- ... madaniyat komponenti sifatida;
- ... maqsadli yo'naltirilgan ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida;
- ... idrok etish bilan uyg'unük mexanizmi sifat;
- ... dinamik va statistik tizim;
- ... o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi;
- ...jarayon;
- ... natija;
- ... mustaqil ta'lif;
- ... boshqaruv va loyihalashtirish obyekti;
- ... ta'lif xizmatlari sohasi va b.

Tadqiqot obyekti va predmetining muhim belgilari. Tadqiqot predmetini nima uchun aniq belgilab olish lozim? Predmetining aniq belgilanishi tadqiqotchini nom a'lum jihatlarni aniqlashtirish jarayonida behuda urinishlardan xalos etadi, chek-chegarasiz elementlar, hossalar va munosabatlarga ega empirik obyektlar haqida yangi fikrlarni bayon etishga imkon beradi. Tadqiqot predmetining aniqlashtirilishi ilmiy izlanishning chegarasi va vektorlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Tadqiqot predmeti tadqiqotchidan yangi bilimlarni qo'liga kiritish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimugini belgilab beradi.

Tadqiqot obyekti va predmetining qiyosiy tahlili Tadqiqot obyekti Tadqiqot predmeti Nima tadqiq qilinadi? • Obyektning qaysi jihatlari tadqiq etiladi? • Obyektning tadqiqot doirasiga nimalar kiradi? Obyekt subyektga b'ogiiq bo'lgan hodisa Predmet tadqiqotchi

nimani tadqiq etishni nazarda tutganligini aniqlab beradi. Obyekt ko'p o'chamga ega. Haqiqatning ko'p o'chamligi Predmet obyektning aniq tadqiq doirasasi va yo'nalishini belgilab beradi. Taqdqiqotchining maqsadi aynan nimaga qaratilganligini aniqlao'tirib beradi. o'nlab tadqiqotlar, obyekt esa bitta o'nlab tadqiqotlar, obyekt bitta, biroq o'nlab predmet, o'nlab konsepsiylar, o'nlab haqiqatlar... o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning interfaol metodlari... sifatida "o'quvchilarning bilish faolligini oshirish vositasi sifatida". "o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining samarali vositasi sifatida". "o'quvchilarda muqobil fikrlash vositasi sifatida", "o'quvchilarda tanqidiy fikrlash vositasi sifatida". Tadqiqot obyekti va predm etini aniqlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatolildar.

Pedagogik tadqiqotlar obyekti va predmetini aniqlashda yo'l qo'yiladigan maxsus va tipik kamchiliklari:

- pedagogik tadqiqotda obyekt yaxlitlik, lekin ma'lum qamrovni ko'nda tutilgan holda belgilanadi. Tadqiqot predmeti - bu obyektni o'r ganishning o'ziga xos ihati, ma'lum bir qamrov diorasi. "lovihasi" bo'lib, ilmiy izlanishning aniq doirasasi va vo'nalishini taqozo etadi:

- tadqiqot predmetining metodologik jihatdan to'g'ri belgilanganligi faqat muammoning nazariy tahlili va mos kelishi, tadqiqotning konseptual asoslarini ishlab chiqilganligi bilan bevosita bog'liqdir;

- bitta obyekt turli jihatlar bilan bog'liqlikda o'r ganishi mumkin;

- "Tadqiqot obyekti" va "tadqiqotning obyekt sohasi" ishunchalarini farqlash lozim. Bir muammo maydoni doirasida tadqiqotning ko'plab obyektlarini shakllantirish mumkin;

- tadqiqot predmeti va obyekti o'rtaсидаги vakuumning mavjudligi. Eto'pincha obyekt yoki predmet psixologiya, pedagogik psixologiya sohasi bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi ("... ko'nikmlarini rivojlantirish" yoki "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish"). Rivojlanish individ pisxikasi bilan bog'lik bo'lib, uni tashxis etish - psixologiya va pedagogika psixologyaning tadqiqot predmetini tashkil etadi. Pedagogika shaxsnı rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalarini tadqiq etadi.

Masalan, falsafal doktori dissertatsiya mavzusi "o'quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslarini takomil-

lashtirish” tarzida tanlansa, pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darjaga talabgor albatta, masalaning didaktik shart-sharoitlari - omillari, mazmuni, shakl, metod va vositalari, amaliy-texnologik tizimini tadqiq etishi talab etiladi;

- tadqiqot predmetini “jarayon” sifatida belgilanishi (masalan, tadqiqot predmeti - o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish jarayoni). Mazkur holatda jarayon obyektiv tavsifga ega. Muallif tadqiqot obyektni emas, balki predmetini aniqlashtirgan. Qachonki tadqiqot predmeti tadqiqotching subyektiv nuqtai nazari obyektga nisbatan aniq belgilab olingen bo'lsa, “jarayon” sifatida aniqlashtirilishi mumkin. E.V.Berejnovaning tadqiqot ishi obyekti “pedagogika oliv ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorlash jarayoni”, tadqiqot predmeti esa, “kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirish” tarzida belgilangan. Ana shu tarzda tadqiqot obyekti ham, predmeti ham jarayon sifatida aniqlashtirilgan. Shuning bilan birga, tadqiqot predmetida mualiiifning tadqiqotga doir subyektiv yondashuvini aks ettiruvchi aniq jihat o'z ifodasini topgan;

-tadqiqot obyekti yoki predmetini ning nazariy asoslari” tarzida belgilash. Muallif nazariy asoslarni mustaqil ravishda tadqiqot jarayonida aniqlashtiradi. Mazkur holat pedagogik ta'limotlar tarixida tadqiqot natijasi bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- “Predmetning obyektning tarkibiy qismi sifatida” belgilanishi. V.V.Kraevskiyning fskricha, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashtirishda eng keng tarqalgan kamchilik bu predmetni obyektning bir qismi sifatida qabul qilinishidir (masalan, tadqiqot obyekti - “maktab tarbiya tizimi”; predmet - “maktab tarbiya tizimining didaktik yo'nalishi”).

Tadqiqot obyekti va predmeti: metodologik xatoliklar Tipik metodologik xatoliklar Pedagogik tadqiqot obyekti va predmeti Predmet obyektning bir qismi sifatida Obyekt - “ta'lim mazmuni”, predmet - ta'lim mazmunining majburiy komponenti. Mazkur holatda “katta” va “kichik” obyektlar mavjud. Ta'lim mazmunining majburiy komponenti qaysi jihatdan tadqiq etiladi? Tadqiqotning predmeti esa noma'lum bo'lib qolmoqda. Predmet obyekti sifatida Predmet - “boslang'ich sinf o'quvchilarida olam haqidagi tasavvurlarning shakllanishi”. Aslida mazkur holat obyekтив jarayon. Tadqiqot

dolrasining predmeti esa aniq emas. Obyekt va predmet boshqa-boshqa fanlar tadqiq doirasi Pedagogik tadqiqot obyekti - “ijtimoiy-maishiy ertak” (bolalar folklori), predmet - ... axloqiy tasavvurlaming rivojlanishi (psixologiya). Obyekt va predmet tadqiqot maqsadi va vazifasi sifatida Obyekt - “... rivojlantirish konsepsiysi”, predmet - “rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslari”. Ko'rinish turibdiki, “konsepsiya”, “nazariya” va “metodika” aslida tadqiqot natijasidir.

Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashtirishga doir misollar.

1. Didaktik tavsifdagи mavzuga doir. Tadqiqot mavzusi: Umumta'lum maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyashgan ta'minot vositasida rivojlantirish. Tadqiqotning obyekti umumta'lum maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning predmeti umumta'lum maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning modernizatsion omillari, didaktik parametrleri va amaliy-texnologik tizimi.

2. Tarbiya nazariyasiga doir. Tadqiqot mavzusi: Pedagogika oliv ta'lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Tadqiqotning obyekti pedagogika oliv ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning predmeti pedagogika oliv ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, amaliy-texnologik va neyrolingvistik dasturlashtirish tizimi.

Nazorat savollari:

1. Tadqiqot obyekti va obyekt maydoni tishunchlariga izoh bering.
2. Tadqiqot obyekt maydoni va obyektni aniqlashtirish metodikasini tushuntirib bering.
3. Tadqiqot obyektning o'ziga xos belgilarini aniqlashtiring.
4. Tadqiqot predmetining o'ziga xos belgilariga izoh bering.
5. Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashtirishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yiladi.

7-MAVZU: ILMIY TADQIQOTNING FARAZI

7.1. Ilmiy faraz. Ilmiy tadqiqotning farazi. Ilmiy faraz fan taraqqiyotining, yangi ixtirolamining muhim tarkibiy qismidir. Biror ilmiy ixtiro induksiya, oldindan bashoratsiz, tajribasiz amalga oshmaydi. Ayniqsa pedagogik tadqiqotda xatoga yo'l qo'ymaslik, natijani har tomonlama asosli bo'lishida ilmiy faraz alohida ahamiyatga ega. Oldindan aniq ko'ra olish ilmiy faraz (fanda qabul qilingan faraz)dir. Ilmiy tadqiqot maqsadi, vazifasini aniqlangandan keyin eksperimental (tajribalar) o 'tkazish uchun muayyan ilmiy faraz bo'lishi, farazga har safar tayanish tadqiqot faoliyatining me'zonidir. Ilmiy faraz oldindan tasaw ur qilish, fikriy tajriba, tadqiqotning ichki tizimi, tadqiqotning harakat kuchidir. Ilmiy faraz tajribaga, tipik hayotiy misollarga, mantiqiy analogiya, ilmiy voqelik modeliga. kelgusida tajribada tekshiriladigan mavhum nazariyaga asoslanadi. Aniq ilmiy faraz tadqiqot samaradorligini oshiradi, tadqiqot bo'yicha aniq natijaga erishishga yordam beradi. Tadqiqot avvalidagi ilmiy faraz ishchi faraz hisoblanadi. Yaxshi shakllantirilgan ilmiy faraz muammoni hal etish asosida erishilgan natjalarga ko'ra istiqbolli aniq faraz yaratish imkoniyatini beradi. Muayyan ilmiy faraz chuqur nazariyaga asosan ifodalanadi, unda mayjud voqelik, natijalarining pedagogik qonuniyatlar bilan uyg'unligi, mosligi isbotlanadi. Tadqiqotda ilmiy faraz isbotlanish shart, dastlabgi ilmiy faraz va eksperimentlar natijasi asosidagi muayyan ilmiy faraz taqqoslanadi. Pedagogik tadqiqot ilmiy farazi aniq natijaviy dalillar, misollar bilan bog'liq. Har tomonlama tekshirilgan natijaviy misollar, yaratilgan yangilik, bashorat qilish ilmiy farazning asoslangani tadqiqotning mezonidir. Demak, ilmiy farazlar aw alo dialektik qonuniyatlar kelib chiqsa, mukammal tajribalarda va eksperimentlarda asoslansa uning mukammalligi ta'minlanadi. Ilmiy farazlar tadqiqot mavzusiga, qo'yilgan maqsadga, vazifalarga mos bo'Mishi izlanish samaradorligini oshiradi, izchilligiga erishiladi. Dastlab farazni fanga m a'lum bo'lgan qonun va nazariyalar yordamida izohlashga harakat qilinadi. Faraz emperik tasdig'ini topadi yoki eksperimental tekshirish natijasida rad etiladi. Farazning muhim sharti eksperimentlar va amaliyotda isbotlanishidir. Ilmiy tadqiqotchi o'zining umumiyl g'oyasini bir

yoki bir nechta farazda ifodalaydi.

Faraz tizimi tadqiqot jarayonining mexanizmidir. Ilmiy farazga qo'yiladigan asosiy talablar:

1. Pedagogik tadqiqotda eng muhimi nima?
2. Tadqiqot obyektiining tarkibiy qismi, xususiyati, pedagogik voqelik nimada aks etadi?
3. O'rganilgan jarayon modelining xususiyati qanday?
4. O'rganilayotgan voqelikni mohiyati nimada?
5. Muayyan voqelik qanday hosil bo'ladi?
6. Tadqiqot vaqt, muddati, qanday?
7. Ilmiy farazning tajribada aniqlash uchun qaysi metod va usulardan foydalilanadi? Demak, tadqiqot jarayonining hal qiluvchi tarkibiy qismi muayyan ilmiy faraz, uni tajribada, amaliyotda isbotlanishidir. Faraz -ilmiy asoslangan, lekin aniq isbotlanmagan tahnindir, u nazariy holat yoki uning inkor qilinishi sifatida o'zining xulosaviy tasdig'ini topishi uchun maxsus isbotni istab etadi. Faraz tadqiqotning metodologik tavsifi, nazariyaning elementi sifatida ilmiy bilimni rivojlantirish metodini o'zida aks etiradi. Maxsus metodologik adabiyotlarda faraz "ehtimoliy bilim" sifatida ta'riflangan.

Faraz - bu isbotni talab qiladigan ilmiy tahminlar tizimi. Tadqiqot faraz fan uchun bahsli, noaniq bo'lgan, isbotlar va tajribaviy-tadqiqiy tekshirishni talab etuvchi, tahminlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi quyidagi savolga javob berishi lozim: "Tadqiqot obyektiida nima joylashdi, unda men boshqalar sezmagani nimani ko'rayapman?" (V.V.Krayevskiy).

Tadqiqot farazini aniqlashning asosiy talablariga quyidagilar kiradi:

- faraz tadqiqot obyektiiga tegishli bo'lishi kerak (farazning metodologik aniq qo'yilishi faqat tadqiqot obyekti ko'p jihatdan o'rganish bilan bog'liq bolishi lozim);
- faraz fonda o'matilgan nazariyalar, yondashuvlarga mos kelishi kerak (bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan talablar); lekin salmoqli evristik potentsialga ega farazlar mayjud nazariy tasavvurlarga qarama-qarshi qo'yiladi: ana shu sababli ilmiy farazning yaqqol belgisi uning nostandardlligi, noaniqligi hisoblanadi. Tadqiqotning metodologik kamchiligi farazning o'z-o'zidan aniqligi, noo'rin

belgilanishi sanaladi (masalan, quyidagi gipotetikni holat metodologik noto‘g‘ri deb hisoblash mumkin: “o‘smir yoshidagi o‘quvchilaming ekologik faoliyati samarasi ekologik bilimlar va ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasiga bog‘liq”). Shu narsa aniqki, har qanday faoliyatning samarasi subyektda maxsus bilim va ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasiga bog‘iiq;

- faraz maxsus tekshiriladigan bo‘lmog‘i zarur - inkor yoki tasdiq imkonini berishi lozim (masalan, eksperimental tekshiruv vaqtida);

- farazda qonunchilik tabiatiga ega bo‘!uvchi, o‘rganilayotgan pedagogik voqelikka xos zarur invariant aloqalar aks etishi lozim.

V.V.Krayevskiyning fikricha, metodologik aniq farazlar quyidagi tasdiqlarni o‘z ichiga oladi: pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur va yetarli shart-sharoitlar, pedagogik faoliyat turining komponentlari, mezonlar, parametlar, funksiyalar va h.k. Bizning nuqtai nazarimizcha, faraz quyidagi sxema bo‘yicha shakllanganda samarali yondashuv bo‘ladi: “Agar...(g‘oya va fikr faraz yadroshi sifatida), u holda...(kutilayotgan natija), chunki...(tushuntirish)”, u farazning tavsiflovchi, tushuntiruvchi va bashoratlovchi vazifasini amalga oshirishga imkon beradi. Faraz ikki variantda shakllanadi: “agar..., u holda...”; “agar..., u holda..., chunki...”.

E.V.Berejnovaning “Amaliy pedagogik tadqiqot tuzilishida fandan amaüyotga o‘tishning metodologik shart-sharoitlari” nomli dissertatsiyasida belgilangan gipotetik holatlardan biri: “Amaliy pedagogik tadqiqot tuzilishida fandan amaliyotga o‘tish uchun quyidagi metodologik shartlami inobatga olish zarur:

a) o‘rganilayotgan obyekt haqidagi hissiy-aniq bilimlardan fikriyaniq bilimlarga o‘tish jarayonida harakatlar ketma-ketligiga erishish; o‘rganilayotgan obyekt modelining tavsifiy tuzilishi; o‘rganilayotgan obyektning nazariy modelini tuzish; mos keluvchi dalillar yordamida nazariy modellarni asoslash; tadqiqot ishining aksiologik jihatini aniqlash; aksiologik jihat bilan bog‘liq!ikda nazariy modelni baholash; nazariy model, uning asoslanishi va bahosini hisobga olib me’yoriy modelni tuzish; mos keluvchi dalillarni inobatga olib me’yoriy modelni asoslash;

b) kamida uch marta amaliyotga murojaat qilish: tadqiqot obyektini tavsiflash, amaliy modelni baholash va me’yoriy modelni asoslash...». Yana bir misol. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda

ishlatga qadriyatli munosabatni shakllantirishda zaruriy pedagogik shart-sharoit sifatida quyidagilar inobatga olinadi: bilishga oid (sodda tadqiqiy, bilish-irratsional), qadriyatga yo‘naltirilgan, qayta ishlashlashtiriladigan (loyihali, biotexnik), refleksiv ekologik faoliyat; kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning ekologik faoliyatida psixologik mexanizmlaming subyektivlashtirilishi, identifikasiysi, hissiyotlar, empatiyalar, refleksiyalarning pedagogik dolzarblik kasb etishi.

Tadqiqot farazi shakllanishi jarayoni spiralsimon tabiatga ega: tadqiqotchi ko‘p bora ortga qaytib, goh konseptual holatlarni aniqlashtiradi, goh tahlil qiladi va faktik materialni yangi nazariy jihatdan tushuntirib beradi, ba’zida g‘oyani aniqlashtiradi. Pedagogik tadqiqotda ishchi faraz (mavjud ma’lumotli materialni umumlashtirish maqsadida taxmin) va ilmiy farazni ajratishadi, u salmoqli ma’lumotli material umumlashtirib yig‘ilgandan keyin yaratiladi va ilmiy muammoni yechish “loyihalarni ishlab chiqish, bu‘zi noaniqlik va xatoliklari bilan ilmiy nazariya elementiga aylanishi mumkin bo‘lgan gipotetik holatni shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

7.3. Ilmiy tadqiqot yo‘nalishi. Tadqiqot – sifat jihatidan yangi muddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratadigan yoki subyektiv yangini yaratish natijasi bo‘lgan faoliyat jarayoniga nisbatan aytildi. Tadqiqot ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan qandaydir yangi sifat yaratadigan faoliyatadir. Ilmiy tadqiqotning maqsadi – obyekt, jarayon yoki hodisani har tomonlama, ishonchli o‘rganish; fanda ishtab chiqilgan tamoyillar asosida ularning tuzilishi, aloqalari va munosabatlari va bilish usullari, shuningdek, inson uchun foydali natijalarni olish va ishlab chiqarish (amaliyot)ga joriy etish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liqlik surʼi va uning uchun ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra tasniflanadi; mo‘jallangan maqsad; moliyalashtirish manbalari va texnik xizmat ko‘rsatish muddati. Har bir tadqiqot ishini ma’lum bir yo‘nalishga kirish mumkin. Ilmiy yo‘nalish deganda o‘z sohasida tadqiqot olib tushayotgan fan yoki fanlar majmuasi tushuniladi (masalan, texnik, ijtimoiy va boshqalar).

Ilmiy yo‘nalishning tarkibiy bo‘limlari murakkab muammolar, mavzular va ilmiy masalalardir. Muammo – yechimlari jamiyatda

pishib yetilgan murakkab nazariy va amaliy muammolar yig'indisidir. Bu inson amaliyatda qiyinchiliklarga duch kelganda yoki hatto maqsadga erishishning "imkonsizligi"ga duch kelganda paydo bo'ladi. Ilmiy tadqiqot mavzusi muammoning ajralmas qismidir. Mavzu bo'yicha tadqiqotlar natijasida muammoning bir qismini qamrab oluvchi ma'lum bir qator ilmiy savollarga javoblar olinadi. Ilmiy masalalar deganda ilmiy tadqiqotning aniq mavzusiga oid kichik ilmiy vazifalar tushuniladi. Ilmiy tadqiqot yo'nalishi, muammolari, mavzularini tanlash va ilmiy savollarni shakllantirish juda mas'uliyatlari vazifadir. Muammo va tadqiqot mavzusini tanlashda, avvalo, o'rganilayotgan yo'nalishdagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilish asosida muammoning o'zi shakllantiriladi va kutilgan natijalar umumiyligi ma'noda aniqlanadi, so'ngra muammoning tuzilishi ishlab chiqiladi, mavzular va ijrochilarining savollari aniqlanadi, ularning dolzarbliqi aniqlanadi.

Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: insonning maqsadli faoliyati, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir. Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo'yicha) yangi bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo'yicha) mavjud bilimlarni to'ldirishga erishishda anglab yetishni bilishning aniq usullaridan va ilmiy uskunalardan (o'Ichov, hisoblash texnikalari) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi. Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo'naltirilgan tadqiqot obyekti va u haqidagi (oldingi) bugungacha bo'lgan bilimlar hisoblanadi. Tadqiqot obyektiga moddiy dunyoning har qanday materiali (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilmalar, mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexnik, elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi. Inson hayot faoliyatining barcha sohalarida tadqiqot qiladi. Ijodkorlik namoyon bo'lishining turli-tumanligini turli asoslariga ko'ra turkumlash mumkin.

Ijodning turli ko'rinishlari mavjud:
Ishlab chiqarish – texnikaviy;
Ixtirochilik;
Ilmiy;
Siyosiy;
Tashkilotchilik;
Falsafiy;

Badiiy;
Minologik;
Diniy;

Kundalik tadqiqot turlari va hokazo.

Doshqacha aytganda, tadqiqotning ko'rinishlari inson amaliy va ma'naviy faoliyatining ko'rinishlariga mos keladi. Ilmiy bilish muammoni hal qilish bilan bog'liqdir. Muammolarning bo'lmasisligi tadqiqotlarning to'xtab qolishi va fanning bir joyda qotib qolishiga mos kelgan bo'lar edi.

Olipotera – qadimgi grek tilidan – asos, taxmin ma'nosini bildirib, shunday o'rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tashqishni yoki inkor etilishi lozim bo'ladigan nazariy taxmin. Ilmiy tadqiqot ishlarida qo'yidagilar farqlanadi: ilmiy yo'nalish, muammolari va mavzular. Ilmiy yo'nalish – fanning muayyan jarung'ida yirik, fundamental, nazariy eksperimental masalalarni hal etishga bag'ishlangan jamoaviy ilmiy tadqiqot sohasi. Ilmiy yo'nalish qo'yidagi tuzilmaviy birliklarga bo'linadi: mujassamaviy muammolari va muammolar, mavzular va masalalar.

Muammo = murakkab ilmiy masala bo'lib, hal etishni, tadqiq etishni talab qiladi. U muammoviy vaziyat natijasi hisoblanadi, bu mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hisob bo'ladi. Mujassamaviy muammolar (yoki problematika) – mazuda, bir yo'nalishdagi murakkab bir qancha masalani o'z ichiga oluvchi muammolar majmui.

Mavzu = bu ilmiy masala bo'lib, tadqiqot talab qiluvchi muammolar muayyan sohasini qamrab oladi. U ko'plab tadqiqiy masalalarga – muammoning aniq bir sohasiga taalluqli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Muammoni yoki masalani hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi yechiladi, masalan, yangi materialni ishlab chiqish, konstruksiya, ilg'or texnologiya va shu kabilarni yaratish. Birorta ularni bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan kutileyotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Muammo va mavzuni tanlash qiyin va mas'uliyatlari ishdie, u bir necha bosqichda o'z yechimini topadi.

Birinchi bosqichda, muammoviy vaziyatdan kelib chiqib, muammo

ifoda etiladi va kutilayotgan natija umumiy tarzda belgilanadi.

Ikkinci bosqichda, muammoning dolzarbliji, uning fan va texnika uchun ahamiyati aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda muammo tuzilmasi ishlab chiqiladi – tema, kichik temalar, savollar va ular o'rtasidagi bog'liqlik farqlanadi.

Natijada muammo daraxti shakllanadi. Keyinchalik, muammolar asoslangandan, uning tuzilmalari ishlab chiqilgandan so'ng ilmiy xodim (yoki jamoa) qoidaga ko'ra ilmiy-tadqiqot mavzuini mustaqil tarzda tanlaydi. Ko'pincha mavzuni tanlash tadqiqotni olib borishdan ko'ra murakkabroqdir.

Ilmiy tadqiqot mavzusiga bir qator talablar qo'yiladi:

Mavzu dolzarb bo'lishi, hozirgi paytda hal etishni talab qilishi zarur. Fundamental tadqiqotlar bilan bog'liq mavzular dolzarblik darajasini belgilash uchun hozircha tegishli mezonlar yo'q. Shuning uchun, mazkur holda dolzarblikni yirik olim yoki ilmiy jamoa belgilaydi. Mavzuning amaliy tavsifiga kelsak, ularning dolzarbliji, qoidaga ko'ra ishlab chiqarish muayyan tarmog'ining rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik talablariga ko'ra belgilanadi. Mavzu yangi ilmiy masalani hal etishi va ilmiy yangilik tavsifiga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy mavzuga qo'yiladigan muhim talablar bo'lib iqtisodiy samaradorlik va ahamiyatlilik hisoblanadi. Amaliy tadqiqotlar bilan bog'liq mavzular tanlash bosqichida taxminiy belgilanadigan iqtisodiy samara berishi lozim. Fundamental tavsifdagi mavzuni tanlashda iqtisodiy samaradorlik mezoni ahamiyatlilik mezoniga o'z o'rnni bo'shatib beradi. Mavzu ilmiy yo'nalishiga mos bo'lishi kerak. Bu ilmiy jamoa malakasi va vakolatidan eng to'liq ravishda foydalanishga imkon beradi. Natijada ishlanmaning nazariy darajasi, sifati va iqtisodiy samarasi oshadi, tadqiqotning bajarilish muddati qisqaradi. Joriy etilish mavzuning muhim tavsifi bo'lib hisoblanadi. Mavzuni ishlab chiquvchilar uni rejadagi muddatda tugatilish imkoniyatini belgilashlari va buyurtmachining ishlab chiqarish sharoitlariga joriy etilishini aniqlashlari kerak. Ular tegishli ishlab chiqarishni, uning hozirgi vaqtdagi va kelgusidagi talablarini yaxshi bilishlari lozim.

Mavzuni tanlash mamlakat va xorijiy adabiyot manbalarini, ya'ni hal qilinayotgan masalaga bag'ishlangan. Diqqat bilan

ilmiy chiqish bilan qo'shib olib boriladi. Bu velosipedni qayta tashish ommaslik uchun, shuningdek zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar ilmiyishini aniqlash uchun zarur. Keyingi yillarda mavzuni tanlashda eksperiment baholash usuli keng qo'llanilmoqda. Buning ma'muri shundaki, rejalashtirilayotgan mavzu mutaxassis-ekspertlar tanlashdan baholanadi. Har bir ekspert mavzularga qo'yiladigan tegishli talablarni ballarda baholaydi (yuqorida qarang). Eng yuqori har usadi oddiy hisoblanadi – bunda eng ko'p ball to'plagan mavzu maqbul hisoblanadi.

Nazorat savollari:

- 1. Tadqiqot gipotezasi ilmiy tadqiqot uchun qanday ahamiyat ta'sihi?
- 2. Tadqiqot farazining qanday turlari mavjud?
- 3. Tadqiqot farazini aniqlashga qo'yiladigan asosiy talablarga jumladar kirdi?
- 4. Tadqiqot farazini belgilashda produktiv yondashuvning o'rnnini qanday baholaysiz?

8-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

8.1. Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilmiy tamoyillari. Ilmiy bilishda umumiylar metodologiya va xususiy metodologiyalar asos mavjud. Umumiylar metodologiya falsafaning dialektik qonunlari, ilmiy bilish haqidagi ta'limotlar, jamiyat taraqqiyotning hozirgi davridagi konsepsiylari, milly g'oya, mafkura.

Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilmiy metodologiyalar tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Muvofiqlik tamoyili - ilmiy bilishning mazkur sohasida bilim-larning yangi tamoyillar, g'oyalar konsepsiylar asosida tizimga solish.

To'ldiruvchanlik tamoyili - tadqiqotning ko'pgina obyektlari mikrodunyoning zarraga o'xshash eng oddiy obyektlaridan tortib inson va jamiyat singari murakkab obyektlarigacha. Qarama-qarshi nazariyalarni birlashtirish asosida to'la tavsiflanishi.

Verifikatsiya tamoyili - mohiyat e'tibori bilan formal mantiqni yetarli asoslash.

Falsafikatsiya tamoyili - mazkur tamoyilga binoan faqat inkor etish orqali tekshirib ko'rish imkoniyati bo'lgan bilim ilmiy bilim bo'lishi mumkin.

Reduksiya tamoyili - ma'lum yaxlitlik tizim murakkabligini uning nisbatan sodda tarkibiy qismlari unsurlari orqali bilishdir.

Yaxlitlik tamoyili - tadqiq qilinayotgan obyektlaming alohida yaxlit xossalarni boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqada bo'lish.

Kontirreduksiya tamoyili - elementar zarralardan tortib to'ijtimoiy tabiiy tizimlargacha barcha tabiiy obyektlarga, shu jumladan tabiiy tilga amal qilish.

Pedagogik tadqiqotlarning konkret-metodologik tamoyillari. Demokratik jamiyat qurish konsepsiysi har bir ijtimoiy fanning o'z qonunlaridan, predmetidan kelib chiqadigan xususiy, metodologiyani rivojishiga imkoniyat yaratdi. Avvalo, ilmiy pedagogik tadqiqotda shaxsiy yondashuv, faoliyatli yondashuv, polisubektli yondashuv, madaniy yondashuv, antropologik yondashuv, texnologik yondashuv kabi konsepsiylar yaratildi. Albatta bu konseptual yondashuvlar davr taqozosi bilan takomillashib boradi. Professor A.Choriev

qonuniyatii yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning metodologik asosi ekanligini asoslagan. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatari asrlar bo'yli tajribalarda sinalgan, qaror topgan. Har bir fanning o'ziga xos qonuniyat bo'lganidek, pedagogik jaaryonning qonuniyatari ilmiy tadqiqotning yorqin yo'llanmasi bo'iadi.

Metodologiya metodlar, usullar, majmui sifatida qarashlar, "yondashuvlar", konsepsiylar uchun ham fanning umumiylar qonuniyatari nazariy (boshlanguich) asosi bo'ladi. Har bir qonuniyatni amaliyotida o'ziga xos metod, usullari qo'llanishi tabiiy hoi. Pedagogik qonuniyatlar o'tgan asming 80-yillarda umumlashtirila boshlandi. Ko'pgina mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayoniga faqat falsafiy yondashuv mavjud. Muayyan qonuniyatlariga asoslanilmagan uchun fanning predmetsizlikda kamsitishga urinishlar ham bo'ladi. Har bir voqelegining o'ziga xos qonuniyat mavjud bo'ladi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotda qonuniyatii yondashuv obyektniing, muammoning muayyan mohiyatini aniqlash, ixtironing nazariy ahamiyatini, tadqiqot samaradorligini oshiradi.

1. O'rganayotgan muammoning tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik tamoyili:

- muammoning o'rganilishi tarixiy taraqqiyod, konsepsiylar, tajribalar tahlili;

- milliylik, milliy qadriyatlar ustuvorligi, ijtimoiy, iqtisodiy mohiyatini;

- globallashuv sharoitida umuminsoniylik xususiyati, jahonda ilg'or tajribalar, tadqiqotning jahonda ilg'or tajribalar, tadqiqotning jahonshumul ahamiyati tadqiqotning dolzarbligini, nazariy ahamiyatini aniqlash imkoniyatini beradi.

2. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy xususiyati o'rganayotgan muammoni, ixtironi "davr talabiga, mavjud sharoitga mosligi, optimallik" tamoyili:

- jamiyatni tezkor rivojlanishida ixtironing tutgan o'rni, dolzarbligi va fanga qo'shilgan hissa;

- bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat buyurtmasi Kadrlar tayyorlash Miliy modelida fanning vazifalariga hozirjavobligi;

- tadqiqot obyekting tipikligi;

- natijaning umumlashganligi kabi tamoyillar.

3. Ta'lim-tarbiyada nazariyaning amaliyot bilan birligi:

- tadqiqotning nazariy g'oyalarni amalda qo'llanishi, amaliyot asosida nazariy konsepsiylar yaratilishi;
 - amaliyot har qanday bilim, g'oya va ixtironing mezoni ekanligi;
 - tadqiqot ishining bilish nazariyasiga asoslanishi;
 - insonda, uzuksiz ta'lim-tarbiyada tajribaning murakkabligi, mas'uliyatliligi, mukammal nazariyaga tayanishi;
4. Ta'lim-tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'iqligi tamoyili:
- insonni bir butun, yaxlitlikda o'rganish;
 - "ta'limni-tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir" (I.Karimov).
 - ta'lim jarayonida rivojlanishni jismoniy, ma'naviy va intellektual o'sishga erishish.

5. Ta'lim-tarbiyaning o'quvchi imkoniyatiga mosligi:

- pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish va demokratiklashtirish, individuallashtirish va tabaqalashtirish;
 - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya, kompetentsiyaviy ta'lim, antrogorik ta'lim paradigmalar;
 - globallashuv sharoitida yoshlami har tomonlama kamol toptirish.
6. Tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash, o'qitish va o'rganish faoliyat uyg'unligi:
- tarbiyalash faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalashga yo'llash o'z-o'zini tarbiyalash motivi, ko'nikmasi va madaniyatini shakllantirish imkoniyati;
 - o'z-o'zini tarbiyalash samaradorligi;
 - tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi;
 - ta'limni ikki tomonlama xususiyati;
 - o'rgatish va o'rganish faolligi uyg'unligi;
 - masofaviy ta'lim-tarbiya jarayoni;

7. Ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari o'zaro bog'liqligi:

- optimal maqsadga mos mazmun, metodlarni tanlash, yo'llash YUNESKOning pedagogik texnologiyaga bergan bahosida o'z ifodasini topgan;
- intellektual rivojlangan barkamol avlodni, shaxsni tarbiyalash maqsadiga mos ta'lim-tarbiya mazmuninii belgilanishi;
- har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish mazmuniga

mos metod, vositalarni yo'llash ta'lim-tarbiyaning samarali omili ekanligi;

-pedagogik texnologiyaning usullari shakllari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, mavjud shart-sharoitga bog'liqligi kabilar;

8. Ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'liqliq tamoyili: insonni o'rjanadigan fanlar nazariy rivojlanishida deferensiatsiya holati mavjud bo'lsada, ijtimoiy funksiya amaliyotida integratsiya tabiiy holdir. Tabiiy fanlarning tutash bandida yangi-yangi fanlar paydo bolishi, fanning ufqi kengayishi, jamiyat taraqqiyotida imkoniyatini oshishi insonshunoslik fanlarining ham o 'zaro bog'liqliq qonuniyati mavjudligini ko'rsatadi. Jamiyatni ijtimoiy taraqqiyoti, inson, insoniylik, insoniyat, triadasi insonshunoslik fanlari hamkorligini taqozo etadi. Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv yo'nalishida izlanishlar olib borgari tadqiqotchilaming ta'kidlashicha, shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'z navbatida, turli xil omillar ta'sirida hamda shaxsning o 'z faoliyat natijalari ta'sirida uning subyekt sifatida rivojlanishi amalga oshadi. Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud omillarni aniqlash asosida mazkur jarayonda vujudga kelayotgan o 'zgarishlami vaziyatlarga ko'ra tahlil qilish zarur bo'lib, bunda ularning mustaqil va erkin fikr bildirishlari, hech qanday hadiksirashlarsiz o 'z tushunchalarini ifodalashlari, erkin muloqotga kirishishiari, ya'ni o'z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun zaruriy va etarli shart-sharoitlar yaratiladi.

Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda quyidagi shart-sharoitlar hisobga olinadi: muayyan faoliyatga kirishishining ixtiyoriy ekanligi; qo'yilgan maqsadga erishish vositasini tanlashda ishonch, har bir bolaning imkoniyatlariga ishonish va ularning qo'yilgan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishiga xayriohlik bildirish; ta'lim vazifalarini belgilashda samarali va oqilona strategiya tanlash; pedagogik ta'sir etish jarayonida yuzaga keladigan salbiy oqibatlaming oldini olish; qiziqish, individual ishtiyoq, xohish-istiklarini hisobga olish va yangi qiziqisnlami paydo qilish. Shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik

tadqiqotlarda quyidagi qoidalarga asoslanib joriy etilishi lozim: faol nuqtai nazar, mustaqillik va tashabbuskorlikka tayanish; ta'lim oluvchi bilan muloqotda unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; pedagog ta'lim oluvchilarining muvafaqqiyatlaridan quvona bilishi lozim; pedagog muhim muammolami hat etishda ta'lim oluvchiga yordam berishi kerak; tarbiyaviy vazifalarni bosqichma-bosqich hal etishda pedagog ularni amalga oshirishning har bir ta'lim oluvchiga yuqori darajada foyda keltiradigan variantiarini izlab topishi kerak; guruhta, ta'lim oluvchilarining boshqa jamoalarida ham pedagog insonparvarlik munosabatini shakllantirishi kerak, u ta'lim oluvchilarining kansitiushiga, ruhi tushib ketishiga yo'l qo'ymasligi zarur. Pedagogik tadqiqotlami amalga oshirishga doir aksilogik yondashuv pedagogik qadriyatlar negizida amalga oshirildi.

Natijada quyidagi individual-shaxsiy qadriyatlar tizirni aniqlash-tirildi: shaxsnинг ham jamiyatda, ham kasbiy muhitdagi o'zini namovon etishi bilan bog'liq qadriyatlar (pedagog mehnatining ijtimoiy ahamiyatliligi, pedagog faoliyatining nufuzi, kasbning yaqin shaxsiy doiradagilar tomonidan tan olinishi va h.k.);

muloqotga bo'lgan ehtiyojlami qondiruvchi va uning doirasini kengaytiruvchi qadriyatlar (bolalar, hamkasblar, mansabdar shaxslar bilan muloqot, bolalarga bo'lgan mehr va g'amxo'rlik, ma'naviy qadriyatlar almashinuvi va h.k.);

shaxsnинг ijodiy individualligini rivojlanirishga qaratilgan qadriyatlar (kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlanirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo'shilish, sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish, doimiy kamolotga intilib borish va h.k.);

o'zini ishga safarbar etishga imkon beruvchi qadriyatlar (pedagog mehnatining ijodiy xarakteri, defektologlik kasbining hissiyotga boyligi va maroqliligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam bera olish imkoniyati va h.k.);

Pragmatik (amaliy) ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat beruvchi qadriyatlar (davlat tomonidan kafolatlangan ish, ish haqi, ta'til, xizmat pog'onasining oshib borishi va boshqalarga erishish).

Aksilogik yondashuvda quyidagi mezonlarga tayanildi:

ta'lim oluvchining o'z-o'zini rivojlanirishga, o'zini kasbga safarbar etishga, o'z ishini tashkil etishga shayligi;

uning o'z-o'zini axloqiy jihatdan tartibga solish layoqati;

shaxsnинг qadriyatli-mazmunli rivojlanish darajasi va o'z ishini tashkil etishi;

ta'lim oluvchining yuqori darajadagi mustaqilligi; uning maqsadli faoliyatga kirishishga shayligi;

o'zini, o'z shaxsini takomillashtirib borishga qaratilgan ongli xulq-atvori;

undagi komillikka intilib borishdagi maqsad va vazifalaming bajarorligi, ularni hayotining mazmuniga aylantirishi; shaxs faoliyatining ijodiy tavsifi;

o'zini mutaxassis sifatida shakllantirib borish jarayonining samaradorligi.

Refleksiv yondashuv samarali fikrlashning muhim mexanizmi sifatida yuz berayotgan hodisani baholash, vazifalarni hal qilish usullari va operatsiyalarini izlab topish; ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida o'zini-o'zi tahlil qilish, o'z holati hamda xattiharakatlarim faol o'ylab ko'rishiga imkon beradi. Shu sababli refleksiv yondashuv o'z-o'zini baholash va tashqi tomonidan berilgan bahoni anglashni talab etadi. Refleksiv yondashuv muammoli vaziyatlarni hal qilish chog'ida etakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladи. Fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan fuksiyalarining xilma-xilligi hamda xulq-atvorni va harakatlarni tartibga solishda o'ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyani ta'lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos boiadi. Refleksiv yondashuvning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri ta'lim oluvchilarining tahlili faoliyatini tashkil etish boiib, jismoni y va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor boigan bolalar bilashga doir o'z faoliyatini tahlil qilish va obyektiv baholashga undash, tahlilini faoliyat jarayonidagi ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, obyektiv xulosalarni rag'batlanirish va rivojlanirish, amalga oshirilgan tahlillar asosida ijodiy tafakkuming yangilanib borishini nazarda tutadi. So'nggi yillarda kompetent yondashuvga alohida etibor qaratib kelinmoqda. Mazkur jarayon bilimlar (gnostik), ko'nikma va malakalar (faoliyatga yo'naltirilgan komponent), shaxs surʼusiyatlari (shaxs komponenti)ni o'z ichiga qamrab oladi.

Bilimlar - yangi echim ishlab chiqish uchun talab etiladigan ushuncha va tasavvurlaming bilish faoliyati mahsuli sifatida inson omgidagi tizimlangan in'ikosini; ko'nikmalar - shaxsnинг maqsadga

yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda aqliy jarayon bosqichlarini tez va toiaqonli amalga oshirish darajasini belgilaydi. Malakalar esa shaxsnинг ijodiy faoliyat reproduktiv bosqichlarini qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi. Kompetensiyaviy yondashuv uch jihatni o'zida aks ettiradi: faoliyatga yo'naltirilgan, kommunikativ va shaxsiy. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv bilim, ijodiy faoliyat usullari va vositalarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Kommunikativ jihat muloqotni amalga oshirishga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shaxsiy jihat tafakkur yuritish, refleksiya, yo'nalganlikni o'zida aks ettiradi. Akmeologik yondashuv shaxsnинг yuqori darajada o'z-o'zini anglay olish, o'z-o'zini namoyon eta olishi hamda o'z-o'zini shakllantirishiga imkon berishi bilan alohida ajralib turadi.

Ma'lumki, inson shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Shu bois ham, akmeologiya - ulg'aygan shaxsnинг rivojlanishi va komillikkа erishish jarayonini o'r ganuvchi maxsus fan hisoblanadi. Akmeologiya (grekcha "akme - cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch" ma'nolarini bildiradi) - ilmu-fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o'r ganadi. Ya'ni, u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilmiy tamoyillariga nimalar kiradi?
2. Pedagogik tadqiqotlarning konkret-metodologik tamoyillariga izoh bering.
3. Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyatini yoritib bering.
4. Refleksiv yondashuv pedagogik tadqiqotlarda qanday o'r in tutadi?

5. Aksiologik yondashuv pedagogik tadqiqotlar uchun qanday metodologik imkoniyatga ega?

6. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini izohlang.

7. Akmeologik yondashuvning pedagogik tadqiqotlar uchun shamiyatini asoslang.

9-MAVZU: ILMIY IZLANUVCHINING METODOLOGIK MADANIYATI

9.1. Pedagogik tadqiqot obyekti. Metodologik madaniyat - bu metodologik bilimlarga asoslangan ilmiy fikrlash madaniyatidir, uning o'zagi esa metodologik refleksiyani tashkil etadi (V.V. Kraevskiy).

Pedagog-tadqiqotchining metodologik madaniyati - tadqiqotchining qadriyatami anglash, tizimli metodologik bilimlar, ilmiy izlanishning jarayoni va natijalarini loyihalashtirish, amalga oshirish va baholashning metodologik ko'nkmalar, ilmiy muammoning adekvat echimini taqozo etadigan shaxsiy intellektual uslubni integratsiyalashni talab etuvchi kasbiy madaniyat komponentidir. Pedagog-tadqiqotchi metodologik refleksiyaning subyekti (tashabbuskori) bo'lishi juda muhim.

Metodologik inadaniyatning shakllanganlik darajalari:

Nolevoy daraja - metodologik madaniyat elementlari shakllangan.

Beqaror-empirik daraja - tasavvur etish darajasida noto'liq metodologik bilimlar, ayrim metodologik, rasmiy-mantiqiy va vosita texnologik ko'nkmalar shakllangan; tadqiqot ishining mavzusi dolzarb emas, muammo aniq qo'yilmagan va shakilantirilmagan; tadqiqot metodologik nuqtai nazardan asoslanmagan, eklektik tusga ega; kategorial apparati mazmuni va tarkibiy tuzilmasi aniq ishlab chiqilmagan, mantiqan noto'g'ri; faraz yangi emas; tadqiqot mantiqi metodologik nuqtai nazardan noto'g'ri va asoslanmagan; tajribaviy ish dasturi nazariy nuqtai nazardan asoslanmagan, texnologik jihatdan ziddiyatga ega; tadqiqot natijalari va xulosalari originallik, yangilik, nazariy mohiyat yo'qligi bilan tasniflanadi; tadqiqotning alohida bosqichlari, jarayotilarining tartibsiz refleksiyasiga ega, lekin metodologik refleksiyaning subyektini aks ettirmaydi; intellektual-uslubiy doirasi tor; intellektual faoliyatning algoritnik usullari ustuvorligi; "sinash va xato usuli"ning ustuvorligi; avval ishlab chiqilgan tadqiqot vositalarining majmui asosida ilgari surilgan ilmiy muammo echimini aks ettiradi; tadqiqotning evristik potensiali past - tadqiqot fanda mavjud boigan pedagogik obyektlami o'rganishga qaratilgan, an'anaviy konsepsiya doirasida amalga oshirilgan; yangi

natijalarga erishilganlik ehtimoli juda past (tadqiqotchi fanga ma'lum bo'lgan dalillar, qoidalarni deyarli takrorlayapti).

Evristik daraja - tushunish va qollash darajasida alohida metodologik, mantiqiy, texnologik qobiliyatlar shakllangan; tadqiqotning ilmiy va amaliy dolzarbliji asoslangan; kategorial apparati mohiyati va tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirirgan, lekin mantiqiy xatolarga yo'q qo'yilgan; tadqiqoting metodologik xususiyatlari, mohiyati, xulosalari o'rtasida qat'iy korrelyasiya mavjud emas; gipoteza yuqori evristik potensialga ega, konseptual yangilik, nostonart voddashuv bilan tasniflanadi; tajribaviy ishning maqsadi asoslangan, lekin uning dasturi texnologik amaliyatga to'liq mos emas; tadqiqot natijalari va xulosalari yangilik va amaliy tavvsifga ega; tadqiqotning alohida bosqichlari.. jarayonlarining tartibsiz refleksiyasiga ega, lekin metodologik refleksivaning subyektini aks ettirmaydi; variativ intellektual-uslubiy doiraga ega; tadqiqotning yaqqol evristik potensialga egalishi.

Tadqiqotchilik darajasi - tushunish va qo'llash darajasida tizimi; metodologik bilimlar shakllangan, mantiqiy, texnologik, refleksiv qibiliyatlar, alohida metodologik ko'nkmalar shakllangan; tadqiqotning ilmiy va amaliy dolzarbliji asoslangan; kategorial apparati mohiyati tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirilgan, mantiqan to'g'ri; tadqiqotning metodologik xususiyatlari, xulosalari o'rtasida qat'iy korrelyasiya mavjud emas; gipoteza evristik, yangilik, nostonartlik bilan xarakterlanadi, tadqiqot mantiqi metodologik to'g'ri, asoslangan; tajribaviy va eksperimental ishning maqsadga muvoifiqliji asoslangan, uning dasturi texnologiklikka zid emas; tadqiqot natijalari yangilik, amaliy va nazariy ahamiyat bilan xarakterlanadi; alohida bosqichlar, tadqiqot jarayonlarining refleksiyasini amalga oshiradi, lekin metodologik refleksivaning subyekti (tashabbuskori) emas; variativ intellektual-uslubiy repertuar; tadqiqotning yuqori evristik potensialga egaligi.

Integrativ -tushunish va qo'llash darajasida tizimli metodologik bilimlar shakllangan, mantiqiy, texnologik, refleksiv qibiliyatlar alohida metodologik ko'nkmalar shakllangan; tadqiqotning ilmiy va amaliy dolzarbliji asoslangan; kategorial apparati mohiyati va tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirirgan, mantiqan to'g'ri; tadqiqotning metodologik xususiyatlari, xulosalari o'rtasida qat'iy korrelyasiya

mavjud emas; gipoteza evristik, yangilik, nostandardlik bilan xarakterlanadi; tadqiqot mantiqi metodologik to‘g‘ri, asoslangan; tajribaviy yoki eksperimental iishning maqsadga muvofiqligi asoslangan, uning dasturi texnologikkiga zid emas; tadqiqot natijalari yangilik, amaliy va nazariy ahamiyat bilan: xarakterlanadi; alohida bosqichlar, tadqiqot jarayonlarining refleksiyasini amalga oshiradi, lekin metodologik refleksiyaning subyekti (tashabbuskor) emas; variativ intellektual-uslubiy repertuar; tadqiqotning yuqori evristik potensialga egaligi.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyaii deganda nima tushiniladi? 2. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirish darajalariga izoh bering.
3. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirishning beqaror-empirik darajasini sharhlang.
4. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirishning tadqiqotchilik darajasini bayon eting.
5. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirishning evristik darajasini sharhlang.

10-MAVZU: PEDAGOGIK ILMIY-TADQIQOT METODLARINI TASNIFFLASH MUAMMOLARI

10.1. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tushunchasi. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta‘minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bariaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vutasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur choratadbirlami belgilash ilmiy izlanishlami tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Pedagogik izlanishlaming samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omiliarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtida samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlami berishga berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirisl, va bilish usullaridir. Ayni vaqtida, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishli olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumi; aloqasi, ularning izchil, uz-luksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivojlari uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta‘minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta‘minlashdagi o‘rnini roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining shamiyatini e’tirof etadi.

10.2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari tasnifi va tavsifi. Ilmiy tadqiqot metodlari 3 turga bo‘linadi: emperik, emperik va nazariy va nazariy. Emperik tadqiqot metodlari. Emperik tadqiqot metodlarini kuzatish, qiyoslash, hisoblash, o‘lchash va eksperiment kiradi.

Kuzatish deb - rna'lum bir obyektni muntazam ravishda bir maqsad yo'lida o'rganish yoki ochish bilan amalga oshiriladigan bilish metodiga aytildi. Ilmiy kuzatish quyidagi koponentlami o'z ichiga oladi: obyekti tanlash, maqsad qo'yish, uni tavsiflash, xulosa chiqarish. Kuzatishda obyektni o'rganish unga aralashuv�iz amalga oshiriladi, bunda faqat obyektning xossasi, o'zgarishlari kuzatiladi va qayd etiladi. Tadqiqot natijalari bizga real mavjud obyektlarning tabiiy xususiyatlari va munosabatlari xaqida ma'lumot beradi. Bu natijalar subyektning irodasi, seziklari va istaklariga bog'liq boimaydi. Ilmiy kuzatish metodi quyidagi talablarga javob berishi kerak: oldindan ataylab maqsad qo'yish; rejalshtirish; maqsad yo'lida vazifani yo'naltirish, ya'ni obyektning eng ahamiyatlari tomonlarini o'rganish; faoliik, ya'ni ayni kerakli hodisalami izlash; muntazamlilik, ya'ni kuzatishni ma'lum bir tizim bo'yicha olib borish.

Ijtimoiy fandagi kuzatish metodi o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi, chunki bu xolda uning natijasi ko'p miqdorda kuzatuvchining shaxsiga va uning o'rganilayotgan xodisalarga bo'lgan munosabatiga bogiiq. Kuzatish natijalari diagrammalar, sxemalar, jadvallar, bayonnomalar, kino va foto xujjalr sifatida rasmiylashtiriladi.

Qiyoslash metodi bilishning keng tarqalgan metodiga kiradi va "hamma narsa qiyoslanganda bilinadi" tamoyiliga tayanadi. Qiyoslash natijasida bir qancha obyektlar uchun umumiyl bo'lgan va faqat o'ziga xos jixatlar aniqlanadi. Qiyoslash qonuniyatlar va qonunlarni bilishda bir qadamdir.

Qiyoslash unumli bo'lishi uchun ikkita talabga rioxva qilish zarur:

1. Qiyoslash uchun ular o'rtaida muayyan obyektiv umumiyl bo'lgan obyektiargina tanlanishi kerak.

2. Taqqoslash jarayoni eng axamiyati belgilari va xossalari bo'yicha amaiga oshirilishi zarur. Qiyoslash asosida oüngan natijalar "kattaroq, kichikroq yoki teng" degan javoblar bilan xulosa qilinadi.

Xisoblash deb - tor texnik ma'noda berilgan majmua yoki to'plamdag'i bir tipli obyektlar sonini aniqlash jarayoniga aytildi. Hisoblashni amalga oshirish uchun farqni aniqlash, xar bir diskret obyektni ko'ra bilish lozim. Hisoblashning natijalari boiib soniar xisoblanadi. Ular EHM da tahlil qilish uchun asosiy manba bo'lib

sizmat qiladi.

O'lehash deb - ma'lum bir kattalikni o'lchov birligidagi etalonga nisbatan raqam sonidagi qiymatini aniqlashdan iborat bo'lgan fizik jarayonga aytildi. O'lehashda quyidagi komponentlaming bo'lishi talab etiladi: o'lehash obyekti; etalon; oich ov asbobi; O'lehash metodi. Qiyo slashdan farqli o'laroq, o'lehash bilishning ancha aniq vositasi xisoblanadi. Bunda atrof-borliqdagi obyektlar xaqida yugori aniqlikdagi ma'lumot olinadi. O'lehash metodi eksperiment va nazariya orasidagi bevosita bogianishni va ilmiy tadqiqotlarning yugori darajadagi aniqligi va to'g'riligini ta'minlaydi. O'lehash saqidagi fan metrologiya deb ataladi. Hisoblash bilan o'lehash miqdoriy ma'lumot olishning asosiy metodlaridir. Ularning natijalari sondadir. Hisoblash nazariy jixatdan xatolarsiz bo'ladi, ammo, o'lehash bexato boim aydi. O'lehashning aniqlik darajasi ilmiy tadqiqot darajasini belgilaydi.

Eksperiment deb - aniq belgilangan sharoitda ma'lum bir xodisani aniq maqsad yoidi a o 'rganish uchun qo'yilgan tajribaga aytildi. Bunda tadqiqotchiga boiayotgan o 'zgarishlami qadam-baqadam kuzatish, xodisalarga turli vositalar bilan ta'sir ko'rsatish, ularni avvalgi sharoitda takrorlash imkoniyati tug'iladi. Eksperimentda kuzatish, qiyoslash va o'lehash metodlaridan foydalilanadi. Bunda bir yoki bir nechta omillarni boshqalarga ko'rsatgan ta'siri o 'rganiladi. Eksperiment ilmiy jixatdan asoslanishi va uning xatosi aniqlanishi lozim. Metodologik nuqtai nazardan eksperiment ilmiy-tadqiqotni surʼat faoliyatdan faol faoliyatga o'tishini ta'miniyadi. Eksperimentda obyektni o'rganish sharoitini o'zgartirish, uni sof xolda bajarish, qaytarish, xamda soddallashtirilgan, kichiklashtirilgan modellarda o'rganish mumkin. Emperik tadqiqot metodlari farazni dalillash uchun asos bo'iib qolmay, balki yangi iimiyl kashfiyotlar, qonunlar va boshqalarni ochish manbai xisoblanadi.

10.3. Emperik-nazariy tadqiqot metodlari. Ushbu metodlarga tahlil, sintez, induksiya, dedukiya, modellashtirish metodlari kiradi. Tahlil metodida tadqiqot obyekti fikran yoki jisman tarkibiy qismlarga ajratib o'rganiladi. Bunda obyektning ayrim tomonlarining mohiyati ularning bog'liqligi va o'zaro ta'siri asosida o'rganiladi.

Sintez esa - obyektni yaxlit, bir butun sifatida qismlarining birligi va o'zaro bog'liqligi asosida o 'rganadi, Sintez tahlil qilingandan

keyin murakkab tuzimlami o'rganishda qo'llaniladi. Tahlil va sintez bir-biriga bog'liq metodlaridir, ular bir-birini to'ldiradi. Tahlil va sintezning emperik, gumanitar-nazariy va tuzilmali genetik metodlari mayjud. Emperik tahlil va sintez obyektlar bilan yuzaki tanishishga yordam beradi. Bunda obyektning ayrim qismlari ajratiladi, uiaming xususiyatlari aniqlanadi, oddiy o 'lchashlar va umumi yuzasidagi narsalar qayd qilinadi. Bu metod tadqiqot obyektini o'rganishga imkon beradi, lekin, uning mohiyatini oshib berishga kamlik qiladi.

Obyektning mohiyatini o'rganish uchun gumanitar-nazariy tahlil va sintez ishlataladi. Obyektning mohiyatiga chuqurroq kirib borishda esa tuzilmaviy-genetik tahlil va sintez qo'l keladi. Bunda tadqiqot obyekti mohiyatining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy va eng muxim metodlar ajratiladi. Deduksiya va induksiya tadqiqot obyektni o'rganishda va mantiqiy xulosalar chiqarishda o 'ziga xos tahlil va sintez xisoblanadi. Deduksiya umumiydan xususiyga bo'lgan mantiqiy xulosalarga asoslanadi. U matematika va mexanikaning qonunlarini yaratishda qo'llaniladi.

Induksiya deduksiyaga qarama-qarshi bo'lib, mantiqiy xulosalar xususiydan umumiya tomon amalga oshiriladi. Bu ikki metodlar ham bir-biri bilan bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Induksiya taxminiy bilimlar beradi, deduksiya esa, yangi, aniq va to'g'ri bilimlami egallashga zamin yaratadi.

Modellashtirish metodida tadqiqot obyektning asosiy xossalari sun'iy sistema, ya'ni modelda o'rganiladi. Model obyekt bilan ko'p jixatdan o'xhash bo'ladi, ular orasida deyarli farq bo'lmaydi. Modellashtirishning tuzilmasi quyidagichadir: masalaning qo'yilishi; modellashtirishni yaratish va tanlash; modellashtirishni o'rganish; model bo'yicha olingan bilimlami originalga ko'chirish.

Gipotetik metod - gipotezani ishlab chiqishga asoslanadi. U amaliy fanlar uchun asosiy metod xisoblanadi, ilmiy eksperimentda qo'llaniladi. Tarixiy metod - obyektning tug'ilishini, shakllanishi va rivojlanishini xronologik ketma-ketlikda o'rganishga asoslangan. Texnik soxalarda kam qoilaniladi. Ideallashtirish deb - amaliy jihatdan mavjud bo'la olmaydigan obyektlami fikran xayolda qurish jarayoniga aytildi. Uning maqsadi real obyektlarni ularga tegishli bo'lgan xossalardan xayolan maxrum qilish va gipotetik xossalardan bilan to'ldirishdir. Har qanday ideallashtirish faqat ma'lum bir

shegarada amalga oshirilishi mumkin.

10.4. Nazariy tadqiqot metodlari. Nazariy tadqiqot metodlariga umumlashtirish, aksiomatik va abstraksiyalash metodlari kiradi. Umumlashtirish deb umumiy holatni shakllanishi va obyektlar majmuasidagi eng ahamiyatli munosabatlarni aniqlash metodiga aytildi. Umumlashtirish yangi ilmiy tushunchalarni hosil bo'lishi va yangi qonun va nazariyalami shakllanishi uchun vosita hisoblanadi.

Aksiomatik metod - aksiomalarga, ya'ni isbotsiz qabul qilingan muqarrar holatlarga asoslanadi. Unda nazariya, deduksiyadan foydalananilgan holda mantiqiy isbotlar yordamida yaratiladi. Bu ilmiy bilimlarni tashkil etilishi va bir tizimga keltirilishidagi eng istabchan va aniq metoddir. U ko'proq nazariy fanlarni rivojlanishda ishlataladi.

Abstraksiyalash metodi- obyektni ahamiyatsiz xossalardan osoqlashtirib, tadqiqodchini qiziqtiruvchi ba'zi bir tomonlarini ajratib olishga asoslanadi. Abstraksiyalash metodi ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichda e'tiborga olinmasa ham boiadigan omillar aniqlanadi. Ikkinci bosqichda obyektni xossalarga uncha boy bo'limagan soddalashtirilgan model bilan almashtiriladi. Abstraksiyalash metodi sezishdan xayoliy obrazga o'tishdagi bilish jarayonining muhim bosqichidir.

Formatlashtirish - u obyektni biror -bir sun'iy tilning belgisi shaklida tasvirlash orqali o 'rgatishga imkon beradi. Ushbu metod muammoni umumiylashtirishda echish imkonini beradi. Bunda obyektning e'tiborli tomonlari matematik termin va tenglamalar bilan ifodalanadi. Keyin ular bilan qoidalar yordamida amallar hajariлади.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanimoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi,
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.

9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Nazorat savollari:

1. Imiy-tadqiqot metodlari deganda nima tushuniladi?
2. Imiy-tadqiqot metodlarining ahamiyatini tushuntirib bering?
3. Imiy-tadqiqot metodlarini tasniflashga doir qanday yondashuvlar mavjud? 4. Imiy-tadqiqot metodlarining imkoniyatlarini izohlang?

11-MAVZU: ADABIYOTLAR VA ARXIV MATERIALLARINI O'RGANISH, KUZATISH, SUHBAT, BO'ROV, TEST, EKSPERIMENT-EMPERIK TADQIQOT METODLARI SIFATIDA

11.1. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish. Ta'limgarbiya jarayonining tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyati pedagogik ilmiy tadqiqotlaming metodologik asosi, yo'nqonomasidir. Faqatgina pedagogik merosni, ta'limgarbiya faraqiyoti tarixini o'rganish emas, pedagogik ilmiy tadqiqotning barcha yo'nalishlari tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyatiga asoslanadi. Har bir masalaning rivojlanish bosqichlari bo'yicha ilmiy, ommabop adabiyotlami o'rganmasdan tadqiqotni amalga oshirib bo'lmaydi. Adabiyotlarni ilmiy tadqiqot mavzusiga doir uch turkumga bo'lish mumkin. Nazariy metodologik adabiyotlar, ilmiy tadqiqotning dolzarbligi, ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyati, yosh avlodni hayotga, mehnatga, kasbga tayyorlashda ta'limgarbiyaning dayr talabi, mavjud shart-sharoitga mosligi qonuniyati, mamlakat dasturi, milliy g'oya doir adabiyotlarni o'rganishni taqazo etadi. Ukinchi turkum ilmiy manba'lar arxiv xujjalari, fan tarixiga doir adabiyotlardir. Ta'limgarbiya tarixi, madaniyatimiz tarixiga doir adabiyotlarning, o'rganilmagan ko'pgina qismi jahoning kutubxonalarida saqlanmoqda. Lariximizga doir adabiyotlarning aksariyati olib ketilgan, kuydirilgan, tarixga doir kitob saqlagan sonadonlar qataq'on qilingani ma'lum.

Masalan, Meksikalik olimlar Nasafiy, Kasbaviyarlarning ilmiy merosi mavjudligi, qadimgi Kasbi (bugungi kunda Kasbi qishlog'i) o'mida ulkan shahar, sakkizta madrasa bo'lgani haqida ommaviy asborotda ma'lumot berdilar. Qolaversa 2014-yil 15-maydag'i hamorqandda o'tkazilgan xalqaro konferensiya tarixiy manba'lar yetori o'rganilmagani e'tirof etildi. Tarixiy adabiyotlarni, manba'larni milliy g'oya tamoyillari asosida pedagogik ilmiy qabili qilish tadqiqot metodidir. Shuningdek, pedagogik amaliyot bo'lgan tajribalarini o'rganish bo'yicha tadqiqot mavzusiga doir muktabrlarning ta'limgarbiya faoliyati haqidagi arxiv hujjatlami o'rganish ilmiy tadqiqot metodlaridan biri. Ta'limgarbiyaning faoliyati haqidagi hujjatlardan mavjud qiyosiy natijalar haqida ilmiy

xulosalar chiqariladi.

Uchinchi turkum adabiyotlar: mavzuga doir ilmiy kitoblar, dissertatsiyalar, dissertatsiya avtoreferatlari, ilmiy to'plamlardagi maqola va tezislar, jumallar, ilmiy axborotnomalardir. Bugungi globallashuv sharoitida intemetda aksariyat adabiyotlar bo'yicha axborotlar berib borilmoqda. Adabiyotlarni o'rganish va undan samarali xuiasalar chiqarish ilmiy tadqiqotchidan izchil izlanishni talab etadi. Dastlab adabiyotlar ro'yxati tuziladi, asosiy nazariy manbaalar aniqlanadi. Adabiyotlarni o'rganish bo'yicha konsept, tezis, annotatsiya tuziladi. Maqsadga muvofiq sitatalar yozib olinadi. Sitatalar olganda adabiyotlarning aynan muallifning nomi, nashriyoti, necha sahifaligi va qaysi bobdan olingani ko'rsatiladi. Agar internetdan olingen bo'lsa, manba' va uning sayti aniqlanadi. Demak, adabiyotlar va arxiv xujjatlarining manbalarini maqsadli o'rganish ilmiy pedagogik tadqiqotning samaradorlik shartidir.

Konsektlarni tuzish - materiallarni o'rganishning yagona usulidir. Ammo katta ahamiyatga ega bo'lgan konsept turlari ham mavjud. Bu kitob materialining haqiqiy konseptidir. Ular tadqiqotchiga sitatalardan ko'ra ko'proq foyda beradi.

Konsektlashtirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

Qoida (tezis) - muallif tomonidan isbotlanadigan yoki inkor etiladigan asosiy fikrlar, g'oya va qonunlaming majmuidir. Qoidalar ichida haqiqiy materiallar boishi shart emas, lekin har bir qoidadan so'ng varoqning pastki chet qismida kitobda keltirilayotgan omillarning qisqa ro'yxati bo'lishi zarur.

Chizma (model) - minimal darajada ishlataligan so'zlar vositasida berilgan muallifning fikri, g'oyalari tasnifi va isbotidir.

Lug'at - mazkur kitobdagi atama va tushunchalardir. Qoida hamda sxemalardan farqli ravishda terminlaming lug'atini kitobni o'qib bo'lgandan so'ng emas, o'qish mobaynida tuzish kerak, chunki ular materialni o'zlashtirishda foydalanishga kerak bo'ladi. Barcha yangi so'zlar, terminlar, tushunchalar yozilgan bunday lug'at o'qish mobaynida xato qilishdan hamda to'xtalishlardan saqlaydi.

Jadval va diagrammalar - raqamlami tahlil qilishda o'rmini bosib bo'lmaydigan qoilanma hisoblanib, mazkur kitob materiallari asosida tuzilgan boidi, shu bilan birga ular muallif tomonidan keltirilgan turli ma'lumotlarni eslab qolish imkonini oshiradi.

Iqtiboslar - shaxsiy ish, maqola, dokladlarni tuzishda boshqa yozish turlaridan farqli oiaroq maiumotnomha hamda bibliografik material sifatiga ega boigan tushunchadir. Iqtiboslami aniq, to'liq, qo'shimmaq ichiga olib yozish kerak, shuningdek kitobning muallifi, qaysi bo'lim, nashriyotnomha, kitob chiqqan joyi, yili hamda betlari kiritishli zarur.

1.1. Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim inssassalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida ishlip etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlucksiz, ishlip va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'iga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya usulini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni ishlip etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir.

Duning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) Kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) Kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) Kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) Har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) Isulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Pedagogik tadqiqotning asosiy yo'llari, usullaridan biri kuzatish metodidir. Kuzatish ilmiy tadqiqot metodi aniq maqsadga qaratilgan, reja asosida pedagogik voqeylekni, jarayonni mohiyatini, quoniyyatlarini aniqlash yo'llari, usullaridir. Oddiy kuzatishdan ilmiy tadqiqot kuzatishi quyidagi xususitlari bilan farq qiladi.

1) Ilmiy kuzatish aniq maqsadga qaratilgan ma'lum g'oya, ilmiy faraz asosida tashkil etiladi. Masalan, u yoki bu ijtimoiy gorobda masfuraviy immunitetni shakllanganlik holatini aniqlash, ikazilgan tajriba natijalarini baholash, tarbiyaviy tadbirlami ta'sir quoniyyatlarini aniqlash, ilmiy faraz isbotini aniqlash bo'lishi mumkin.

2) Ilmiy kuzatishni reja asosida tizimli tashkil etilishi. Tadqiqotchi qo'shimmaq maqsadi bo'yicha kuzatish dasturini tuzadi, vaqtini belgilaydi, kuzatish vositalarini aniqlaydi, natjalarni umumlashtiradi. Kuzatish

metodidan samarali foydalanish uchun tadqiqotchi amaliy faraz, dalil mezoni va olinadigan natija bir biriga mosligiga e'tibor berishi zarur.

3. Obyektivlik ilmiy kuzatish metodining asosiy tamoyilidir. Voqelik hodisalarini bor holatini yozib borish, texnika vositalari magnitafon, ko'rsatuv vositalaridan foydalanish takroran kuzatish imkonini beradi. Ilmiy kuzatishning o'ziga xos xususiyati tabiiy muayan pedagogik jarayonni xolisona tahlil etishda. Chunki, pedagogik kuzatishni tashkil etishda subyektiv holatlar uchrashi mumkin. Subyektivlikka, pedagogik voqe'likni hohish istak asosida tahlil etish, xulosani ilmiy qimmatini tushiradi. Fanda kuzatish metodining bir necha usullari mavjud. Pedagogik ilmiy tadqiqotda kuzatish obyekti uzuksiz ta'lif-tarbiya jarayoni, yoshlar, pedagoglar, ota onalar faoliyati, muayyan pedagogik vaziyatlardir.

Masalan, kuzatish obyektining mavjud vaziyatda holati:

- vaziyatdagi holatning asosiy sababi psixik voqe'lik;
- kuzatish obyektining jamoada tutgan o'rni, jamoaga munosabati;
- so'z va amaliy faoliyatning bog'liqligi;
- ma'naviy-axloqiy, estetik, emotsiyonal darajasi;
- nutqi, mimikasi, o 'zini tutish xususiyati, ulami boshqa vaziyatdagi holati kabilar hisobga olinadi.

Kuzatishda mavjud holat, voqe'lik tezda yozib borilishi shart, ayrim qirralari, dalillar vaqtida yozib borilmasa yoddan ko'tarilishi mumkin. Avvalo, ilmiy pedagogik kuzatishda o'rganayotgan obyektning qo'yilgan maqsad bo'yicha mavjud sharoitda ichki holati, faoliyati; ikkinchidan, ichki va tashqi holatining uyg'unligi, faoliyatda namoyon bo'lishi;

Uchinchidan, faoliyatni izchilligi, uzviyiigi holati aniqlanadi. Ilmiy kuzatish bevosita va bilvosita tashkil etilishi mumkin. Bevosita kuzatishda ilmiy izlanuvchi o'zi amalga oshiradi, har xil vaziyatda izchil kuzatish natijasini yozib boradi. Bilvosita ilmiy tadqiqotda yordamchilaming qatnashishi, mutaxassislar ishtiropi ularni tadqiqot maqsadini xabardorligi muhimdir. Tadqiqotda hamkasblar, talabalar, mактабдан ташқари та'lim muassasasi xodimlari qatnashishi mumkin. Shuningdek, o'z-o'zini kuzatish, yuqori sinf o'quvchilar o'rtamaxsus ta'lim, oliy o'quv yurti talabalari orqali tadqiqot maqsadiga ko'ra amalga oshiriladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqot faraziga ko'ra ilmiy kuzatish ochiq va yopiq shaklda olib borilishi mumkin. Ko'pgina hollarda ochiq kuzatishda tadqiqot maqsadi aniqlanganda tashqi kuzatishda obyektiy holat o'zgarishi mumkin. Pedagogik ilmiy kuzatish qisqa va uzoq muddatli boishi mumkin. Qisqa muddatli ma'lum soatda, shaklarda o'tkazilishi mumkin, tadqiqot maqsadida tezkorlik, ayrim holatlarda qo'llaniladi. Uzoq muddatli ilmiy kuzatish bir necha yilgacha bo'lish, ijtimoiy munosabatlar rivojini aniqlashda, kompleks muammolarni aniqlashda qoilaniladi. Bunday kuzatishni rivojlikning sababini aniqlash, prognozlash, O'zlashtirishni rivojishlari masalalarida qoilaniladi. Ilmiy kuzatish metodi eng ko'p ipotomilidigan va murakkab metoddir. Shuning uchun o'tkazishga shaklida tayyorgarlik ko'rish, iloji boricha oldindan mashq qilib ma'boz ko'nigmaga ega boiish zarur. Ya'ni, aniq reja asosida tashkil etish, konsepsiya, ilmiy faraz, tadqiqotchining fikriy tarjumiysi o'qituvchi va o'quvchilar munosabati hisobga olinadi. Kuzatish jarayonida dalil aniq qayt etilishi, ishtiropchilar va vaqtin qo'shatilishi shart. Kuzatish natijalarini tahlil etish, qiyoslash, umontashirish tadqiqotchiga aniq xulosa qilish imkoniyatini beradi.

II. A. Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida suhbatning ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shartsharoitlami yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli harada umonashirish shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatları to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir.

Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadiga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savolning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi manziliylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtiropchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega kelish;

- 5) suhbatdosh bilan samimi y munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollaming aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlami o 'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamda pedago-gik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

O'rganiyotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollarini quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollarini tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollarini yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) anketa savollarini o'quvchilaming dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savoliari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilaming pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Anketa metodi ijtimoiy so'rov shaklida sotsiologiya, psihologiyada ham qo'llaniladi. Pedagogik tadqiqotda ta'lim-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish tamoyillarini, yo'llarini, shakllarini ishlab chiqishda anketa-so'rov metodi muhim o'rinn tutadi. Pedagogik faoliyatni o'rganish bo'yicha 1899-yilda ilg'or mamlakatlarda 600 o'qituvchi, 1911-yilda 14 ming o'qituvchida so'rovnoma o'tkazilgani ushbu metodning tarixiyligidan

daholat beradi. Anketa (fransuzcha surishtirish, tergov) ma'lumotlar uchun to'ldirilgan varaqa pedagogik ilmiy tadqiqotning muhim metodlaridan biridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotning dastlab ishchi o'miy farazi, rejasi tuzilgandan keyin anketa so'rovnoma ishlab chiqiladi. So'rovnomada avvalo, axborot olishdan boshlanadi, keyin anketa tuziladi.

"Iner'vyu" inglizcha uchrashuv, ikkinchi ma'noda: xabar intervyyu va mulohazali intervyyu bir yoki bir necha shaxs bilan muhim masala yuzasidan suhbat. Demak, anketa so'rovnomada avvalo tadqiqot obyekti bilan mulohaza, suhbat o'tkazish o'rganiyotgan muammoga shaxsi yoki ijtimoiy guruhni munosabatini aniqlash mumkin. Suhbatlar umumi shaklda ham tashkil etilishi, qisqa va batafsil suhbat orqali ijtimoiy guruh yoki shaxsning holati aniqlanadi. Delgilangan mavzuda suhbatda maqsadga muvofiq mulohaza yoritish, tadqiqot obyektni hamkorlikka yo'naltirish mumkin. Shuni shiborga olish lozimki, suhbatda ham anketada ham savollar, ochiq, yopiq, yarim ochiq ma'noda mazmunda bo'ladi. Anketa metodini qillashda mavjud sharoitda uning qulayligi, imkoniyati hisobga olindi. Muammoning o'rganiyligini darajasini aniqlash izlanuvchiga o'si tadqiqot yo'nalishini belgilashda anketa metodi samarali bo'ladi. Ya ni, tadqiqot muammosiga doir maqsad, vazifalar bo'yicha anketalaming aniqligi, muhim qirralami qamrab olgani ilmiy izlanish natijasini kafolatlaydi. Anketa savollarini tuzishda tadqiqotchidan metodologik madaniyat talab etiladi. Savollarni mantiqan pedagogik qoidalarga, mavjud shart - sharoitga, o'rganiyotgan muammoga, o'miy farazga inosligi; savollarda qisqa mantiq qoidalaringin hisobga o'singanligi; savollarni hamma uchun tushunarli bo'lishi; savollarga javoblar ifodalanganligi; ochiq savollarda javob beruvchi fikrini o'si ifodalashga yo'naltirilganlik; yopiq savollarga alternativ "ha" "yo'q" javoblarida muammoning asosiy mohiyatini ifodalanishi fabilar. O'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan anketa so'rovnomada savollar soni 8,10 tadan oshmasligi, o'rta maxsus va kasb-xunar ta'limi talabalari uchun mustaqil fikrni ifodalashga yo'llaydigan savollar bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan anketa so'rovnomada avvalo 5,6 nafar o'quvchida o'tkazib sinash mumkin. Agar 6-ninf o'quvchilarida o'tkazilgan anketa savollariga javoblar qiyinlik qilsa tadqiqotchi o'zjavobi shaklini tavsiya qilishi mumkin.

Masalan:

1. Sizning fikringizcha haqiqiy do'stlik nimada? Ikkita eng muhim fazilatning ostiga chizing. Do'stona hamkorlik, og'ir sharoitda o'rtog'ini qo'llash. Bir birini tushunish, hamfikrlilik. Ishonch va ochiq ko'ngillik. Haqiqatni o'rtoq'iga ochiq ayta olish, talabchanlik. Sadoqat va oljanoblik.

2. Sizning sinfingiz o'quvchilar o'rtaida do'stlikka nima to'siqlik qildi? Eng muhim illatlar ostiga uch chiziq, ikkinchi darajaliga ikki chiziq, uchinchi darajali illatga bir chiziq qo'ying.

- hasad raqobat, o'zini ustun qo'yishga intilish;
- aldash, yolg'onchilik, bir biriga ishonmaslik;
- faqat o'zi haqida o'yash;
- bir-birimizni yaxshi bilmaymiz;
- umumiy maqsadimiz yo'q.

Anketa metodi tajriba-sinov ishlarni tashkil etishda yordamchi vosita hisoblanadi. Dastlabki anketa so'rovnoma muammoni obyektiv holatini aniqlash imkoniyati yaratilsa, eksperimentdan keyin o'tkaziladigan anketa so'rovnoma tajriba natijalarini baholashga sharoit yaratiladi.

Anketa so'rovnoama tuzishga qo'yiladigan talablar:

1. Avvalo tadqiqot obyekti, predmeti o'rganayotgan jarayon tarkibini, mezonini aniqlash, kuzatish orqali erishiladigan daraja; maxsus tashkil etiladigan vaziyatda voqelik; anketa so'rovnomanan kutilgan natija. Anketa so'rovnoma jalb etiladiganlar miqdori, soni, ijtimoiy holati jinsi, yoshi, ma'lumoti, moddiy ta'minoti, yashaydigan manzii: shahar, qishloq, ko'cha va hokzo ko'rsatilishi, anketa o'tkazishga sarf qilinadigan vaqt belgilanishi lozim. Shuningdek, anketa o'tkazish vositalari, jihoz, sharoiti, holati, tipik oila, bola, shaxs turmush tarzi hisobga olinishi;

2. Anketa tadqiqot mazmuni, tarkibi bilan bog'liqligi, savollarga obyektiv javob olish, masalan, Seni matematika darsiga munosabating? Masalasi "Sevgan faningni ayt?", "Sening sevimli o'qituvching?", "Seni sevgan mashg'uloting? savollarida tekshirib ko'rish mumkin. Ma'lumot olish metodikasini yaratish, qanday sharoitda anketa o'tkaziladi, ma'umotlar qanday olinadi kabilar.

3. Anketa tuzishda javoblarni matematik tahlil qilish, umumlashtirish, matematik statistika va sotsiometriyaga mosligiga erishish;

obyektiv javob olish uchun so'rovnomalar o'tkazilayotganlar shaxsiga hurmat ifodasi "Sizdan iltimos", "Marhamat javob bering", "Sizning fikringiz qanday" va hokzo iltifotli, samimiyl murojat aks etishi maqsadga muvofiq. Savollar hammaga tushunarli bo'lishi, savollarda mantiqiy izchillik, savollarni so'rovnoma o'tkaziluvchilar to'xtat nafsiya tegmaslik kabilar.

4. Anketa oldindan tayyorlanishi, ko'p nusxada chop etilishi yoki doskada yozilishi.

5. Anketa so'rovnoma qancha ko'p jalb qilinsa shuncha ishonchli javob olish mumkin. Faqat tipik sotsial xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

6. Anketa tashkil etishda so'rovnoma o'tkazilayotganlar qidyi munosabati, qiziqishi, kutilayotgan javob mohiyati aniqligi. O'quvchilar o'rtaida o'tkazilayotgan anketa savollarga javob variantlari ko'rsatilishi mumkin. Anketa metodi pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari bilan uzviy bogiiq, bir-birini to'ldiradi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini aniqlashga, istiqbolini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammo-ning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirili-shini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingen savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini ushirdi.

11.4. Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.

Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollilik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'vilgan kamchiliklami aniqlash, ilg'or tajribalarni ummalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik taj-ribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining javvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarining shaxsli varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi

bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejası, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassa-sasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazo-lar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo'naliishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

11.5. Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar). Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalami turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq-dir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi, Biroq, metod ayrim kamchi-likdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas. Test metodi pedagogik tadqiqotda sotsiometrik va kvalametrik metodlar biian b ogiiq biri ikkinchisini toldiradi. Sotsiometriya (yunoncha ijtimoiy oich ov) ijtimoiy darajaning o'chovi, mezon ma'nosida ishlatiladi.

Pedagogik tadqiqotda o'quvchi va o'qituvchi oilada o'zaro munosabatlarni barkamol shaxsni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashda mavjud holatni, tajriba natijalarini aniqlashda test

metodidan foydalilanadi. Sotsiometriya pedagogik ilmiy tadqiqot metodida munosabatlarni baholash orqali pedagogik, psihologik qonuniyatlar yoki qonuniyatlarni buzilishi, ilg'or tajribalar aniqlanadi. Sotsiometriyada anketa metodi va test metodidan foydalilanadi. Buni o'ziga xosligi ijtimoiy munosabatlarning mohiyati, mazmuni, mezon, ijtimoiy, iqtisodiy qonun, qoidalar bilan beigilanadi. Jamiatni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va pedagogikalashtirish birbiri bilan bog'liqidir. Sotsiometriya pedagogik ilmiy tadqiqot metodi avvalo, ijtimoiy qonunlar va "inson, insoniylik, insoniyat" uchlik uyg'unligi asosida tashkil etiladi. Test metodi kvalametrik pedagogik ilmiy tadqiqot metodi bilan bog'liq. Ma'lumki, kasb tarbiyasi, kasbshunoslik, professiogramma pedagogikaning asosiy predmetidir.

Kvalametriya (kvala - "mutaxassislik" metriya - "o'chov") kasbga layoqat, kasb fazilatlari, mahorat mezonini o'chash, baholashdir. Kasbshunoslik muammolarining tadqiqotda kvalametrik testlardan foydalilanadi Buning uchun tadqiqot muammosi bo'yicha mezon aniqlanadi, tajriba natijalarini aniqlashda kvalametrik testlar qo'llanilishi samaradorlik omilidir. Ta'lim-tarbiya jarayonini testlashtirish, uzlusiz ta'lim, mutaxassislar tayyorlash, ularning kasbiy malakasini baholashda testlardan foydalinish keng emmalashgan. Pedagogik ilmiy tadqiqotda test metodini qo'llash o'ziga xos xususiyatga ega.

11.6. Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jaravonida ushu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'naliishlarda o'rganilganlik darajasini aniq-lashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihat-dan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilaming muayyan yo'naliish-lardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan soha-lari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maasadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilaming ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xiz-mat qiladi. Metodning afzailigi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bolgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlari;
- 3) mакtab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlaming maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydal aniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Eksperimental tadqiqotlar yangi ilmiy bilimlar olishning asosiy usullaridan biridir. Eksperiment o'tkazishdan bosh maqsad nazariy qoidalami tekshirish ya'ni ishechi gipotezani tasdiqlash hamda ilmiy tadqiqot mavzusini yanada kengroq va chuqurroq o'rganishdir. Eksperimentlar tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy eksperimentlar ishlab chiqarish, turmush va h.k.larda ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Sun'iy eksperimentlar esa texnika va boshqa fanlarda keng qo'llaniladi. O'rganilayotgan obyekt yoki jarayon modelining xususiyatiga, eksperimentlami tanlash va o'tkazishga bogiiq holda ular laboratoriya va ishlab chiqarish turiga bo'linadi. Laboratoriya eksperimentlari maxsus modellashtiruvchi qurilma va stendlarda namunaviy asboblar va tegishli apparatlar yordamida o'tkaziladi. Ular xarajatni kam qilgan holda qimmatli ilmiy axborotni olish imkonini beradi. Arnmo, eksperimental tadqiqotlaming bunday turi hamma vaqt ham jarayon yoki obyekt haqidagi ma'lumotlami to'liq aks ettira olmaydi. Ishlab chiqarish eksperimentlari atrof muhitdagi turli tasodifiy omillarni hisobga oigan holda, mavjud sharoitlarda o'tkaziladi. Ular laboratoriya eksperimentlariga qaraganda murakkab boiib, tajribalar naturalarda (real jarayon yoki obyektlarda) olib borilganligi uchun

najmador hisoblanadi, shu sababdan o'tkazishdan aw al puxta fikrlash va rejalashtirishni talab etadi. Ekspluatatsiya qilinadigan obyektning turli dala sinovlari ham ishlab chiqarish eksperimentlariga kiradi. Tegishli metodika va shakl bo'yicha tashkilotlar, muassasalar yoki korxonalardan tadqiq ettiayotgan u yoki bu masaia bo'yicha materiallar to'plash ham ishlab chiqarish eksperimentlarining burturi hisoblanadi. Eksperi mental tadqiqotlami samarali o'kaziyy uchun eksperiment metodologiyasi ishlab chiqiladi. U quyidagi asosiy hisqichlarni o'z ichiga oladi: eksperimentni reja-dasturini ishlab chiqish; o'lechamlarni baholash va eksperiment o'tkazish vositalarini tanlash; eksperimentni o'tkazish; eksperiment natijasida olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

11.7. Eksperimentning reja dasturi. Eksperimentning reja-dasturi eksperimental tadqiqotlarning metodologik asosidir. Reja-dastur quyidagilami o'z ichiga oladi: tadqiqot mavzularining ro'yxati va ishchi gipotezaning mazmuni; eksperiment metodikasi va uni bajarish uchun zarur materiallar, asboblar, qurilmalar va h.k.lar ro'yxati; bajaruvchilar ro'yxati va ularning kalendar ish rejasi; eksperimentni bajarish uchun xarajatlar ro'yxati. Eksperiment metodikasi deb metodlar, eksperimental tadqiqotlami maqsadga muvofiq bajarish usullarining majmuiga aytildi. Umumiylar tarzda u o'z ichiga quyidagilami oladi: eksperimentning maqsad va vazifasini; omillarni tanlash va ularning o'zgarish darajasini; vositalar va o'lechashlar intervalini asoslashni; eksperimentning mohiyati va taribining bayonini; eksperiment natijalarini ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslashni.

Eksperimentning maqsad va vazifasi ishchi gipoteza va tegishli nazariy ishlanmani tahlil qilish asosida aniqlanadi. Vazifa aniq bo'lishi, ularning soni uncha ko'p boim asligi lozim: oddiy eksperiment uchun 1-2 ta, majmuaviy eksperiment uchun esa - 8-10 ta. O'rganilayotgan jarayon yoki obyektga ta'sir etuvchi omillarni tanlash qabul qilingan ishchi gipotezaga muvofiq nazariy ishlanmalarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Barcha omillar mazkur eksperiment uchun avval muhimlik darajasiga ko'ra saralanadi, so'ngra ulardan asosiyalarini va yordamchilari ajratiladi. Omillar soni uncha ko'p bo'lganda (3 daacha) ularning muhimlik darajasi bir omilli eksperiment bo'yicha aniqlanadi (bitta omil qolganlar muhim bo'lganda o'zgaradi). Agar

omillar soni katta bolsa, yuqorida ko'rib o'tilganidek, ko'p omillik tahlil qo'llaniladi. O'lhash vositalari eksperimentning maqsad va vazifasidan, o'lchanadigan parametrlar tavsifi va talab etilayotgan aniqlikdan kelib chiqib tanlanadi. Qoidaga ko'ra, tajribalarda mamlakatimizda va chet ellarda yalpi ishlab chiqariladigan standart o'lhash vositalaridan foydalaniadi. Ayrim hollarda, kamyob o'lchov asboblari va apparatlari qo'l bola tarzda bunyod etiladi. Eksperimentni o'tkazishning mazmun va tartibi - metodikaning markaziy qismi hisoblanadi. Unda eksperiment o'tkazish jarayoni to'la loyihalashtiriladi: kuzatish va o'lhash operatsiyalarini amatga oshirishning ketmasetligi tuziladi; eksperiment o'tkazishning tanlangan vositalarini hisobga oigan holda har bir operatsiya ayrim-ayrim holda mufassal tavsiflanadi. operatsiyalarning sifatini nazorat qilishda qo'llanadigan usullar tavsiflanadi; kuzatish va o'lhash natijalarini yozish uchun daftar tutiladi.

Eksperimental ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslash metodikani muhim bo'limi hisoblanadi. Eksperiment natijalari namoyish etishning ko'rgazmali shakliga keltirilishi lozim, ya'ni jadvallar, grafik, nomogrammalar va h.k. tarzida, toki ulami qiyoslash va tahlil qilish mumkin bo'lsin. Bunda alohidagi e'tibor natijalarni ishlab chiqishning matematik usullariga ya'ni empirik bog'liqlik, omillar va chiqish parametrlari o'rtaсидаги aloqa approksimatsiyasi, mezonlar, ishonchli intervallar o'rnatish va boshqalarga qaratiladi. Eksperimentning metodikasi ishlab chiqilgandan so'ng, eksperimental tadqiqotning hajmi va mehnat talabliligi aniklanadi. Ular nazariy ishlanmalaming chuqurligi va qabul qilingan o'lhash vositalarining tavsifiy ko'rsatkichlariga ya'ni aniqlik darjasasi, ishonchliligi, tezkorligi, harakatlanishi va h.k. ga bogiiq. Tadqiqotning nazariy qismi qanchalik aniq ifodalangan bo'lsa, eksperimentning hajmi va mehnat talabliligi shuncha kam boiadi.

Eksperimentni o'tkazish - ilmiy tadqiqotning eng muhim va ancha mehnat talab etadigan bosqichidir. Eksperimentlar tasdiqlangan reja-dastur va eksperiment metodikasiga muvofiq o'tkaziladi. Tadqiqotchi eksperimentga kirishar ekan, sinovlami o'tkazish metodikasi va ketma-ketligini tuga! aniqlashi lozim. Eksperimentai tadqiqotlar o'tkazish jarayonida quyidagi bir qator asosiy qoidalarga

rioya qitish lozim: eksperimentator o'lhash natijalariga subyektiv ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymay, tadqiq etilayotgan jarayon yoki obyekt parametrining barcha tavsifini vijdoran qayd etishi lozim; eksperimentator ehtiyoitsizlikka yo'l qo'yishi murnkin emas, chunki bu hoi ko'pincha katta xatoliklarga va natijalarni xostalashtirishga, oqibatda esa, eksperimentlarni takrorlashga olib keladi; eksperimentator aibatta kuzatish va o'lhash daftarini yuritishi kerak, uni tartibli va hech qanday tuzatishlarsiz to'ldirib borish lozim; eksperiment jarayonida uni bajaruvchi o'lhash vositalari ishini, ular to'g'ri ko'rsatayotganligini va qurilma, jihoz, stend va h.k.lar ishining barqarorligini hamda atrof muhit holatini muntazam kuzatishi, ish zonasiga begonalami kiritmasligi shart. eksperimentator o'lchov vositalarini, ular to'g'riligini nazorat qilgan holda ishchi nazoratni muntazam o'tkazishi kerak; o'lhashlarni o'tkazish bilan bir vaqtida tajribani bajaruvchi olingen natjalarni muntazam ravishda dastlabki ishlab chiqish va tahlil qilishdan o'tkazishi lozim. Bu tadqiq etilayotgan jarayonni nazorat qilish, eksperimentni to'g'rilash, metodikani yaxshilash va eksperiment amaradorligini oshirishga imkon beradi; eksperimentator texnika sayfizligi, sanoat sanitariysi va yong'inni oldini olish bo'yicha tijonomalarning talablariga amal qilishi lozim.

Eksperiment hodisalarini o'rganishda fanning muayyan maqsadga yonaltirilgan uslubi bo'lib, bu uslub yordamida hodisalar sodir bo'lishi aniq qayd etilgan sharoitlarda tadqiqotchi tomonidan qayta hosil qilinishi va nazorat qilinishi mumkin. Eksperimentni kuzatishga nisbatan bir qator afzalliklari bor. Ilmiy tadqiqot umumiyligi strukturasiда eksperirnet alohida o'rin tutadi. Bir tomondan aynan eksperiment ilmiy tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlari hamda darajalarini bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi. O'z mazmuniga ko'ra, eksperiment doimo dastlabki nazariy bilimlar bilan bog'langan bo'lib, u bir-biriga mos bo'lgan nazariy bilimlar asosida fikr yuritadi. Ko'pincha ilmiy nazariya va farazni asoslab berish yoki inkor etish umming maqsadi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik eksperiment ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, metodi, vositalarini takomillashga qaratilgan har xil optimal shart-sharoitni aniqlash kompleks usullaridir.

Eksperimentning quyidagi umumiyligi turlari mavjud:

- tadqiqot eksperimenti;
- tekshiruvchi yoki nazorat eksperimenti;
- qayta hosii qiluvchi;
- miqdoriy yoki sifatiy;
- tabiiy yoki ijtimoiy eksperiment.

Tadqiqot eksperimenti fanda ma'lum bo'lmagan yangi hodisa yoki ularning yangi kutilmagan xossalari aniqlashga yo'naltirilgan. Tekshiruvchi nazorat eksperimenti tadqiqot obyekti yoki faraz hisoblanadi. Nazariy farazlarga nisbatan eksperiment tasdiqlash yoki rad etishi mumkin. Eksperimentning o'ziga xos turi fikriy eksperimentdir. Real eksperimentda oiim ma'lum hodisani qayta hosil qilish, ajratish yoki xossalami o'rganish uchun uni turlicha real sharoitlarga qo'yib ko'radi. Fikriy eksperimentda bu sharoitlar tasavvur qilinadigan holatlar bo'lib hisoblanadi, lekin tasawur bunda yaxshi ma'lum bo'lgan fan qonunlari va mantiq qoidalari bilan boshqariladi, bunday holda olim hissiy obrazlar yoki nazariy modellar yodamida ishlaydi. Pedagogik tadqiqotda fikriy eksperiment imkoniyatlari va usullari prof. D.Shodievning tadqiqotlarida ilmiy asoslangan. Eksperimental tadqiqot bir necha bosqichlardan iborat. Birinchi bosqich eksperimentni rejalashtirishdir. Eksperimentni o'ziga xos xususiyatlari, prinsiplari asosida mukammal rejalashtirish tadqiqot samaradorligini ta'minlaydi. Unda faraz etakchi g'oya amalga oshirish tizimi kutilayotgan yakuniy natija aniq bo'lishi. Shuningdek, pedagogik qonuniyatlar mavzuning nazariysi, metodologik tamoyillar eksperimentining mohiyatini ifodalaydi. Ya'ni, pedagogik eksperimentni rejalashtirishda muammoning ifodalanishi muhim ahamiyatga ega.

Masalan, tarbiya muammosi bo'yicha eksperiment uzoq vaqt ni talab etadi. Rejalashtirishda eksperimental va nazorat guruhini tanlash, ulami qiyoslash imkoniyati, o'tgan davr bilan qiyoslash shart-sharoit hisobga olinadi. Misol uchun pedagogik tadqiqotda natija aniq lekin, uning shart-sharoiti, omili aniq emas. U holda pedagogik eksperiment muammoning sababini ichki qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Pedagogik tadqiqotda tabiiy va laboratoriya eksperimenti o'ziga xos xususiyatga ega. Tabiiy eksperiment ta'lim tarbiyaning mavjud sharoitdagi holatini tahlil qilish, bir necha guruhlami tajribasini umumlashtirish, xulosa chiqarish usulidir.

Ilmiy farazni asoslanishi (yoki asoslanmasligi) tabiiy eksperiment asosida ham ma'lum natijaga erishiladi. Bu tadqiqotchiga farazni asoslashda aniq qonuniyatlar, tayyor natijalarni beradi. Tabiiy eksperimentda ilmiy faraz asoslanmasa, bir necha variantda nazorat va eksperiment guruhida tajriba o'tkaziladi. Pedagogik nazariyani rivojlantirishda psixologik, pedagogik laboratoriya eksperimentidan ham foydalaniлади. Laboratoriya eksperimenti alohida shaxsda ham, ijtimoiy guruhda ham o'tkaziladi.

Masalan, Kadrlar tayyorlash Miliy dasturi asosida ta'lim standartlarini ishlab chiqish bo'yicha mamlakatimizni turli mintaqalarida eksperimental maydonchalar tashkil etildi. Ta'lim mazmunini uzlusiz takomillashtirish bo'yicha joylarda eksperiment guruhlar, eksperiment maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Innovatsion pedagogik ioyihalar eksperiment asosida isbotlangani, uning nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi. Masalan, laboratoriya metodi orqali ranglarga shaxsnинг ta'sirlanishi uning harakterini, didini, qiziqishini aniqlashda muhim vosita bo'ladi. Eksperiment natijalari mantiqiy va nazariy kategoriylar, tushunchalar bilan ifodalanadi. Shuningdek, natijalar sifat va son, miqdor bilan ko'rsatiladi, umumlashtiriladi, yaratigan yangi g'oyalari, vogelik o'ziga xos atamalar bilan atalishi mumkin. Fanda bunday misollar ko'plab uchrashi mumkin. Pedagogik eksperimentda tayanch g'oya ilmiy tadqiqot samaradorligini ta'minlaydi. Masalan, ijtimoiy gumanitar fanlarni, jumladan, pedagogika va psixologiyaning o'zaro bog'liqligini insonshunoslik ipomoniyi tamoyili asosida o'rganish ilmiy tadqiqot tizimliligini ta'minlaydi. Yoki barkamol shaxs modeli asosida pedagogik tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini o'rganish eksperimenti aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Pedagogikaning nazariy va amaliy rivojlanishida ilg'or pedagogik tajribalar alohida o'rin tutadi. Tajribalami ilmiy o'rganish o'ziga xos metodik xususiyatga ega. Ilmiy bilishda amaliyot: asosiy omil, harakatlantiruvchi kuch, xaqiqat mezon'i va bilish maqsadidir. Pedagogik tajriba keng ma'noda ta'lim-tarbiya amaliyoti, tor ma'noda pedagoglarning innovatsion faoliyati. Ilg'or pedagogik tajriba pedagogika nazariyasiga doir ta'lim-tarbiya borasidagi samarali metodlar, vositalar texnologiyalarda ifodalanadi. Pedagogik jarayon ijodiy jarayon, malakali, tashabbuskor, o'qituvchi, murabbiylar tajribalari, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish

faoliyatidir. Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish uzlusiz ta'lim pedagoglarining ijodkorligiga sharoit yaratadi. Shuningdek, mamlakat miyosida o'tkazijayotgan olimpiada, yil o'qituvchisi tanlovlari ommaviy ijodkorlikni rag'batlantirishga imkon bermoqda.

Ilg'or pedagogik tajribalarni tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim-tarbiya natijalarini pedagogik qonunivatlardan tamoyillar asosida, samaradorlik mezoni, innovatsiyani dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyatini tahlil qilish, baholash tadqiqotchidan yuksak metodologik bilim talab qiladi. Pedagogik tajriba maxsus tashkil etilgan eksperiment asosida ham bo'lishi mumkin. Ijodkor pedagog erishgan natijalarini tajribalari tahlilida metodologik tamoyil alohida o'rinn tutadi. Pedagogik tajribaning yangiligi, dolzarbligi, ilmiy amaliy ahamiyati asoslanadi, oldingi an'ana, tizimga qiyoslanadi. Ilg'or pedagogik tajribaning asosiy ko'rsatkichi innovatsion natijasidir.

Masalan, o'quvchi laming bilim darajasi, mustaqil o'zlashtirishi, olingen bilimlami erkin qo'llay olishi, tarbiyalanganlik darajasi, bilish motivi, ezgu maqsadi shakllanganligi. Ilg'or pedagogik tajribani ilmiy tahlil etishda vaqt tejamkorligi, tajribaning iqtisodiy afzalligi alohida o'rinn tutadi. Ma'lumki, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish kam mehnat qilib yuqori natija olishdir. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish ijodkor o'qituvchilarni kashf qilish ta'lim-tarbiya nazariyasini va ahamiyatini boyitadi. Ilmiy tadqiqotchi ijodkor o'qituvchi bilan yangi tajribalarni yaratishi mumkin, birga izlanish ishlarini tashkil etishi, tajriba yakka va jamaoa tarzida bo'lishi mumkin. Jamoaningning ilg'or tajribalari maqsadli, kompleks, rejali bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda ta'lim muassasalarida metodik kengashlar, birlashmalar ilg'or tajribalarni umumlashtirish markazlariga aylangan. Ilmiy seminarlarda ilg'or tajribalar natijasi, innovatsion loyihamar ilmiy amaliy bahosini, tavsiyasini olmoqda. Ilg'or pedagogika tajribalarni o'rganish metodi ilmiy tadqiqot muammosidan kelib chiqib har xil usullarda qo'llaniladi. Ta'lim-tarbiya amaliyotiga doir dolzarb tadqiqot, muammonisini tanlashda ilg'or pedagogik tajribalarga asoslaniladi, ilmiy farazlar ham ilg'or pedagogik tajribalar asosida shakllanadi. Tadqiqotchi nazariy qarashlami, umumlashtirish, eksperiment o'tkazish uni keng qoilash, uzlusiz ta'limtarbiya faoliyatida joriy etishda, ilg'or pedagogik tajribalarga tayanadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish natijasida nazariy va amaliy tavsiyalar yaratiladi. Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy tavsiya ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniqlanadi.

Pedagogik ijodkorlik majmui - pedagogik tajribadir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z pedagogic vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi shakti, metod va vositalarini izlab topishdir. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asosianib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarini oshish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdag'i quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ldi. Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisidir. Pedagogik tajribani to'plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi.

Pedagogik tajribani to'plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Maqsadni belgilash.
2. Ma'lumotlami to'plash.
3. Ma'lumotlarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
4. Yuqularni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy-pedagogik bilimlarning manbalariga nimalar kiradi?
2. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahiii etish usullarini izohlang?
3. Kuzatishning turlari va uning o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting?
4. Suhbat metodini qo'llashga qo'yiladigan metodologik talablarga nimalar kiradi?
5. So'rov metodining asosiy shakllarini sharhlang?
6. Test savollarini tuzish qoidalarini bayon eting?
7. Test metodini qo'llashga qo'yiladigan talablarni izohlang?
8. Eksperimentning qanday turlari mavjud?
9. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishning o'ziga xosliklarini bayon eting?

12-MAVZU: PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

12.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish metodikasi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etish o'ziga xos murakkab va ma'suiyatlidir. Inson predmetida ayniqa tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlari maqsadli, izchil amalga oshirish mazmuni belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarblii, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash qoilanmasidir. Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko'rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda statistik tahlil qilish va baholash kabi yo'nalishlardan iborat boiadi. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning rnezonidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o'z ifodasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ilmiy farazlami asoslashda tajriba-sinovlari muhim tarkibiy qismidir.

Ilmiy farazlarga asosan tajriba-sinov ishlari tashkil etiladi, ilmiy farazlar amaliyotda sinalsaqina nazariy g'oyaga aylanadi. Ilmiy farazlar tajribalarda asoslanmasa ilmiy tadqiqot yo'nalishi o'zgartiriladi, qayta tajriba o'tkaziladi. Ilmiy tadqiqotning konsepsiysi muammoning o'r ganish tarixiy taraqqiyoti, hayotda tipik ko'rinishlari tajribada sinab ko'rildi. Amaliy tajriba tadqiqot nazariyasini asoslaydi toidiradi. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari dasturi ilmiy tadqiqotni izchil amalga oshirish tizimi, mexanizmdir. Tadqiqot nazariyasini tajriba-sinov ishlari bir-biri bilan uzviy bogiqliq. Nazariyaning amaliyot bilan bogiqligi falsafiy kategoriya tajriba-sinov ishlaring metodologik asosidir. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Tadqiqot argumenti tajriba-sinov ishlaring natijasiga asosan ifodalanadi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlaring har xii variantda, har xil sharoitda

o'tkazilganiga bog'liq.

Pedagogik tadqiqotda subyektiv tavsiyalar o'tgan asrda ta'lim-tarbiya tizimini inqirozga olib bordi. Pedagogik tadqiqotlami argumentlash tajriba-sinov ishlari dasturining tarkibiy qismidir. Bir necha variantda, shart-sharoitda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlari sinab ko'rildi. Uzoq muddatli tajribada har bir bosqichda bajariladigan kuzatish tajriba-sinov ishlari tartibi belgilanadi. Tajriba guruhlari xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi. Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil argumentli konsepsiyalari, amaliy qo'llanmalar yaratish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqot yo'nalisi pedagogikaning tarkibiy qismlari, mavzuga doir tajriba-sinov ishlari dasturi yaratilishi, tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ham ijodkorlik bo'lishi mumkin.

12.2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot jarayonini modellashtirish. Modellashtirish - lotincha modulus – o'Ichov, me'yor - biror obyektlar tizimining obrazi yoki namunasi. Bilish obyektlarni tadqiq qilish, rnavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash, tizimli o'r ganish imkonini beradi. Modellashtirish metoddan hozirgi xususiyatida keng foydalanilmoqda, u ilmiy tadqiqot jarayonini engillashtiradi, ba'zi hollarda murakkab obyektlarni o'r ganishning yagona vositasiga aylanadi. Bu ayniqa, mavhum obyektlarni, ta'lim-tarbiya jarayonini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Modellar obyekt xususiyatlarini unda sodir bo'ladigan jarayonlarni tushuntirib berish uchun qo'llaniladi.

Modellashtirish tadqiqotchilik faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi turkum mohiyatini sinchiklab o'r ganib chiqadi. Zero, u yakuniy model sifatida nazariyani xulosa va g'oyalar biian boyitadi. Demak, modellashtirish tanlangan obyekt turkum ko'rinishida tasavvur etishga imkon beradi. Modellashtirish turli tabiatdagagi obyektlarni ularning analoglari asosida mavjud obyekt yoki qaytadan bunyod qilinayotgan obyektlar xususiyatlarini belgilash yoki aniqlashtirish maqsadida tadqiq qilish metodi.

"Model" atamasi qandaydir bir tizimni (namuna, andoza) ifoda etib, uning muayyan xususiyatlarini, boshqa, haqiqiy deb yuritiluvchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi kerak va belgilangan ma'noda

uni o‘rnini bosishi kerak. “Model” tushunchasi ilm-fanning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. Model - sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar ko‘rinishida sun‘iy hosil qilingan obyekt bo‘lib, u tadqiq qilinayotgan obyektga o‘xhash bo‘ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, obyektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlami sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi. Model - rasm, jadval, chizma kabilar ko‘rinishida tadqiq qilinayotgan obyektga o‘xhash bo‘lgan, uning tuzilishi, xususiyatlari, elementlari orasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlami sodda, kichraytirilgan ko‘rinishda aks ettiruvchi va namoyon etuvchi ramziy hosil qilingan obyekt.

Pedagogik ilmiy tadqiqot jarayonini, natijalarini modellashtirish, tizimli tadqiq etish, ifodalash, pedagogik va axborot texnologiyani keng joriy etilishi, ta’lim-tarbiya jarayonini serqirra murakkab, mavhum xususiyatlarini modellashtirish orqali samarali tadqiq etish mumkin. Modellashtirish o‘zining murakkab kompleks harakteriga ko‘ra, tadqiqot usullariga ko‘proq mansubdir. U bunday tadqiqot usuliki, unda tadqiqotchini qiziqtirgan obyekt shunga o‘xhash boshqa obyekt bilan almashtiriladi. Bunda birinchi obyekt original, ikkinkichi esa model bo‘ladi. Modellashtirish chizmali, matematik, mantiqiy, belgili shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Model - bilish obyekti o‘rnini bosadigan, amalda obyektlashtirilgan yoki fikran tasavvur qilinadigan narsa. Modelning asosiy vositalarini tanlashga nisbatan modellashtirishning turli xillari ham farqlanadi. EHMning yangi avlodи paydo bo‘lishi bilan fanda komp’yuterli modellashtirish keng miqyosda ommalashdi. Komp’yuterli modellashtirish mantiqiy va matematik modellashtirishdan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

Pedagogik iimiy tadqiqotlarni modellashtirishda tadqiqot obyekti va uning mantiqiy modeli o‘rtasida o‘xhashlik, muvofiqlik bo‘lishi g‘oyani ifodalash, tadqiqot nazariy darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Modellashtirish metodidan keng foydalanish ilmiy tadqiqot jarayonini engillashtiradi, ta’lim-tarbiya obyektni o‘rganishning qulay vositasiga aylanadi. Shuningdek, modellashtirish pedagogik obyekt xususiyatlarini tushuntirib berish uchun ham qo‘llaniladi. Modellashtirish har doim boshqa ilmiy metodlar bilan birga qo‘llaniladi va u eksperiment bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogik tizimni tadqiqotida modelli eksperiment qoilaniladi. Pedagogik ilmiy

tadqiqotlarda mantiqiy modellashtirishning har xil shakllaridan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli ifodalash imkoniyatini beradi. Modelli eksperiment ta’lim-tarbiya muassasalarining hujayhasida, ta’lim-tarbiya vositalarini ishab chiqishda samarali metoddir. Masofali ta’limni yo‘llarini, shakllarini, tizimini yaratishda ham modelli eksperiment qo‘llaniladi. Ta’lim-tarbiya jarayoni pedagogik kadrlar tayyorlashni ideallashtirishda modellashtirish ham qiluvchi imkoniyatga ega. Pedagogik jarayonning ideal shakli, tizimli modellashtirish orqali ifodalananadi, konseptual xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

12.3. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari. Ilmiy tadqiqotning natijasi, samaradorligi, uni tashkil etishga, izchilligiga bog‘liq. Mantiqiy izchillik pedagogik tadqiqot tizining tarkibiy qismlarini uzviyligi o‘zaro bog‘liqligidadir.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Tadqiqot obyekti va predmeti uning dolzarbligi;
2. Tadqiqot maqsadi fan taraqqiyotida tutgan o‘rni, ta’lim-tarbiya nazoriyasini takomillashtirish, mavzu bo‘yicha yangi konsepsiya yaratish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
3. Tadqiqotning muayyan maqsadi, predmeti, ilmiy muammodan kelib chiqadigan vazifalar;
4. Tadqiqoning konseptual asosi, nazariy qoidalari, tadqiqotning yetakchi g‘oyasi. Tadqiqotchining ilmiy yo‘nalishi, dastlabki konsepsiysi unga fanning taraqqiyotida maqsad va vazifalami aniqlash imkoniyati;
5. Tadqiqot natijasida fanning taraqqiyoti haqida ilmiy faraz. Ilmiy faraz o‘ziga xos dastlabki fikriy tadqiqot, ilmiy faoliyatga yo‘lovchi maqsad, motiv;
6. Ilmiy farazni amalda sinab ko‘rvuchi ishonchli tajriba, natijaga erishadigan tadqiqot metodika;
7. Ishlab chiqilgan tadqiqot metodikasi asosidaolinadigan ilmiy datilar, ilmiy tadqiqotning asosiy tarkibiy qismi, tadqiqot natijasida pedagogik nazariya va amaliyotni rivojlanishi darajalarini aniqlash;
8. Ilmiy konsepsiyanı ishlab chiqish, asosiy natijalarni alohida ko‘rsatish, g‘oyalalar, xulosalarni ilmiy ifodalash;
9. Olingan natijalarni amalda qo‘llash tadqiqotning muhim hisobchi.

Aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish, pedagogik qo'llanmalar yaratish, keng pedagogik ommaga umumlashtirish. Har bir pedagog izlanishi ana shunday ilmiy tadqiqot bosqichlariga amal qilishi, har bir bosqich uzviy bir-biri bilan bogiiqligi fanning talabidir. Ilmiy tadqiqotning har bir bosqichini o'ziga xos prinsiplari mavjud. Ilmiy tadqiqot boshlavchi ana shu xususiyatlami hisobga olishi tadqiqotchilik madaniyatini egallashi zarur. Yuqoridagi talablardan tashqari har bir ilmiy tadqiqot vazifasi muayyan ijtimoiy tarixiy shart-sharoitni hisobga oigan holda tajriba-sinov o'tkaziladi. Shuningdek, tadqiqotchi ilmiy izlanish vazifasining murakkabligi, mazmuni va metodik imkoniyatlarini hisobga oladi. Tadqiqot jarayonida u yoki bu bosqichda, faraz kutilmagan kamchilikka uchrashi mumkin. Ana shu kamchiliklarni tuzatish tadqiqotda to'g'ri yo'l tanlash, maqsadga erishish uchun tadqiqotchidan shijoat talab etiladi. Har qanday omadsiz urinish ilmiy izlanishni qulay yo'lini, muhim, ustivor bosh g'oyani topish, butun muammoni yechimini aniqlaydigan metodikani yaratish. Tadqiqot boshlovchi qoidaga asosan yangi tizim yaratishga urinadi. O'zida yangilikka intilish hissini, ko'nikmasini shakllantirish, yangi konsepsiylar rivojidan xabardor bo'lish tadqiqotchilik qudratini oshiradi. Muntazam yangi adabiyotni o'r ganib borish, konspektlash, ayniqsa, avtoreferat va maqolalami tahlil qilish, tadqiqot metodikasini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar ilgari surish pedagogik tadqiqot izchilligini ta'minlaydi. Pedagogik tadqiqotlami tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini quyidagi tadqiqot misolida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot mavzusi: Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Tajriba-sinov ishlarini muayyan tartibda va dastur asosida tashkil etilishi ushbu jarayonning samaradorligini ta'minladi. Tajriba-sinov ishlari dasturida talabalaming ma'naviy madaniyatini rivojlan-ganligini tashxis etish mezonlari, ko'rsatkichlari hamda diagnostik vositalari aniqlashtirildi.

3. Umumlashtiruvchi bosqich. Maqsad - barcha o'tkazilgan tajriba-sinov ishiarining yakunini chiqarish. Tahliliy bosqichda tajribasinov ishlari va olingan natijalar tahlil etildi. Izohli bosqich asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlariga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. Muammoni tadqiq etishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat bir

necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalaming mohiyatiga tayangan holda tajriba-sinov ishiarining umumiy davri va bosqichlari belgiiandi.

Bosqichlarning belgilanishida quyidagi tamoyillar ustuvor bo'ldi:

I. Har bir bosqichda aniq maqsad va vazifalaming amalga oshirilishiga erishish. I.Bosqichlar o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'-liqlik hamda uzviylikning mavjud bo'lishini ta'minlash. Muammoga doir manbalar mazmunini nazariy jihatdan tahlil etish hamda respondent-talaba va professor-o'qituvchilaming faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular ishtirokida suhbatiar tashkil etish asosida auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishi tasmin qilindi, tajriba-sinov ishlari jarayonida esa ushbu farazning to'g'riligi tasdiqlandi:

Obyektiv omillar: milliy qadriyatlar hamda milliy istiqlol g'oyasi asoslariga tayanilib yaratilgan o'quv manbalari (darsliklar,o'quv va metodik qo'llanmalar, risolalar, ma'ruza matnlari, ko'rsatmali qurollar, metodik ishlamalar); xalqning boy o'tmishi, madaniy merosi xususida ma'lumot bera olish imkoniyatiga ega bo'lgan yozma manba, badiiy, san'at, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar; me'moriy yodgorliklar, tarixiy qadamjolar; milliy qadriyatlar va ulaming mazmunida ilgari surilgan yuksak insoniy g'oyalar; ilm-fan, texnika, texnologiya, madaniyat, shu jumladan, sport sohalarida erishilayotgan yutuqlar, yaratilayotgan kashfiyotlar; yurt tabiatini, uning o'ziga xosliklari.

Subyektiv omillar: Vatan ozodligi va ravnaqi yo'lida jonini fido qilgan xalq qahramonlarining shaxsi, faoliyatlarining mazmuni vayorqin xotiraiari; ijtimoiy ishlab chiqarish sohalarining turli yo'natishlarida faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish ilg'orlari, ilm-fan, texnika, texnologiya, madaniyat, shu jumladan, sport sohalarida yutuqlarga erishgan shaxslar va ulartomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmuni; talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan, o'zining ma'naviy qiyofasi bilan ularga o'rnak bo'layotgan pedagog-xodimlar; ibratli oilalar va ularning a'zolari; namunalı mahallalarda istiqomat qiladigan keksa kishilar va ularning hayotiy tajribalari; xalq hurmatiga sazovor bo'lgan davlat atrofisining shaxsi va ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari;

o‘z Vatanidan uzoqda yashayotgan insonlarning taqdiri va ularning hayot yo‘llari xususida ma’lumot beruvchi hikoyalari.

Talabalarning ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatning quyidagi tamoyillar ustuvorligi asosida tashkil etilishiga alohida e’tibor berildi:

1. Talabalarning ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyat sifatida e’tirof etilganligi.
2. Tajriba-sinov ishlarni o’tkazilishidan ko‘zlangan maqsadning aniqligi.
3. Asosiy maqsad doirasida tajriba-sinov ishlarning har bir bosqichida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarning aniq belgilanishi, ya’ni, xususiy maqsadlarning aniqlanganligi.
4. Tajriba-sinov ishlarning puxta asoslangan loyiha asosida yo‘lga qo‘yilishi.
5. Talabalarning ma’naviy madaniyatini rivojlantirishni ta’min etuvchi shart-sharoitning mavjudligi.
6. Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlaming milliy qadriyatlar hamda milliy istiqlol g‘oyasi asoslari bilan boyitilganligi.
7. Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning ma’naviy qiyofasi va ularning kasbiy mahorati darajasining inobatga olinganligi.
8. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirish jarayonining izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilganligi.
9. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning dinamik xususiyat kasb etishi.
10. Tajriba-sinov ishlarni tashkil etishda talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini erkin namoyish eta olish huquqiga egaliklari.

Tajriba-sinov ishlari so‘ngida tadqiqotga doir empirik materiallarni umumlashtirish asosida pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlanganlik darajasini aniqlashga doir to‘rt (bilish-axboriy, qadriyatli-motivatsion, ijtimoiy-psixologik va faoliyatni tashkil etishga doir) guruh mezonlar bo‘yicha yakuniy holati hosil qilindi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik tajriba-sinov dasturi deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik tajriba-sinov dasturining tuzilishini izohlang.
3. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish tamoyillarini bayon eting.
4. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini amaliyotga tatbiq etish metodikasini tushuntirib bering.
5. Modellashtirish deganda nima tushiniladi?
6. Model nima va u qanday shakllarda loyihalashtiriladi?
7. Pedagogik modellashtirish tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogik jarayon modeli qanday ko‘rinishga ega?
9. Ideallashtirish metodining modellashtirish jarayonidagi o‘rnini izohlang.

13-MAVZU: PEDAGOGIK ILMIY TADQIQOT SAMARADORLIGINI ANIQLASH MEZONLARI

13.3. Pedagogik ilmiy-tadqiqot samaradorligini aniqlash mezonlari. Ilmiy tadqiqot samaradorligini, erishilgan natijaning haqqoniyligini aniqlashning o‘ziga xos mezonlari mavjud. Ilmiy haqiqatga erishish uchun muayyan ilmiy mezonlar qo‘llaniladi. Ilmiy tadqiqotning barcha belgilari o‘zaro bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi. Faqat tizimli tarzda, o‘zining bir butunligida ular ilmiy haqiqatni ro‘yobga chiqara oladi. Ana shu jihat bilan ilmiy haqiqat kundalik bilish haqiqatidan yoxud, boshqa bilish shakllaridan farq qiladi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot mezonlarining o‘ziga xosliklarini quyidagi tadqiqot misolida ko‘rib chiqamiz. Tadqiqot mavzusi: Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkumi modernizatsiyalashgan ta’midot vositasida rivojlantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish samaradorligini baholashda quyidagi mezonlarga asoslanildi:

I. Motivatsion-kognitiv: tarixiy voqealarni bilishga qiziqish va ehtiyoj; tarixiy tushuncha va atamalarni o‘zlashtirish; tarixiy voqealar mazmunini anglash; tarixiy voqelikni idrok etish;

II. Ijodiy: tarixiy voqelikka ijodiy yondashish; mantiqiy-analitik fikrlash; voqealarning sabablarini mustaqil tahlil etish, voqealarga o‘zining shaxsiy munosabatini bildirish;

III. Faoliyatli: tarixiy voqealarni og‘zaki, yozma va amaliy tarzda ko‘rsatib berish; mustaqil qaror qabul qilish, boshqa nuqtai nazarlarni qabul qilish va o‘z fikrini asoslash va o‘zgartirish kiritish.

Modernizatsiyalashgan didaktik ta’midot vositasida «O‘qish», «Odobnama» fanlari hamda «Tarix alifbosi» va «Tarix olamiga sayohat» qo‘srimcha kurslari o‘qitilib bo‘lingandan so‘ng, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini tashxis etish maqsadida fasilitatsion ta’lim strategiyalari qo‘llanildi. Nazorat va tajriba sinflari o‘quvchilariga sinovni o‘tkazishdan avval qo‘llaniladigan fasilitatsion ta’lim strategiyalari haqida ma’lumot berilib, bajarish tartiblari ko‘rsatildi.

Fasilitatsion ta’lim strategiyalari asosida bajarilgan topshiriqlar quyidagi mezonlar asosida tekshirildi:

I. Tarixiy voqea sodir bo‘lgan davrga doir: tarixiy voqea sodir

bo‘lgan vaqt, vaqt o‘lchov birliklari (asr, yil, oy); voqelikni sodir bo‘lish vaqt bilan bog‘liqlikda uni ketma-ketligi va davomiyligi haqida tushunchaga ega bo‘lish; Vatanimiz va jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslash; tarixiy davr nuqtai nazaridan voqelikni baholash.

II. Tarixiy voqea sodir bolgan makonga doir: tarixiy voqea sodir bo‘lgan joyning nomini, uning hozirda qanday atalishini bilish; voqeani rnazkur hududda sodir bo‘lish sabablarini anglash; voqeanning Vatanimiz tarixi bilan aloqadorligini baholash.

III. Tarixiy voqea bilan bog‘liq dalillarga doir: voqeanning sodir bolishi sabablarini izohlash; voqeada ishtirot etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega boiish; voqeanning ahamiyatini baholash. Mazkur mezonlar asosida o‘quvchilarida tarixiy tafakkuming rivojlanganlik bolatini aniqlash quyidagi darajalar asosida tahlil etildi: yuqori - o‘quvchi tarixiy voqea sodir bo‘lgan vaqt, voqelikni sodir bo‘lish vaqt bilan bogiiqlikda uni ketma-ketligi va davomiyligi haqida aniq tushunchaga ega; Vatanimiz va jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslay oladi; tarixiy voqea sodir boigan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bo‘lishi sabablarini tushuntirib bera oladi; voqeanning Vatanimiz tarixi bilan aloqadorligini baholay oladi; voqeanning sodir boiish sabablari, voqeada ishtirot etgan shaxslar haqida toiiq ma’lumotga ega; voqeanning ahamiyatini toiiq baholay oladi; o‘rtalik - o‘quvchi tarixiy voqea sodir bolgan vaqt, voqelikni sodir boiish vaqt bilan bog‘liqlikda uning ketma-ketligi va davomiyligi haqida tushunchaga ega; Vatanimiz va jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslay oladi; tarixiy voqea sodir bolgan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bolishi sabablarini izohlaydi; voqeanning sodir boiish sabablari, voqeada ishtirot etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega; voqeanning ahamiyatini baholay oladi; quyi - o‘quvchi tarixiy voqea sodir bo‘lgan vaqt haqida tushunchaga ega; tarixiy voqea sodir bo‘lgan joyning nomini biladi; voqeada ishtirot etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega, biroq voqelikning yuzaga kelish sabablari va uning ahamiyatini tushuntirib berishda qynaladi.

13.4. Ilmiy tadqiqotni aniqlash metodlari. Tarbiyalashga oid ishlajribalarini o‘rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonni huquq tadqiq qilmay turib, metodikani rivojlantirib bo‘lmaydi.

Hozirgi ta'lim-tarbiya pedagogikani ilmiy bilishning umumiyligi bilan uzviy, ammo boshqa har qanday fan kabi pedagogika fanining ham o'ziga hos xususini tadqiqot metodlari mavjud.

Ilmiy tadqiqot metodlari — bu qonuniy bog'lanishlarni, munoi sabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir. Kuzatish, tajriba, bog'cha hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, bolalarning ishlarini o'rganish, suhbat va so'rovnomalar o'tkazish ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi.

Kuzatish metodi. Kuzatish metodi — odatdag'i kuzatish natijalarini tegishlicha qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi, bu metod pedagog-tarbiyachi va bolalarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda aniq material to'plash imkonini beradi.

Kuzatish aniq maqsadni ko'zlangan reja asosida uzoq yoki yaqin vaqt oralig'ida davom etadi. Kuzatishning borishi, dalillar, sodir bo'layotgan voqealar, bolalarning matemetik tushunchalarni o'zlashtirish tasavvurlari kuzatish kundaligiga qayd qilib boriladi.

Kuzatish tutash yoki tanlama bo'lisi mumkin. Tutash kuzatishda kengroq olingan hodisa (masalan, matematika mashg'ulotlarida bolalarning bilish faoliyatlari), tanlama kuzatishda kichikkichik hajmdagi hodisalar (masalan, matematika mashg'ulotlarida bolalarning mustaqil ishlari) kuzatiladi. Kundalik yuritish kuzatishlarni qayd qilishning eng sodda metodidir.

Eksperiment — bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qiluvchi tatqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va muntazam ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment mashg'ulot jarayonida kasbiy qiziqishlarni tarbiyalashning u yoki bu usulini, ko'rsatma qo'llanmalarning samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi.

Tadqiqotchi eksperiment o'tkazishdan oldin tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarni hal qilinishi amaliyotda va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lisi kerak. Bolalar tasavvurlarini rivojlantirishga oid material to'plash yo'llarini belgilash imkonini beradi, tadqiqotchining aniq

materialda chalkashib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Eksperiment natijalarini tahlil qilish taqqoslash metodi bilan o'tkaziladi, buning uchun ikki yoki bir necha guruhlar tuziladi, bu guruhlarga olingan bolalar tarkibi bo'yicha tayyorgarlik darajalari va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha imkonli boricha bir xilda bo'lishi kerak. Tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan eksperimental material bo'yicha ish bajariladi. Taqqoslash uchun nazorat guruhlari tanlanadi, bu guruhlardagi bolalar tarkibi, ularning elementar matematik bilim darajalari bo'yicha taxminan eksperimental guruhlarga teng kuchli bo'lishi kerak, bu guruhlarda matematikadan mashg'ulotlar eksperimental guruhlarda qo'llaniladigan metodlar, vositalar va boshqalar qo'llanilmaydi.

Bolalarning tarkibi taxminan bir xil bo'lgan ikkita guruh olinadi; tadqiq qilinayotgan masalaning yangi yechimi shu guruhlarning bittasida qo'llaniladi so'ngra boshqa mavzu materiallarda ikkinchi bir guruhda qo'llaniladi; agar shunday qo'llanishdagi yangi metod, usul yaxshi natija bersa, metod o'zini oqlagan bo'ladi.

Tarbiyachi eksperimentni boshlashdan oldin, oraliq bosqichlari va oxirida hamma guruh bolalarining bilimlarini tekshiradi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida tadqiq qilinayotgan metod, usul va hokazolarning samaradorligi haqida xulosalar chiqariladi. Eksperimental va nazorat guruhlardan olingan sifat va miqdoriy natijalarini tahlil qilish asosida eksperimental xulosa chiqariladi. Miqdoriy kattaliklarni aniqlashning turli xil usullari (o'zlashtirilishi bo'yicha, to'g'ri va noto'g'ri javoblarni taqqoslash va hokazo) mavjud. Keyingi vaqtarda shu maqsadda turli xil statistika metodlaridan har xil hisoblash texnikasi va kibernetik vositalardan foydalanilmoqda. Ba'zi muhfm qoidalarni tajribaviy tekshirish ommaviy eksperiment yo'li bilan amalgalashiriladi.

Hujjatlarini o'rganish. O'quv hujjatlari (o'quv rejasi, dasturi, metodik ishlar hujjatlari, hisobotlar va hokazo) o'quv tarbiyaviy ishlarni rivojlanish jarayoni va holatini aks ettiradi. Bolalarning amaliy ishlarni o'rganish ilmiy tadqiqot ishi uchun ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida nazorat qilish, bolalar qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Ish daftari mashg'ulot jarayonining oynasi, pedagog-tarbiyachi ishi sistemasining ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan.

Suhbat metodi. Pedagogik tadqiqotlarda suhbat metodidan ham foydalaniladi. Bu metoddan foydalanish kuzatishdan olingen ma'lumotlarni to'ldiruvchi va aniqlovchi materiallar olish, eksperimental topshiriqlar bajarish imkonini beradi. Bu metod muvaffaqiyatining asosi bolalar bilan aloqa o'rnatilishi, ular bilan bemalol erkin muloqotda bo'lish imkoniyatidan iborat.

Suhbat uchun o'tkaziladigan tadbirning maqsadini belgilash, dastur ishlansasi, yo'nalishi va metodikasini asoslash juda muhimdir. Suhbat ralldi bevosita berilgan savollarga javoblarning ishonchligini tekshirish imkonini beruvchi bevosita va bivosita savollarni kiritishni nazarda tutadi. Bolalarning javoblari albatta video tasmasiga qayd qilinishi mumkin.

Biror masalaga nisbatan fikrlarni aniqlash, qo'llanmalarni toplash talab qilingan hollarda tarbiyachilarda aniqlashtirish metodidan foydalaniladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda elementar matematik tasawurlarni shakllantirishda nazariy metodlar yetakchi rol o'yaydi. Har bir tadqiqotda oldin o'rganish obyektni tanlash, nazariy tahlil asosida obyekt qaysi dalillarga bog'liqligini aniqlash va tekshirish uchun ulardan yetakchilarini tanlash kerak. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini yaqqol aniqlash gipotezasini (faraz) tuzish, shunga mos ravishda tadqiqot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, tadqiqotning borishida olingen dalillarni tushuntirish hamda tahlil qilish usullarini tanlash va xulosalarni ifodalash lozim. Bu ishlarning hammasini bajarish uchun tadqiq qilinayotgan masalaning ilgari va hozirgi vaqtagi nazariya hamda amaliyotni yorituvchi adabiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish kerak. Nazariy metodlar boshqa metodlar bilan bir qatorda matematika mashg'ulotlariga oid har bir tadqiqotda qo'llaniladi. Har qanday ilmiy muammolarni hal qilishda eng oldin qilinayotgan masalaga oid hamma adabiyotni o'rganish va nazariy tadqiqot o'tkazish kerak. Busiz u maqsadga yo'naltirilgan bo'lmaydi, sinash ba'zan xatolar yo'li bilan olib boriladi, har doim ham qo'yilgan masalaning to'la jalb qilinishiga olib kelavermaydi. Shu bilan birga adabiyotni o'rganmay turib va nazariy tahlil qilmay turib, fanda izchillik ta'minlanmaydi.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasiga doir

tadqiqotlarda boshqa metodlardan ham foydalilanadi. Odatdagi bu metodlarning hammasidan birgalikda foydalanish, bir xil ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi zamон didaktikasida mashg'ulot metodlari kvalifikatsiyasiga har xil yondoshish mavjud. Yuqorida keltirilgan mashg'ulot metodlari pedagog-tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyatidan iborat ekanligi ko'rindi.

Dinobarin, bunday faoliyat tashkil qilish rag'batlantirishga va nazorat qilishni nazarda tutadi, shunga ko'ra mashg'ulot ham uchta katta guruhga bo'linadi:

- o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari;
- o'quv bilish faoliyatini rag'batlantirish metodlari;
- 6 o'quv bilish faoliyatining samaradorligini nazorat

I. Bolalarni amaliy ishlari(plastilin,karton,qog'ozlardanyasashgan narsalar,turli predmetlar va hokazo).

II. Bolalar fikrining yo'nalishi bo'yicha:
O'shashlik, uzviylik, bog'liqlik.

III. Pedagogik ta'sir, boshqarishning darajasi, bolalarning mustaqilliklar darajasi bo'yicha: pedagog-tarbiyachi boshchiligidagi bajariladigan o'quv ishi metodi; bolalarning mustaqil ishlari metodi.

IV. Bolalarning mustaqil aktivliklari darajasi bo'yicha
Reproduktiv metod: bilimlarni muammoli bayon qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

Og'zaki metodlar — qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p ma'lumotlar berish, bolalar oldiga muammolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi.

Bu metodlar bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirishdagi abstrakt tafakkurlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

a) Tushuntirish. Bilimlarni tushuntirish metodining mohiyati shundan iboratki, bunda pedagog-tarbiyachi materialni bayon qiladi, bolalar esa uni, ya'ni bilimlarni tayyor holda qaljiji qilib olishadi.

b) Suhbat—bu eng ko'p tarqalgan va yetarlicha mashg'ulot metodlaridan biri bo'lib, jarayonning har xil bosqichlarda, har xil o'quv maqsadlarida qo'llanishi mumkin, ya'ni yangi berilgan topshiriqlarni va mustaqil ishlarni tekshirishda, yangi materialni

tushuntirishda, mustahkamlash va takrorlashda qo'llanilishi mumkin. Suhbat — bu mashg'ulotning savol-javob metodidir, bunda pedagog-tarbiyachi bolalarning elementar matematik tasavvurlari, bilimlarni o'zlashtirganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda, maxsus tanlangan savollar tizimi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi.

Metodik adabiyotda suhbat metodidan ko'pincha matematik tushunchalar bilan tanishtirilayotganda qonuniyatlar tipidagi bilimlar tanishtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Mashg'ulotlarda suhbatning ikki xilidan, ya'ni katexezik va evrestik suhbatdan foydalaniladi.

Katexezik suhbat shunday savollar tizimi asosida tuziladiki, va Savollar ilgari tasavvurdagi o'zlashtirilgan bilimlar, matematik ttefhunchalarni oddiygina qayta eslatishni talab etadi. Ko'rsatmali metodlar. Mashg'ulotning ko'rsatmali metodlari bolalarni ko'rsatmalar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning aktiv shaklidir, bundan mashg'ulotda, ayniqsa, bog'cha-maktablarda keng foydalaniladi. Atrof-borliqdagi predmet va hodisalar hamda ularning turli-tuman modellari (har xil turdag'i ko'rsatma qo'llanmalar) kuzatish obyektlari hisoblanadi. Mashg'ulotning ko'rsatmali og'zaki metodlaridan foydalaniladi. Ko'rsatma-qo'llanmalarni namoyish qilish har doim pedagog-tarbiyachining tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi. Pedagog-tarbiyachining so'zi bilan ko'rsatma vositalardan birgalikda foydalanishning 4 ta asosiy shakli aniqlangan:

- 1) pedagog-tarbiyachi so'zlar yordamida bolalarning kuzatishlarini boshqaradi;
- 2) og'zaki tushuntirishlar obyektning bevosita ko'rinnmaydigan tomonlari haqida ma'lumotlar beradi;
- 3) ko'rsatmali qo'llanmalar tarbiyachining og'zaki tushuntirishlarini tasdiqlovchi yoki konkretlashtiruvchi ilyustratsiya bo'lib xizmat qiladi;
- 4) pedagog-tarbiyachi bolalar kuzatishlarini umumlashtiradi va umumiy xulosa chiqaradi.

Amaliy metodlar. Malaka va ko'nikmalarni, tasawurlarni shakllantirish hamda mukammallashtirish jarayoni bilan bog'liq

bo'lgan metodlar mashg'ulotning amaliy metodlari hisoblanadi. Xususan, bunday metodlar mashg'ulotlar jumlasiga og'zaki mashqlar, amaliy (sayr davomida) ijodiy xarakterdagi mashqlarga, masalan, masala va misollarni turli usullar bilan og'zaki yechish, og'zaki masala tuzish, sxemaga ko'ra og'zaki sodda masala tuzish, muammoli xarakterdagi masalalarni og'zaki yechish mashqlari va boshqa mashqlar kiradi.

Nazorat savollari:

1. Ta'limiy mezonlar va indikatorlar deganda nima tushuniladi?
2. Individual-shaxsiy rivojlanish mezonlariga nimalarни kiritish mumkin?
3. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mezonlarini manbalardan o'qib-o'rganing?
4. Ta'lim sohasini rivojlantirishning maxsus mezonlari va ko'rsatichlarini mustaqil ravishda aniqlashtiring va loyiha ko'rinishida taqdim eting?

14-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTNING MATEMATIK-STATISTIK METODLARI

14.1. Pedagogik tadqiqotning matematik-statistik metodlari. Avvalo metod tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsam, Metod (lotincha «metodos»-«yo‘l») tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta’lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o‘rganiladi. Bundan tashqari metodlar bilim oluvchi yoshlarni va talabalarni ruhlantirib ilm olishga davat qiladi, ularni bilimini o‘chab yakuniy xulosalarni beradi. Pedagogik tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma’lumotlarni yig‘ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo‘yicha miqdoriy tahlil o‘rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, korrelyatsiya koefitsiyenti grafiklarini tuzish, xulosalarning to‘g‘riligini ta’minlovchi ma’lumotlarni yig‘ish: (buning uchun turli xil metodlar qo’llaniladi), ta’lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o’tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’milanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shartsharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur choratadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi

xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur.

Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o‘tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi;

Shuningdek, metodlar belgilanishida dars jarayonida ishtirok etayotgan o‘quvchilarining ko‘nikmasi, o‘zlashtirish darajasi hisobga olinadi va o‘rni kelganda bir vaqtida bir nechta metoddan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bunday vaziyatda metodlar bir-biriga mutanosib bo‘lishi va o‘quvchilar darajasiga mos bo‘lishi ham kerak. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa, ta’limtarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ilmiy-tadqiqot metodlari aynan tizimi hozirgacha fanda to‘la yaratilmagan, hal etilmagan. O‘qituvchilar bilim ko‘nikmasi oshgani sari tadqiqot metodlarning soni va usullari ortib boradi.

Hozirda asosan mavjud bo‘lgan metod usullari quyidagilarni tashkil etadi:

1. Adabiyotlarni o‘rganish metodi;
2. Kuzatish metodi;
3. Suhbat metodi;
4. Bolalar ijodini o‘rganish metodi;
5. Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi;
6. Eksperiment-tajriba, sinov usuli;
7. Test sinovlari metodi;
8. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usuli;
9. Matematik va kibernetik usullar;
10. Sotsiollogik tadqiqot metodi.

Pedagogika fani o‘z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda

mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan uslublari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot uslublari deganda, yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, usullari va vositalari majmui tushuniladi.

Metodlar asosan ikki usul yordamida amalga oshiriladi. Bular: kuzatish va tajriba. Kuzatish ilmiy pedagogik metodi bo'lib, pedagogik voqe va hodisalarni ilmiy asoslashga tayanadi. Tajriba bo'lsa ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kuzatishning ikki turi mavjud bo'lib, oddiy kuzatish hayotiy voqe-hodisalarni tahlil qilish bilan cheklanadi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot esa pedagogik voqe-hodisalarning ichki qonuniyatlarini, mohiyatini ilmiy asoslab beradi, maxsus kuzatish natijalari qayd etib boriladi. Tajriba ham ikki turga bo'linib, labaratoriya o'tkaziladigan tajriba va tabiiy holatda o'tkaziladigan tajriba. Labaratoriya o'tkaziladigan tajriba maxsus ajratilgan xonalarda, didaktik vositalar yordamida o'tkaziladi. Bu labaratoriya jarayonlaridan asosan, kimyo va fizika fanlarida o'qilgan nazariyani amaliyotda qo'llashda foydalaniлади. Tabiiy holatda o'tkaziladigan tajriba esa shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'tkaziladi. Ya'ni psixologik va jismoniy holatlarning bosqichlarida bo'lishi mumkin.

Muammo - bu ilmiy-tadqiqot ishidagi yechimi talab qilinadigan nazariy yoki amaliy masala bo'lib, u mavzuning dolzarbligi asosida ifoda qilinadi. Ular ilmiy, ilmiyuslubiy, ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etiladigan masaladan iborat bo'ladi. Ilmiyyatdagi ishi davomida muammoni to'g'ri qo'yish va unga mos tadqiqot maqsadini aniqlash muhim bosqich hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ilmiy izlanishlar va metodlarni qo'llanishi ma'lum bir masala-muammoga yechim va unga yakuniy xulosalar berishdan iborat. Asosiy masala esa o'sha muammoni aniq topish va to'g'ri yechim bera olishdir. Dars o'tish jarayonida sinfdagi yoki dars holatidagi muammolarni to'g'ri yo'nalish bilan bartaraf etish o'qituvchining vazifasidir.

Matematik-statistik metod ilmiy tadqiqotda keng qollanilishi hozirgi davr fanining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Matematik-

statistik metodning qo'llanilishi tadqiqot samaradorligini oshiradi, pedagogik voqelikning aniq ifodalash, mavjud voqelikning ichki bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash, uni har xil sharoitda samaradorligi, rivojlanish darajalarini bilish, baholash imkoniyatlarini oshiradi. Pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqish ilmiy ishlami samaradorligini kafolatlaydi.

Pedagogik tadqiqotda miqdoriy baholash ta'limiy, tarbiyaviy voqelikni mohiyati va matematik tilda ifodalash metodikasıdır. Pedagogik tushuncha aniqligi, matematik tilda uni ifodalash, tadqiqot natijalarini umumlashtirishni osonlashtiradi.

Pedagogik tadqiqotni matematiklashtirish ilmiy sifat darajasi aniq bo'lishiga bog'liq. Muayyan voqelikni natijani faqat darajalarini tahlilida nazariyani yaratilgani, nazariy tushunchalar matematik tilda ifodalanishi farazni asosolaydi. Sifatiy tahlil, miqdoriy tahlilda yanada samarali bo'ladi.

Matematik metoddan samarali foydalanish asosi maxsus metodlar tizimini rivojlanishi bilan bog'liq. Maxsus metodlarni taraqqiy etgani matematik metodga manba' tayyorlaydi, uyg'unlikda ilmiy tadqiqot natijasini interpretatsiya natijasini oshiradi. Matematiklashtirish har bir fanning predmeti uning tarixiy taraqqiyoti fundamental bog'liq murakkab va samarali jarayondir. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining keng rivojlangani pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish imkoniyatlarini, zaruriyatini yanada oshirdi. Ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanishi sifatini miqdoriy tahlili keng qo'llanilmoqda.

Pedagogik tadqiqotlarning matematik tili, lingvistikasining shakllanishi ta'lim-tarbiya nazariyasining ifodalovchi vositasiga aylangan. Bu esa pedagogik voqelik, tadqiqoi natijalarini muayyanlik darajasini oshiradi. Shuning uchun pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish tadqiqot metodlaridan ko'ra ilmiy konsepsiya, nazariyani ifodalovchi samarali vositaga aylanmoqda. Matematik metoaning evrestik xususiyatini oshirish, pedagogik tadqiqotlarni yangilik yaratish, ijodiy izlanish, fikrlash omilkorligini oshirmoqda. Shuning uchun bo'lajak olimlarni pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish madaniyati ilmiy tadqiqot intensivligini ta'minlaydi.

Matematik tahlil metodini qollashda:

- dalillarni miqdoriy sonlar bilan ifodalash zaruratini asoslash;
- sonlar bilan umumlashtirish maqsadini yoritish;
- tablitsalarni oddiy, tushunarli til bilan umumlashtirish;
- eng muhim miqdorni, jadvaini taqdim etish;
- jadvallarni gorizental va vertikal tahlil qilish kabi tamoyillarga amal qilinadi.

Pedagogik tadqoqitlarda matematik-statistik metodni qo'llashni quyidagi tadqiqot misolida ko'rib chiqamiz.

Matematik-statistik metod ilmiy tadqiqotda keng qo'llanilishi hozirgi davr fanining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Matematik-statistik metodning qo'llanilishi tadqiqot samaradorligini oshiradi, pedagogik voqelikning aniq ifodalash, mavjud voqelikning ichki bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash, uni har xil sharoitda samaradorligi, rivojlanish darajalarini bilish, baholash imkoniyatlarini oshiradi. Pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqish ilmiy ishlami samaradorligini kafolatlaydi. Pedagogik tadqiqotda miqdoriy baholash ta'limi, tarbiyaviy voqelikni mohiyati va matematik tilda ifodalash metodikasidir. Pedagogik tushuncha aniqligi, matematik tilda uni ifodalash, tadqiqot natijalarini umumlashtirishni osonlashtiradi. Pedagogik tadqiqotni matematiklashtirish ilmiy sifat darajasi aniq bo'lishiga bog'liq. Muayyan voqelikni natijani faqat darajalarini tahlilida nazariyani yaratilgani, nazariy tushunchalar matematik tilda ifodalanishi farazni asosolaydi. Sifatiy tahlil, miqdoriy tahlilda yanada samarali bo'ladi. Matematik metoddan samarali foydalanish asosi maxsus metodlar tizimini rivojlanishi bilan bog'liq. Maxsus metodlarni taraqqiy etgani matematik metodga manba tayyorlaydi, uyg'unlikda ilmiy tadqiqot natijasini interpretatsiya natijasini oshiradi. Matematiklashtirish har bir fanning predmeti uning tarixiy taraqqiyoti fundamental bog'liq murakkab va samarali jarayondir.

Pedagogikada nazariy tadqiqotlar natijasiga o'chovli yondoshish 19 asr oxiri 20 asr boshlarida joriy etila boshlandi. Miqdoriy baholash metodi nazariy, eksperimental tadqiqotlarning, didaktikaning asosiy metodidan biri bo'ldi. Ammo bu metodikaga germenevitik pedagogika, madaniyat pedagogikasi, falsafiy pedagogika, ekzistensialistik pedagogika tarafdarlari qarshi chiqdilar. Shunga

qaramay, eksperimental pedagogika rivojlandi, matematik statistik metod pedagogik tadqiqotlarning samarali metodlaridan biri bo'lib qoldi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining keng rivojlangani pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish imkoniyatlarini, zaruriyatini yanada oshirdi. Ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanishi sifatini miqdoriy tahlili keng qo'llanilmoqda. Pedagogik tadqiqotlarning matematik tili, lingvistikasining shakllanishi ta'lim-tarbiya nazariyasining ifodalovchi vositasiga aylangan. Bu esa pedagogik voqelik, tadqiqoi natijalarini muayyanlik darajasini oshiradi. Shuning uchun pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish tadqiqot metodlaridan ko'ra ilmiy konsepsiya, nazariyani ifodalovchi samarali vositaga aylanmoqda. Matematik metodning evrestik xususiyatini oshirish, pedagogik tadqiqotlarni yangilik yaratish, ijodiy izlanish, fikrlash omilkorligini oshirmoqda. Shuning uchun bo'lajak olimlarni pedagogik tadqiqotlarni matematiklashtirish madaniyati ilmiy tadqiqot intensivligini ta'minlaydi.

Matematik tahlil metodini qo'llashda:

- dalillarni miqdoriy sonlar bilan ifodalash zaruratini asoslash;
- sonlar bilan umumlashtirish maqsadini yoritish;
- tablitsalarni oddiy, tushunarli til bilan umumlashtirish;
- eng muhim miqdorni, jadvaini taqdim etish;
- jadvallami gorizental va vertikal tahlil qilish kabi tamoyillarga amal qilinadi.

Pedagogik tadqoqitlarda matematik-statistik metodni qo'llashni quyidagi tadqiqot misolida ko'rib chiqamiz. Tadqiqot mavzusi: Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan ta'minot vositasida rivojlantirish. Pedagogik sinov-tajriba natijalarini tahlil etishda o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan ioyihalar va yaratilgan o'quv portfoliosini baholash samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan tajriba hamda nazorat sinflaridagi o'z!ashtirishlarni yuqoridagi mezonlar bo'yicha matematik-statistika metodi yordamida tahlil etildi. Tajriba-sinovda 987 nafar o'quvchilar qatnashdi, shundan hisoblash qulay bo'lishi uchun reprezentativ ravishda tajriba sinfining 175 nafar va nazorat sinfning 165 nafar o'quvchisining natijalari asos sifatida olindi.

Masalaning qisqa mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri tajriba-sinov sinfidagi

o'quvchilarning bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat sinfidagi o'quvchilarning bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb nisoblanadi. Bunday faraz o'rinnlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, ular bajariladi.

14.2. O'quv portfoliolarini baholash samaradorligi. Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n , va rij takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik $P_i = \dots$ va $q_i = \dots$ tarzida belgilaymiz. n, m_j Bu o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyibalami baholashda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\{X_i | 4, 3, 2, 1 * [P_i, 0,35; 0,39; 0,19; 0,07. f] \text{ va } fY_j | 4, 3, 2, 1 \\ \{q_j, 0,16; 0,25; 0,25; 0,34. ,=1\}$$

O'quvchilar tomonidan yaratilgan o'quv portfoliosini baholashda esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$[X_i | 4, 3, 2, 1 \ll [?-, 0,46; 0,4; 0,14. 0. t r \text{ va } 4, 3, 2, -1 \{q_j, 0,17; 0,28; 0,24; 0,31.$$

Statistik tahlilni har ikki sinf bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'quvchalar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni baholashda quyidagi natijalami berdi:

$$2 > i = 150 . . — ** 02 Foizda X \% = — 100\% = 75.5\% 4 - H---4 Y = ^, Y > = 0,16 \cdot 4 + 0,25 \cdot 3 + 0,25 \cdot 2 + 0,34 \cdot 1 = 0,64 + 0,75 + 0,50 + 0,34 = 2,23 > ! Foizda r\% = — -100\% = 55,8\% 4$$

Demak, tajriba sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish (75,5 - 55,8) \% = 19,7%ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida ^ o - = i,35 barobar 55,8% ortiqligini anglatadi. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'quvchilar tomonidan yaratilgan o'quv portfoliosini baholashda esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\gg=4 X = 11 p = 0,46 \cdot 4 + 0,4 \cdot 3 + 0,14 \cdot 2 + 0 \cdot 1 = 1,84 + 1,2 + 0,28 + 0 = 3,32 Foizda X \% = — 100\% = 83\% 4 \ll=4 \Gamma = f 7,815 — t0,95 154 esa: xl,, = 84,12 > 7,815 = to.95 ga teng.$$

Bundan Xi-kvadrat taqsimot kritik nuqtadan katta bo'lgani uchun nolinchi gipoteza rad etildi. Endi baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun oraüq intervallarini topamiz. U o'quvchilar tomonidan ishlab chiqiigan loyihalarni baholashda;

X esa: J Bundan $x=0,05$ qiymatdorlik darajasi bilan aytish

mumkinki, tajriba sinfidagi o'rtacha baho nazorat sinfidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga o'shilgani ma'lum bo'ldi. Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz. Bizga ma'lum o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni baholashda $\bar{x} = 3,02$; $\bar{f} = 2,23$; $A_r = 0,13$; $\Delta_r = 0,17$ ga teng.

O'quvchilar tomonidan yaratilgan o'quv portfoliosini baholashda $\bar{X} = 3,32$; $\bar{f} = 2,31$; $A_r = 0,11$; $\Delta_r = 0,16$ ga teng. Bundan sifat ko'rsatgichlari: O'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalami baholashda $(\bar{f} - A_r) = 3,02 - 0,13 = 2,89 = f^* > J \approx (K + \bar{A}_r) 2,23 + 0,17 2,4 Kae = (F - \Delta_r) = (3,02 - 0,13) - (2,23 - 0,17) = 3,09 - 2,06 = 0,83 > 0$

O'quvchilar tomonidan yaratilgan o'quv portfoliosini baholashda $\bar{X} = 3,32 - 0,11 = 3,21$; $\bar{f} = 2,31 - 0,17 = 2,14$; $K = (X - A_r) = (3,32 - 0,11) - (2,23 - 0,16) = 3,21 - 2,15 = 1,06 > 0$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonidan kattaligi va bilish darajasini baholash mezon noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni va yaratilgan o'quv portfoliosini baholash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Nazorat savollari:

1. Matematik-statistik metodlar pedagogik tadqiqotlarda qanday o'rinn egallaydi?
2. Quyidagi matematik-statistik metod bilan bog'liq tushunchalar is'riini toping va ularning mohiyatini ochib bering: tenglamalar, gipoteza, boshlang'ich gipoteza, tasodify miqdor, korrelyatsion farg'iamish, tekshirish metodi, birinchi jinsli xato, ikkinchi jinsli xato, f-mezon, f-mezon, x2 -mezon, ruxsat etilganlik mezon, ozodlik darajasi, dispersiya, taqsimot funktsiyasi, kritik qiymat, bosh o'plam, normal taqsimot.

15-MAVZU: PEDAGOGIK ILMIY TADQIQOT ISHLARINI HIOYAGA TAYYORLASH VA OMMALASHTIRISH

15.1. Dissertatsiyaning tuzilishi va mazmuni. Doktorlik dissertatsiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim: mundarija; kirish (dissertatsiya annotatsiyasi); asosiy qism; xulosa; foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati; shartli belgilar va atamalar ro'yxati (mavjud bo'lsa); ilovalar (mavjud bo'lsa). Dissertatsiyaning mundarijasida boblar va paragraflarning nomlanishi hamda ularning beti ko'rsatiladi. Dissertatsiyaning kirish qismi tadqiqotning mohiyati to'g'risida qisqa, lekin yaxlit tasawur hosil qilishga imkon berishi kerak. Mazkur qismda dissertatsiya tadqiqoti mohiyatini tavsiyaydigan asosiy ma'lumotlar puxta tahrir qilingan, qisqa, aniq va ravon bo'lishi kerak.

Dissertatsiyaning kirish qismida quyidagilar yoritib berilishi kerak: dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati;

tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy iimiy tadqiqotlar sharhi (faqt fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi uchun);

muammoning o'r ganilganlik darajasi;

dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaliari bilan bog'liqligi;

tadqiqotning maqsadi;

tadqiqotning vazifalari;

tadqiqotning ob'ekti;

tadqiqotning predmeti;

tadqiqotning usullari;

tadqiqotning ilmiy yangiligi;

tadqiqotning amaliy natijalar;

tadqiqot natijalarining ishonchliligi;

tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati;

tadqiqot natijalarining joriy qilinishi;

tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi;

tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi;

dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiyaning asosiy qismida ishning mazmun-mohiyati bayon qilinadi. Asosiy qism — boblar va paragraflardan tashkil topadi. Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasining asosiy qismi kamida uchta bobdan, fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasining asosiy qismi esa, kamida to'rtta bobdan iborat bo'lishi lozim. Dissertatsiya xulosasida dissertatsiya tadqiqoti bo'yicha umumlashtirilgan xulosa, fikr, taklif hamda tavsiyalar qisqa va aniq keltiriladi.

Xulosa tahriri jihatdan puxta, qisqa, aniq va ravshan ifodalanib, bandlangan (raqamlangan) holda rasmiylashtiriladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati dissertatsiya matnida havola qilingan barcha ilmiy va boshqa nashrlar ro'yxatidan iborat bo'lishi kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi: normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga mo'lik nashrlar; monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar; foydalilanigan boshqa adabiyotlar. Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati alifbo, sistematik yoki matnda havola qilinishi ketma-ketligi tarzida keltiriladi. Dissertatsiyada foydalilmagan va havola qilinmagan adabiyotlarni ro'yxatga kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Dissertatsiyada foydalangan materiallar manbai, uning muallifi va nomi to'liq ko'rsatilishi lozim. Dissertatsiyada ilmiy ish yozishda ishtiroy eiga hammulliflarning g'oya yoki ishlanmalaridan foydalilanigan inglemlarda, ular dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatida qayd etilishi shart. Dissertatsiyaning shartli belgilar va atamalar ro'yxati qismida dissertatsiya matnida nisbatan ko'p uchraydigan maxsus belgilar va qisqartma so'zlarga izoh berilishi kerak.

Dissertatsiyaning ilovalari dissertatsiyaning asosiy matni bilan birga bitta jildga jamlangan yoki alohida jild shaklida rasmiylashtirilishi mumkin. Ilovalarga dissertatsiya matnini i'ttiradigan va tasvirlaydigan yordamchi materiallar kiritilishi mumkin. Ilovalarning ketma-ketligi dissertatsiya matnida ularga havola qilish tartibiga mos kelishi kerak. Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasining hajmi 60 varaqdan, fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasining hajmi esa, 100 varaqdan oshmasligi kerak (matn varaqning old va orqa tomoniga yoziladi).

Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi dissertatsiya hajmi ko‘pi bilan 30 foizga oshirilishi mumkin. Mundarija, foydalaniigan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgililar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalar ko‘rsatilgan hajmga kiritilmaydi.

15.2. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va rasmiylashtirish qoidalari. Magistrlik dissertatsiyasi o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish jarayonida magistratura talabasi egallagan rvazariy va amaliy bilirnlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning natijasi hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari oliy ta’lim muassasalari kafedralarida kafedralarning professor-o‘qituvchilari tarkibi,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy tadqiqot va loyihalash muassasalari xodimlari tomonidan shakllantiriladi. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari, qoidaga ko‘ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag‘ishlanadi. Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik oliy ta’lim muassasalarida ishlaydigan professorlar, fan doktorlari, dotsentlar, fan nomzodlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari olimlari, tashkilotlaming yuqori malakali va tajribali mutaxassislari, shuningdek belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy darajalar yoki ilmiy unvonlarga ega boigan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Magistratura talabasi o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan unga ilmiy rahbar tayinlangan taqdirda, talabaga qo‘srimcha ravishda tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tarkibidan ilmiy maslahatchi tayinlanadi. Belgilangan talablarga muvofiq magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas’uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi.

Magistratura talabasi o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasasi xodimlari tarkibidan boigan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo‘yicha talabalar bilan ishlashi ulaming oliy ta’lim muassasasida o‘quv yili shaxsiy ish rejasi bilan belgianadigan o‘quv yuklamasiga kiritiladi. Magistratura talabasi o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan bo‘lgan ilmiy rahbar mehnatiga haq to‘lash belgilariqan tartibda mehnatga soatbay haq to‘lash shartlari bo‘yicha bir o‘quv yiliga bir magistratura talabasi uchun 50 soatdan oshmagan hajmda, tegishli

oliy ta’lim muassasasi xarajatlar smetasida bu maqsadlar uchun nazarada tutilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:

titul varaq;

ikki tilda (o‘qitish tili va ingliz tiüda) magistrlik dissertatsiyasining qisqacha annotatsiyasi;

mundarija;

kirish;

asosiy qism;

xulosa;

adabiyotlar ro‘yxati;

ilovalar (mavjud bo‘lsa).

Kirish quyidagilarni qisqacha o‘z ichiga olishi lozim: magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi; tadqiqot ob’ekti va predmeti; tadqiqot maqsadi va vazifalari; ilmiy yangiligi; tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari; tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili); tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi; tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati; ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi kamida uch bobdan iborat bo‘lib, boblar hajm jihatidan o‘aro mutanosib bo‘lishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim: tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili; tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayoni; tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko‘rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni, Magistrlik dissertatsiyasining xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natjalaming ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo‘yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa qismi 4 sahifadan oshmasligi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo‘lgan qo‘srimcha ma’lumotlami o‘z ichiga oigan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistratura talabasi kasb odob-axloqi qoidalariga rioxha etishi

(plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg'on sitatalar keltirishga yo'l qo'ymaslik) lozim.

Dissertatsiya matni standart varaqda yozilgan bo'lib, unda quyidagi qoidalarga rioya etilgan bo'lishi lozim: qatorlar oralig'i — 1,5 sm; yuqori va pastki hoshiya 2 sm, satr boshi: chap tomonidan 3 sm, o'ng tomonidan 2 sm; xatboshilar orasidagi oraliq — 5 yoki 6 belgili. Magistrlik dissertatsiyasi matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman shriftida yozish tavsiya etiladi. Magistrlik dissertatsiyasining hajmi ti tul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 70 — 80 sahifa bo'lishi tavsiya etiladi.

15.3. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki va rasmiy himoyasini o'tkazish tartibi. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedra tomonidan tuzilgan komissiyada tashkil etiladi. Dastlabki himoyaga boshqa kafedralardan, shuningdek boshqa tashkilotlardan mutaxassislartaklif etilishi mumkin. Ilmiy maslahatchi tayinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasiga xulosa olish ham talab etiladi. Dastlabki himoyaga qadar magistratura talabasi ichki va tashqi hamda ilmiy rahbar taqrizlariga, shuningdek dissertatsiya mavzusiga doir kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezisiga ega bo'lishi kerak. Dastlabki himoya yakunlari kafedralar yig'ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ichki va tashqi taqrizchilarni oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrasi tavsiya etadi va ularning ro'yxati ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (direktor o'rinnbosari) tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizchi vazifalariga quyidagilar kiradi:

magistrlik dissertatsiyasining dolzarbliji, ilmiy yangiligi va tugallanganligi to'g'risida xulosa taqdim etish;

dastlabki himoyadan kamida 3 kun oldin taqriz taqdim etish;

kasb odob-axloqi qoidalaring buzilishi holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on sitata keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ulami taqrizda ko'rsatish.

Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, magistratura talabasi tomonidan kasb odob-axloqi qoidalari (plagiat, ma'lumotlami soxtalashtirish, yolg'on sitata keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek

oshbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmaganda taqrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga qo'yish maqadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa beradi. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buynjg'i bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta'lim muassasasining Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinnlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

Magistratura talabasi magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi taqdimot materiallari bilan bayon etilishi va 20 daqiqadan oshmasligi lozim. Rasmiy himoyada

Komissiya a'zolari magistratura talabasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib bera olishi;

magistratura talabasining tadqiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;

foydalilanigan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;

tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanilganligining asoslanganligi;

oligan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy shamiyatini;

magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingen natijalami rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyatini;

magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni kuzata bilish malakasi.

"Qoniqarsiz" baho qo'yilganda yoki magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoyaga qo'yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 yil davomida uni qayta himoya qiiish huquqiga ega. Magistrlik dissertatsiyalari rasmiy himoyasi natijalari oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashida muhokama etiladi. Himoya qilingan magistrlik dissertatsiyalari oliy ta'lim muassasasida 3 yil davomida saqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Doktorlik dissertatsiyalari qanday tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim?
2. Doktorlik dissertatsiyasining kirish qismi qanday komponentlami o‘z ichiga oladi?
3. Doktorlik dissertatsiyalari hajmi va rasmiylashtirilishiga qo‘yiladigan talablarni tushuntirib bering.
4. Magistrlik dissertatsiyalarni rasmiylashtirish talablarini bayon eting.
5. Magistriik dissertatsiyani dastlabki va rasrniy himoya qilish tartibini tushuntirib berin

GLOSSARIY

Abstraktlashtirish (mavhumlashtirish) – fikrlash jarayoni, o‘rganilayotgan hodisalarning asosiy qonuniyatlarini aks ettirish imkonini beradigan nazariy umumlashtirish.

Abstraksiya – narsalar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning bir qator xossalarni fikran ajratish.

Agnostitsizm – falsafiy ta’limot, obyektiv borliq va haqiqatning obyektiv mohiyatini bilishni rad etadi, fanning vazifasini hodisalarning bilish bilan chegaralaydi, narsalar mohiyati va tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlar rivojlanish qonuniyatlarini bilish mumkin emas deb hisoblaydi.

Adaptatsiya yoki moslashtirish – aks ettirishning alohida shakli, ichki va tashqi muhit o‘rtasida dinamik muvozanat o‘rnatuvchi jarayon.

Algoritm – 1) qat’iy belgilangan qoida bo‘yicha tatbiq etiladigan operatsiyalar tizimi, u tadrijiy ravishda bajarilgandan so‘ng qo‘yilgan masalani yechimga olib keladi; 2) boshlang‘ich berilganlarni izlanayotgan natijaga keltiruvchi mohiyatni belgilovchi va operatsiyalar ketma-ketligining ifodasi.

Amaliy ahamiyat (qimmat) – tadqiqotchilik ishi natijalaridan amaliyotda foydalanish tusi.

Analogiya – o‘xhashligi, prototipi tanlanadigan fikriy operatsiya.

Aniqlashtirish – abstraktlashtirishga teskari jarayon, yaxlit, o‘zaro bog‘liq, ko‘p tomonlama obyektning topilishini nazarda tutadi.

Annotatsiya – nashr haqidagi qiskacha axborot; hujjat, uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining vazifasi, mazmuni, shakli va boshqa sususiyatlari nuqtai nazaridan tavsifnomasi.

Aprobatsiya – tekshirish, sinashga asoslangan qo‘llab quvvatlash, tasdiqlash.

Arxetip – jamoaviy ongsiz holatlarda mavjud bo‘lib, tasavvurning faoliagini o‘stiruvchi fantaziyalar obrazlarining tug‘ma psixik tuzilmalari, boshlang‘ich sxemalari.

Bibliografiya – 1) nashr va qo‘lyozma mahsulotlarini hisobga oluvchi va u haqidagi ma‘lumotlardan iborat ilmiy va amaliy faoliyat farg‘i; 2) mavzu bo‘yicha adabiyotlarning to‘liq yoki saralangan ro‘yxati.

Gipoteza – faraz; biror hodisani tushuntirish uchun ilgari surilayotgan va ishonchli ilmiy nazariya bo‘lishi uchun tajribada tekshirishni hamda nazariy jihatdan asoslashni talab etuvchi ilmiy fikr.

Gnoseologiya – nazariy bilish, ilmiy bilish manbalari, shakllari va usullarini, uning haqiqat ekanlik shartlarini, insonning hayotini o‘rganish.

Dalillangan esse – quyilgan savolga dalillangan javob mavjud bo‘lgan yozma ish. Muallif muayyan pozitsiyaga ega va uni himoya qiladi, uni quvvatlash uchun bir qator dalillarni taq-dim etadi.

Maqsad – muallifning nuqtai nazariga boshqalarni ham ishonrirish.

Deduksiya – fikrlashning umumiyligini qonuniyatlardan xususiy faktlarga tomon rivojlanishini nazarda tutadigan fikriy operatsiya.

Ilmiy ish – muayyan ilmiy (akademik) malakani (darajani) olish maqsadida maxsus tayyorlangan, ommaviy muhokamaga va himoyaga qo‘yiladigan ilmiy asar.

Ilmiy yo‘nalish – tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan, fanlar yoki ilmiy muammolar majmui.

Ilmiy ish – boshka har qanday ishdan o‘zining maqsadi, yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonda voqeqlik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi.

Ilmiy ish rejasi – muallif g‘oyasining sxematik ifodasi.

Ilmiy mavzu – yechimini talab qiladigan murakkab vazifa. Ilmiy ish mavzusi muayyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin.

Ilmiy muammo – ilmiy tadqiqotchilik ishi mavzusini belgilaydigan murakkab nazariy va (yoki) amaliy vazifalar majmui. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot uslubi – muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimi.

Induksiya – xususiy faktlarni umumlashtirish, ayrim hollarda umumiyligini xulosaga, ayrim faktlardan umumlashtirishga olib keluvchi fikriy operatsiya.

Konspekt – asosiy xulosalar va qoidalar, faktlar, dalillar, usullarini o‘z ichiga oladi; tuzuvchining materialga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

Konsepsiya – qarashlar tizimi, hodisalar, jarayonlarning biror tarzda tushunilishi.

Kuzatish – eng ko‘p axborotli tadqiqot uslubi, bo‘lgan va o‘rganilayotgan jarayonlar va hodisalarini chetdan turib ko‘rishga imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi – mavzuning nazariya va amaliyot uchun kerakli ekanligi, fanda ko‘pincha oldingi nazariy tasavvurlar doirasiga yaqqol joylashmaydigan yangi faktlarning kashf qilinishi natijasida vujudga keladigan vaziyatning mavjudligi bilan belgilanadi.

Magistr – ilmiy ijod metodologiyasi va uslubiyati, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallagan, axborotlarni tahlil etish va sintez qilish malakasiga ega bo‘lgan keng bilimli mutaxassis.

Magistratura – oliy ta’limning ilmiy tadqiqotchilik va ilmiy-pedagogik faoliyatga mutaxassislarini tayyorlash shakli.

Ilmiy ish – magistrni tayyorlash bo‘yicha asosiy kasbiy ta’lim dasturiga o‘qitishning yakunlovchi bosqichida talaba-tadqiqotchi tomonidan ilmiy rahbar rahbarligida mustaqil bajariladigan ilmiy yo‘nalishdagi ish.

Maqola – mustaqil ilmiy tadqiqot, dolzarb ilmiy muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilish.

Metod – 1) tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotni tadqiq etish va bilish usuli; 2) yo‘l, usul yoki harakat tarzi.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari, yo‘llarining majmui.

Metodologiya – 1) bilishning ilmiy usuli haqidagi ta’limot; 2) biror fanda qo‘llaniladigan usullar majmui.

Modellashtirish – tadqiqotchilikning model qurilishini nazarda tutadigan nazariy uslubi.

Model – 1) yalpi ishlab chiqarish uchun biror bir buyumning namunasi; 2) narsaning kichraytirilgan ko‘rinishdagi tarzi; 3) tabiatda va jamiyatdagi biror hodisa yoki jarayonning tasviri yoki tavsifi, tarxi.

Monitoring – tadqiqot natijalarining doimiy nazorat qilinishi, muntazam kuzatib borilishi.

Muammo – bilim bilan bilmaslik o‘rtasidagi o‘ziga xos chegara. U oldingi bilim etarli bo‘lmagan, yangi bilim esa hozircha rivojlangan shaklga ega bo‘lmagan holatda paydo bo‘ladi.

Mutolaa – nutqiy faoliyatning murakkab turi, texnik jihatiga mutolaa qilish va tez o‘qish malakalarini orttirish, ijodiy jihatiga matndan zarur axborotlarni olishdan iborat.

Nazariya – 1) tabiat va jamiyat rivojining obyektiv qonuniyatlarini ifodalovchi ijtimoiy amaliyat, tajribani umumlashtirish; 2) biror fan yoki uning qismi umumlashtirilgan qoidalarining majmui.

Naturfalsafa – tabiat falsafasi; tabiatni uning yaxlitligida aqliy mushohada yo‘li bilan talqin qilish.

Obyekt – 1) bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog‘liq bo‘Imagan holda mavjud tashqi dunyo, u idroklash subyektning amaliy ta’sir o‘tkazuvchi manba; 2) biror faoliyat yo‘naltirilgan narsa, hodisa.

Paradoks – 1) umum qabul qilingan, oqilona fikrga zid fikr, mulohaza; 2) odatdagi tasavvurlarga mos kelmaydigan kutilmagan hodisa.

Reja – eng qisqa yozuv bo‘lib, u fikr bayonining izchilligini aks ettiradi va umumlashtiradi; matnning mazmunini ochib beradi; manbaning mazmunini xotirada qayta tiklaydi; konsept va tezislarni o‘rnini bosadi; har xil yozuvlarni (ma’ruza, axborot, xisobot) tuzishga yordam beradi; bajarilgan yozuvni yaxshilaydi; o‘zini o‘zi nazorat qilishni tezlashtiradi; e’tiborni jamlaydi; yaxshi tanish bo‘lgan matnni xotirada jonlantrish uchun ishlataladi.

Referat – bir yoki bir necha manbalarda mavjud bo‘lgan g‘oyalarning qisqacha yozuvi, u har xil nuqtai nazarlarni qiyoslash va tahlil qilish mahoratini taqozo etadi.

Sintez – fikriy operatsiya; ongda bir butunlikda, birlgilikda va o‘zaro aloqadagi qismlar sifatida mavjud bo‘lgan biror narsa, hodisani ilmiy tadqiq etish usuli; qo‘silma, umumlashma.

Subyekt – 1) tashqi dunyo (obyekt)ni idrok etayotgan va o‘z amaliy faoliyati mobaynida unga ta’sir o‘tkazadigan inson; 2) huquq va majburiyatlarni zimmasiga oluvchi (jismoniy yoki yuridik) shaxs.

Suhbat – empirik uslub; javob beruvchi bilan shaxsiy aloqani nazarda tutadi.

Tadqiqot vazifasi – ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishi.

Tadqiqot dasturi – aniq mavzu ustidagi bo‘lg‘usi ishning mohiyati va tarkibiy qismlari haqidagi aniq tasavvurdir.

Tadqiqot maqsadi – tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni sohlagan pirovard natijar.

Tadqiqot obyekti – muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yunaltirilgan narsa.

Tadqiqot predmeti – obyektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot obyekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

Tadqiqot uslubiyati (texnologiyasi) – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarining qo‘llanish va ular yordamida olingan natija-larni talqin qilish qoidalari tizimi. Uslubiyat o‘rganiladigan obyekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga ishlab chiqilgan uslublar, tadqiqotchi malakasining umumiylariga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot farazi – bevosita kuzatilayotgan hodisa, o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar tusi haqidagi ilmiy asoslangan taxmin. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi.

Tajriba – umumiy empirik tadqiqot uslubi bo‘lib, u boshqariladigan sharoitda o‘rganilayotgan obyektlar ustidan qat’iy nazorat yuritilishiga asoslanadi.

Tajriba ishi – birmuncha yuksak natjalarni olishni ko‘zlab jarayonga oldindan belgilangan o‘zgarishlar, innovatsiyalarni kiritish uslubi.

Taksonomiya – iyerarxik tuzilishga ega bo‘lgan mavjudlikning murakkab tashkil etilgan sohasini tasniflash va sistemalashtirish nazariysi.

Tasniflash – o‘rganiladigan obyektlar, faktlarni o‘rganishning nazariy uslubi; hodisalarni bir-biriga nisbatan tartibga solishga asoslanadi.

Tahhil – 1) yaxlitni tarkibiy qismlarga fikran yoki fizik ajratishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli; 2) bo‘laklarga ajratish, nimanidir ko‘rib chiqish.

Tekshirish – tadqiq qilinayotgan obyektning u yoki boshqa darajadagi teranlik va detallashtirish bilan o‘rganilishi; tadqiqot

maksadlari va vazifalari bilan belgilanadi.

Test – 1) aqliy rivojlanish, qobiliyat, iroda va insonning boshqa ruhiy fiziologik tabiatini belgilash sinov o'tkaziladigan topshiriqlarning standart shakli; 2) muayyan ijtimoiy tadqiqotlar uchun foydalanimadigan so'rov nomasi.

Traktat – muayyan yondashuvni belgilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mulohaza shaklidagi ilmiy ish.

Transsendensiya – hissiy tajriba bilan tasdiklanmaydigan aqliy mushohada obyektlarining oliv turini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Umumlashtirish – muhim fikriy operatsiyalardan biri; uning natijasida obyektlar va ular munosabatlarining nisbatan barqaror xususiyatlari ajratiladi va qayd qilinadi.

Unifikatsiya – uyg'unlashtirish; biror narsani yagona sistema, shakl, bir toifaga keltirish.

Fakt – 1) haqiqatda mavjud, o'ylab topilmagan voqeа, hodisa; biror taxminni tekshirishdan iborat qandaydir xulosa, mulohaza uchun xizmat qiluvchi qat'iy belgilangan bilim, tajribadagi ma'lumot; 2) obyektiv mavjud bo'lgan haqiqat, aniqlik.

Faraz (gipoteza) – oldindan o'rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo'ladigan nazariy taxmin.

Evristsika – 1) yo'naltiruvchi savollar yordamida ta'lim berish tizimi; 2) nazariy tadqiqotning mantiqiy usullari va uslubiy qoidalari majmui va haqiqatni izlash.

Ekstrapolyasiya – hodisaning bir qismida kuzatish tufayli olingan xulosani boshqa qismiga tadbiq etishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli.

Esse – muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayon; qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo'yicha umumi yoki oldindan bildirilgan fikr-muloxazalar.

Yangilik – fanning shu tarmog'iga yoki umuman fanga ulush darajasi; natijalar har xil tusda bo'lishi mumkin; natijalar yoki ularning bir qismi yangi bo'lishi mumkin, shuningdek natijalarning katta qismi yangilik sifatida qayd qilinmasligi ham mumkin.

Qiyoqlash – obyektlarning o'xshashligi va farqlarini, umumiyligi va alohilaligini aniqlash maqsadida obyektlarning qiyoqlanishini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1.Алемасов В., Мамадалиев Ш. Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт / Ўқув қўлланма. – Т.: ИИВ Академияси, 2015.
- 2.Алимжонова Ж.И. Илмий тадқиқот методологияси / Маъруза матнлари. – Т., 2010.
- 3.Алимова Х.А. ва бошқ. Магистрлар илмий иш ишларини ташкил қилиш, бажариш ва ҳимояга тайёрлаш бўйича услубий қўлланма. – Т.: ТТЕСИ, 2001.
- 4.Аиуфриев А. Ф. Научное исследование. Курсовые, дипломные и диссертационные работы. – М., 2002.
- 5.Баскаков М. И. От реферата до дипломной работы. – Ростов на Дону, 2001.
- 6.Бахтина И.Л., Лобут А.А., Мартюшов Л.Н. Методология и методы научного познания/Учебное пособие. – Екатеринбург: УГПУ, 2016. – 119 с.
7. Вайнцвайг П. Десять заповедей творческой личности. – М., 1990.
8. Веревкин А. Я. Как оформить библиографию к научной работе: Методическое пособие. – М., 1992.
9. Гецов Г.Г. Работа с книгой: рациональные приемы. – М., 1984.
- 10.Горелов Н.А. Методология научных исследований / Учебник для бакалавриата и магистратуры. – М.: Юрайт, 2016.
- 11.Давлат божхона қўмитасининг Божхона институтида бакалавриат ва магистратура босқичларида ўқув жараёнини ташкил этиш тўғрисидаги низом (ДБҚнинг 2019.01.12 даги 677-сон буйруғига 1-илова).
- 12.Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари / Ўқув-услубий қўлланма / Б.Ю.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, М.Р.Болтабаев, Л.В.Голиш, О.Б.Гимранова. – Т.: Экономика, 2010. – 138 б.
- 13.История экономических учений: Учебное пособие / Под ред. В.Автономова, О.Ананьина, Н.Макашевой. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 784 с.
- 14.Кара-Мурза Г. Проблемы организации научных

- исследований. – М., 1981.
15. Колмогоров Ю.Н., Сергеев А.П., Тарасов Д.А., Арапова С.П. Методы и средства научных исследований / Учебное пособие. – Екатеринбург: Изд. Уральского ун-та, 2017.
 16. Краевский В.В. Методология научного исследования / Пособие для студентов и аспирантов гуманитарных университетов. – Санкт-Петербург: ГУП, 2001.
 17. Крутиков В.К., Зайцев Ю.В., Костина О.И. Методология и методика в экономических исследованиях/Учебно-методическое пособие. – Калуга: Изд. “Эйдос”, 2012.
 18. Крутов В.И., Грушко И.М. Основы научных исследований / Учебное пособие. – М., 1989.
 19. Кузнецов И.Н. Научное исследование. – Минск, 1998.
 20. Липчиу Н.В., Липчиу К.И. Методология научного исследования / Учебное пособие. – Краснодар, 2013. – 290 с.
 21. Магистратура тўғрисида Низом / ЎзР ВМ 02.03.2015 йил 36-сон Қарорига илова (ЎзР ҚҲТ, 2015 й., 9-сон, 98-модда, 43-сон, 549-модда; ҚҲММБ, 11.08.2018 й., 09/18/638/1690-сон).
 22. Мақсудов Э.Т. ва бошқ. Магистрлик илмий иш ишини бажариш ва расмийлаштириш бўйича услугубий қўлланма. – Т.: ТТЕСИ, 2001. – 16 б.
 23. Методические указания по написанию магистерской диссертации. – Москва, 2014.
 24. Мигачев Ю.И., Петров М.П., Шамрин М.Ю. Как написать магистерскую диссертацию по государственно-правовому профилю / учебное пособие. – Москва: ООО «Проспект», 2019.
 25. Мокий М.С., Никифоров А.Л., Мокий В.С. Методология научных исследований / Учебник для магистров. – Москва: Юрайт, 2014. – 255 с.
 26. Новиков А.М. Как работать над диссертацией: Пособие для начинающего педагога-исследователя. – М.: Издательство ИПК и ПРНОМО, 1996. – 112 с.
 27. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования / Учебно-методическое пособие. – Москва: Либроком, 2010. – 280 с.
 28. Олий таълим муассасаларини ўкув адабиётлари билан таъминлаш тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори (ҚҲММБ, 11.10.2018 й., 09/18/816/2032-сон).
 29. Основы научно-исследовательской деятельности: учеб. пособие / А.Г. Бурда; Кубан. гос. аграр. ун-т. – Краснодар, 2015.
 30. Папковская П.Я. Методология научных исследований. – Минск, 2002.
 31. Подольская Е.А. Методология научных исследований / Терминологический словарь. – Харьков: Изд. НУА, 2016. – 124 б.
 32. Пономарев А.Б., Пикулева Э.А. Методология научных исследований / Учебное пособие. – Пермь: НИПУ, 2014. – 186 с.
 33. Пустынникова Е.В. Методология научного исследования / Учебное пособие. – Ульяновск: УлГУ, 2017. – 130 с.
 34. Рахматов А.Д., Юнусов Р.Ф. Илмий тадқиқот асослари / ўкув қўлланма. – Т.: ТИМИ, 2008. – 210 б.
 35. Рузавин Г.И. Методология научного исследования / Учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999.
 36. Сабитов Р.А. Основы научных исследований / Учебное пособие. – Челябинск: ЧГУ, 2002. – 138 с.
 37. Салимова Т.А., Бирюкова Л.И., Маколов В.И. Подготовка и защита магистерской диссертации / Учебно-методическое пособие. – Саранск, 2015. – 62 с. 123
 38. Светлакова Н.А. Научные исследования в экономике / Учебное пособие. – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2016. – 137 с.
 39. Учебные и научные издания. Основные виды и аппарат (Методические указания) / сост. Н. П. Лиханская, Г. В. Фисенко, Н. С. Ляшко, А. А. Багинская. – Краснодар: КубГАУ, 2015. – 31 с.
 40. Шермуҳамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. – Т.: Фан ва технология, 2014.
 41. Эко Умберто. Как написать дипломную работу. Гуманитарные науки: Учебно-методическое пособие / Пер. с ит. Е. Костюкович. – М.: Книжный дом «Университет», 2003.
 42. Ўзбекистон Республикасининг “Муаллифлик хукуки ва турдош хукуклар тўғрисида”ги қонуни // ЎзР ҚҲТ, 2006 й., 28-29-сон, 260-модда; 2011 й., 51-сон, 542-модда; 2013 й., 1-сон, 1-модда, 41-сон, 543-модда; ҚҲММБ, 19.04.2018 й.,

43. Ўзбекистон Республикасининг “ЭҲМ учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларининг хукукий химояси тўғрисида”ти қонуни // ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 136-модда; ЎзР Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 4-5-сон, 74-модда, 9-сон, 165-модда; ЎзР КХТ, 2011 й., 52-сон, 555-модда.

44. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида магистратура фаолиятини янада такомиллаштириш, унинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида / ЎзР ВМ 10.09.2007 йил 190-сон қарори (ЎзР КХТ, 2007 й., 37-38-сон, 384- модда).

45. Гуломов С.С., Қосимов F.M. Маркетинг илмий тадқиқот методологияси: Дарслик. – Т.: ТДАУ, 2013.

46. Internet saytlari:

<http://www.vak.uzsci.net>

<https://ru-science.com>

<https://edunews.ru>

<https://www.dissertatus.ru/>

<https://dissertatsija.com/>

<https://nauchniestati.ru>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-Mavzu: Pedagogik tadqiqotning mazmun va mohiyati	5
2-Mavzu: Pedagogik fanlar va pedagogik amaliyat o‘zaro aloqadorligining funksional-tuzilmalı modeli.....	21
3-Mavzu: Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.....	36
4-Mavzu: Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ilarning roli	47
5-Mavzu: Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash	66
6-Mavzu: Pedagogik tadqiqot obyekti va predmeti	72
7-Mavzu: Ilmiy tadqiqotning farazi	76
8-Mavzu: Pedagogik tadqiqotning metodologik tamoyillari.....	84
9-Mavzu: Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati	92
10-Mavzu: Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari	95
11-Mavzu: Adabiyotlar va arxiv materiallarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rov, test, eksperiment-emperik tadqiqot metodlari sifatida.....	101
12-Mavzu: Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va samaradorligini baholash.....	120
13-Mavzu: Pedagogik ilmiy tadqiqot samaradorligini aniqlash mezonlari.....	128
14-Mavzu: Pedagogik tadqiqotning matematik-statistik metodlari...	136
15-Mavzu: Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini hioyaga tayyorlash va ommalashtirish.....	144
Glossariy	151
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati	157

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

Darslik

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo'ziyeva

Musaxhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 247227. 29.03.2023 y.

Bosishga ruxsat etildi 24.09.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz.

“Times New Roman” garniturasi.

Hisob-nashr tabogi 10,3.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2306183.

«Osiyo tur» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Nashriyot tel. raqami +998 (94) 673-66-56

+998 (97) 017-01-01

ISBN 978-9910-782-19-3

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9910-782-19-3.

9 789910 782193